



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MARKAZIY
BANKI**

YILLIK HISOBOT 2024

Toshkent 2025

QISQARTMALAR

ACCA	Association of Chartered Certified Accountants (<i>Sertifikatlangan Diplomli Buxgalterlar Assotsiatsiyasi</i>)
AFI	Moliyaviy ommaboplik alyansi
ARIMA	Autoregressive integrated moving average (<i>Ekonometrik model</i>)
BigTech	Yirik texnologik korxonalar
CFA	Chartered Financial Analyst (<i>Sertifikatlangan moliyaviy tahlilchi</i>)
CIR	Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi
DSGE	Dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli
DSTI	Kredit to'lovining daromadga nisbati
ESG	Environmental, social, and governance (<i>Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv</i>) reytingi
IPO	Initial Public Offering (<i>Aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish</i>)
LCR	Likvidlilikni qoplash me'yori (<i>Bank tizimida qisqa muddatli likvidlilik ko'rsatkichi</i>)
LTV	Kredit summasini garov summasiga nisbati
MIDAS	Mixed-data sampling (<i>Ekonometrik model</i>)
NFC	Near field communication (<i>Qisqa masofali kontaktsiz to'lov texnologiyasi</i>)
NPL	Nonperforming Loan (<i>Muammoli kreditlar</i>)
NSFR	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (<i>Bank tizimida uzoq muddatli likvidlilik ko'rsatkichi</i>)
OTP	Bir martalik tasdiqlash kodi
PMI	Global iqtisodiy faollik indeksi (<i>Purchasing Managers' Index</i>)
PwC	"PricewaterhouseCoopers" xalqaro auditorlik tashkiloti
ROA	Bank tizimi aktivlar rentabelligi
SupTech	Markaziy bank tizimida samarali va yuqori texnologik nazorat tizimini
AJ	Aksiyadorlik jamiyati
AITB	Aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki
AT	Aksiyadorlik tijorat
ATB	Aksiyadorlik tijorat banki
ATIB	Aksiyadorlik tijorat ipoteka banki
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
DQQ	Davlat qimmatli qog'ozlari
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
INI	Iste'mol narxlari indeksi
ICHNI	Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi

KATM	“Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi” MChJ
QQS	Qo‘shilgan qiymat solig‘i
MBK	Moliyaviy barqarorlik kengashi
MTB	Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar
MUNIS	Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi
MHXS	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
MChJ	Mas’uliyati cheklangan jamiyati
NKT	Nobank kredit tashkilotlari
NOK	Narxlarni onlayn kuzatish tizimi
OAV	Ommaviy axborot vositalari
OPEK+	Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti
SDR	XVJdagi mablag‘ jalb qilishga doir maxsus huquqlar
FATF	Financial Action Task Force on Money Laundering (<i>Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralarni ishlab chiquvchi guruh</i>)
FZT	Federal rezerv tizimi
XAB	Xususiy aksiyadorlik banki
XATB	Xususiy aksiyadorlik tijorat banki
XVJ	Xalqaro valyuta jamg‘armasi
XMI	Xalqaro moliya institutlari
XMT	Xalqaro mehnat tashkiloti
YLA	Yuqori likvidli aktivlar
YaIM	Yalpi ichki mahsulot

MUNDARIJA

KIRISH	7
I. 2024-YILDA ICHKI VA TASHQI MAKROIQTISODIY SHAROITLAR	14
1.1. Ichki iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi.....	14
1.1.1. Iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi omillar.....	14
1.1.2. Ishlab chiqarish faolligi va mehnat bozori.....	18
1.2. Tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi.....	24
1.2.1. Global iqtisodiyotdagi tendensiyalar va kutilmalar	24
1.2.2. O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari iqtisodiyotidagi o'zgarishlar	31
1.3. Inflyatsion jarayonlar va kutilmalar.....	35
1.4. O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqei ko'rsatkichlari	39
II. 2024-YILDA BANK TIZIMI RIVOJLANISHI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGI.....	45
2.1. Bank tizimining moliyaviy barqarorlik holati	46
2.1.1. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi	50
2.1.2. Tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar tahlili	55
2.1.3. Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qo'llanilgan prudensial va makroprudensial chora-tadbirlar.....	58
2.2. Kredit va to'lov tashkilotlari infratuzilmasi	63
2.2.1. Faoliyat yuritayotgan kredit va to'lov tashkilotlari	63
2.2.2. Kredit axborotining davlat reyestri, Kredit byurosi va Garov reyestri faoliyati	64
2.2.3. Aholi omonatlarini kafolatlash tizimini takomillashtirish	68
2.3. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyatining samaradorligi	69
2.4. Kredit va to'lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish	80
2.4.1. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish	80
2.4.2. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish	84
2.4.3. Kredit va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasini tartibga solish va nazorat qilish ...	87
2.5. Faktoring operatsiyalarini rivojlantirish borasidagi faoliyat	90
III. MARKAZIY BANKNING PUL-KREDIT, VALYUTA VA KOMMUNIKASIYA SIYOSATI BORASIDAGI FAOLIYATI	94
3.1. Narxlar barqarorligini ta'minlash	94
3.1.1. 2024-yilda pul-kredit sharoitlari va instrumentlari tahlili.....	94
3.1.2. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmidagi o'zgarishlar	98
3.1.3. Banklararo pul bozori faoliyati tahlili va foiz stavkalari	99
3.1.4. Ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar tahlili	101
3.2. Valyuta siyosati va valyuta operatsiyalari tahlili.....	103

3.2.1. Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha mablag'lar harakati tahlili	104
3.2.2. Jismoniy shaxslar bilan valyuta operatsiyalari	106
3.3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini boshqarish borasidagi faoliyat.....	110
3.3.1. O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini dinamikasi va tarkibining tahlili	111
3.3.2. Xalqaro zaxiralarning yetarlilik ko'rsatkichlari va ularning tahlili	115
3.4. Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati	118
3.4.1. Pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishda Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati	118
3.4.2. Jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda kommunikatsiya instrumentlaridan samarali foydalanish	119
IV. MILLIY TO'LOV TIZIMINING RIVOJLANISHI, BANK TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI, AXBOROT MUHOFAZASI VA KIBERXAVFSIZLIK	122
4.1. Markaziy bankning to'lov tizimlari faoliyati.....	122
4.2. Bank kartalariga asoslangan chakana to'lov tizimlarining rivojlanishi.....	125
4.3. To'lov xizmatlari bozorida to'lov tashkilotlari faoliyati	130
4.4. To'lov tizimlari va tijorat banklari axborot tizimlarida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash	133
4.5. Markaziy bank tizimida raqamli texnologiyalarini joriy etish va faoliyatni raqamlashtirish	134
4.6. Markaziy bankda samarali va yuqori texnologik nazorat tizimini joriy etish va takomillashtirish	137
V. PUL MUOMALASINI TASHKIL ETISH	139
5.1. Naqd pul aylanmasi dinamikasi va undagi tarkibiy o'zgarishlar.....	139
5.2. Muomaladagi naqd pullar va ularning tarkibiy o'zgarishi	142
5.3. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar	144
VI. MOLIYAVIY XIZMATLAR OMMABOPLIGINI OSHIRISH VA BANK XIZMATLARI ISTE'MOLCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BORASIDAGI FAOLIYAT	146
6.1. Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish	146
6.2. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish	147
6.3. Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish	149
6.4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash.....	153
VII. XALQARO MUNOSABATLAR VA HAMKORLIK	156
7.1. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy Markaziy banklar bilan hamkorlik.....	156
7.2. Xalqaro reyting kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik	160
VIII. XODIMLAR BILAN ISHLASH VA MALAKASINI OSHIRISH, ICHKI NAZORAT HAMDA TADQIQOTLAR BORASIDAGI FAOLIYAT	163
8.1. Tashkiliy tuzilma	163
8.2. Xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish.....	163

8.3. Xodimlarni o‘qitish va qayta tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlar.....	164
8.4. Pul-kredit va moliyaviy statistikani takomillashtirish	165
8.5. Markaziy bank faoliyatidagi tahlil va tadqiqotlar.....	166
8.6. Ichki audit va komplayens-nazorat xizmati faoliyati.....	168
IX. ILOVALAR	173

KIRISH

Markaziy bankning 2024-yildagi faoliyatida asosiy e'tibor:

iqtisodiyotda inflyatsiyaga yalpi talab tomondan bo'lgan bosimlarni yumshatish, aholining jamg'arish faolligini rag'batlantirish hamda o'rta muddatli istiqbolida inflyatsiyaning belgilangan target ko'rsatkichiga yetishini ta'minlash,

bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini maqbullashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning salbiy ta'sirlarini yumshatish va banklar bardoshligini oshirish,

bank xizmatlari va hisob-kitob operatsiyalariga kibertahdidlarni va firibgarliklarni oldini olish maqsadlariga yo'naltirildi.

Hisobot yilining mart-aprel oylarida bazaviy inflyatsiya pasayib borishi hisobiga umumiy inflyatsiya darajasi o'zining so'nggi yillardagi eng past ko'rsatkichini qayd etgan bo'lsada, ikkinchi chorakda energiya resurslari narxlari erkinlashtirilishi, tibbiy xizmatlar va dori vositalariga qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilishi inflyatsiya darajasini sezilarli o'sishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi yarim yillikda umumiy inflyatsiya biroz pasayuvchi dinamikaga o'tib, yil yakunida yillik **9,8** foizni tashkil etdi va bunda energiya resurslari narxlari oshirilishining birlamchi ta'sirisiz inflyatsiya darajasi 6,3 foiz doirasida shakllandi.

Inflyatsiyaning kutilayotgan dinamikasi va inflyatsiyani oshiruvchi xatarlarning kamayganligini inobatga olib, iyul oyida asosiy stavka 14 foizdan **13,5** foizga pasaytirildi hamda yil davomida ushbu darajada o'zgarishsiz saqlab qolindi.

Asosiy stavka darajasining o'zgarishsiz saqlanib qolinishi hamda inflyatsiyaning oktabr oyidan pasayib boruvchi tendensiyaga o'tishi pul bozoridagi real foiz stavkalarining **2,2-5,1** foiz oralig'ida shakllanishiga va iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarini ta'minlanishiga xizmat qildi.

2024-yilda Markaziy bankning likvidlikni jalb etish operatsiyalariga bo'lgan talab banklarda tizimli likvidlikning ko'payishi fonida ortib borgan bo'lsa, likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga bo'lgan talab nisbatan muvozanatlashishi kuzatildi.

Bunda, Markaziy bank tomonidan 2024-yilda oylik o'rtacha 4 trln so'mlik likvidlik jalb etish operatsiyalari amalga oshirilib, likvidlikni taqdim etish operatsiyalari doirasida esa banklarga oylik o'rtacha 1,1 trln so'mlik likvidlik taqdim etib borildi.

2024-yilning iyun-dekabr oylarida bank tizimida yuzaga kelgan ortiqcha likvidlikning pul bozoridagi foiz stavkalari hamda inflyatsiya darajasiga ehtimoliy bosimini yumshatish maqsadida 17 trln so'mlik Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarildi.

Pul bozoridagi operatsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 31 foizga oshib, jami 507 trln so'mni tashkil etdi. Bunda, depozit operatsiyalari hajmi dinamikasida pasayuvchi tendensiya davom etib, jami 25 foizga qisqargan bo'lsa, o'z navbatida, REPO operatsiyalari hajmi 3,6 barobarga oshdi.

REPO operatsiyalarining pul bozoridagi ulushi 54 foizni tashkil etib, 2024-yil davomida muomaladagi davlat qimmatli qog'ozlari hajmi 2 barobardan ziyodga oshdi va yil yakunida 44 trln so'mga yetdi.

2024-yilda pul-kredit siyosati operatsion mexanizmini takomillashtirib borish, uning transmission kanalini yaxshilash, bank tizimi likvidligini samarali boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarining to'g'ri shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, bank tizimi likvidligini tartibga solish maqsadida har kuni asosiy stavkaning quyi chegarasida overnayt depozit operatsiyalari, haftaning payshanba kunlari esa asosiy stavkada cheklanmagan miqdorda depozit auksionlari o'tkazib borildi.

Xorijiy valyutadagi depozitlar uchun shakllantiriladigan majburiy zaxira talabi 2024-yil 1-iyuldan avvalgi 18 foizdan 14 foizgacha pasaytirildi va o'rtachalash me'yori 80 foizdan 100 foizgacha oshirildi va mazkur o'zgartirishlar natijasida banklarga **qo'shimcha 3 trln so'm likvidlikni tasarruf** etish imkoniyati yaratildi.

Moliya bozori ishtirokchilarining foiz stavkalari va makroiqtisodiy kutilmalarini o'rganish, qarz majburiyatlari bo'yicha muddatlar va foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida ma'lumot taqdim etish va iqtisodiyot subyektlarining investitsion qaror qabul qilishiga ko'maklashish maqsadida **Davlat qimmatli qog'ozlari daromadlilik egri chizig'ini** hisoblash va e'lon qilish amaliyoti joriy etildi.

Qayd etish joizki, 2024-yilda banklarning tadbirkorlik subyektlarining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda investitsion loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromad olish imkoniyatlarini kengaytirishdagi o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hisobot yilida iqtisodiyot tarmoqlariga hamda aholi ehtiyojlari uchun ajratilgan kreditlar miqdori 2023-yilga nisbatan 35,8 trln so'mga oshib **287,1 trln so'mni**, iqtisodiyotdagi umumiy kredit qo'yilmalari qoldig'i esa 14 foizga o'sib, **566,2 trln so'mni** tashkil etdi.

Bunda, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 389,8 trln so'mni, aholiga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 176,3 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan mos ravishda 11,8 hamda 18,9 foizga oshdi.

Kreditlarning 26,4 foizi sanoatga, 13,4 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga, 7,1 foizi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, 2,8 foizi qurilishga hamda 2,5 foizi transport va kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

2024-yilda Markaziy bankning makroprudensial siyosatida asosiy e'tibor banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, banklarning likvidlik va kapital buferlarini shakllantirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga bardoshlilikni oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash, kreditlash amaliyotlaridagi mavjud zaifliklarni bartaraf qilish, yirik qarzdorlarning moliyaviy holatini tahlil qilib borish masalalariga qaratildi.

Bank tizimida likvidlik holati tahlili va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlik risklari va ularning banklar moliyaviy barqarorligiga ta'siri yuzasidan "asosiy" va "xatarli" ssenariylarda stress-test o'tkazildi.

Banklarning kredit portfellari sifatini yaxshilash, kreditlarning qaytmaslik xatari oldini olish maqsadida banklar kredit portfellari muntazam ravishda banklar, hududlar, sohalar va segmentlar kesimidagi tahlillar takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, banklarning kapital buferlarini shakllantirish hamda ustav kapitali miqdorini qonun talablari doirasida muvofiqlashtirish choralari ko'rib, 14 ta bankning ustav kapitali miqdori 500 mlrd so'mga yetkazildi.

Tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati kuchaytirilib, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida Moliyaviy sektorni baholash dasturi (*FSAP*) o'tkazildi va banklar faoliyatini nazorat qilish tizimi Bazel talablariga muvofiqligi baholandi.

Bank tizimi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega yirik tavakkalchiliklarni boshqarish va ularning ehtimoliy ta'sirini baholab borish maqsadida bank tizimi kredit portfelidagi **TOP-50** ta qarzdorlarning banklar moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganish amaliyoti joriy etildi.

Nazorat tadbirlari doirasida tajriba tariqasida qo'llanilgan 4 ta banklar andozalari asosida 14 ta banklarning risk-profillari baholandi. Bunda, mazkur tahlillardan kelib chiqib tijorat banklariga nisbatan tegishli choralar ko'rildi va mavjud zaifliklarni bartaraf qilish borasida zarur ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilmagan banklar va mikromoliya tashkilotlariga nisbatan ular tomonidan ko'rsatiladigan ayrim operatsiyalarni to'xtatish hamda jarima undirish kabi turli ta'sirchan choralar qo'llanib borildi.

Xususan, valyuta, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilinmaganligi, iqtisodiy me'yorlar talablari bajarilmaganligi holatlari uchun 28 ta tijorat banklari hamda 24 ta mikromoliya tashkilotlaridan jami 16,6 mlrd so'm miqdorida jarimalar undirildi.

Hisobot yilida, tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablarga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali banklarning o'zini o'zi band qilgan shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlarini kreditlash imkoniyatlari kengaytirildi.

Bunda, mazkur qarz oluvchilarga banklar tomonidan mikromoliyalashtirish faoliyati doirasida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha **tavakkalchilik darajalari** 100 foizdan 75 foizgacha pasaytirildi.

Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari, avtokreditlar va mikroqarzlarning sifat jihatdan davriy o'zgarishi o'rganilib, kreditlarning risk darajasini baholash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial muammoli kreditlarni aniqlash choralari ko'rib borilmoqda.

Mazkur o'rganishlar davomida ayrim banklar kredit portfellarida jismoniy shaxslarga ajratilayotgan ma'lum bir turdagi kreditlar konsentratsiyasi oshib ketganligini inobatga olgan holda bank tizimida kredit xatarlarini oldini olish, banklar kredit portfelli tarkibini diversifikatsiya qilish choralari belgilandi.

Xususan, aholiga ajratilayotgan mikroqarzlarning konsentratsiyasi yuqori bo'lgan banklarga nisbatan 2025-yil davomida xatarlarni oldini olish bo'yicha choralar ko'rib borilishi, ushbu kredit mahsulotidan ortgan mablag'lar ustuvor ravishda **kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishga** yo'naltirilishi belgilab olindi.

Bundan tashqari, kapital monandligini hisoblashda tavakkalchilik darajalari jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari va avtokreditlar bo'yicha qarz yuki ko'rsatkichi (*DSTI*) va kredit summasining ta'minot (*garov*) summasiga nisbati (*LTV*) asosida, boshqa kreditlar bo'yicha qarz yuki ko'rsatkichi (*DSTI*) asosida o'rnatilishi belgilandi.

Qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalarini takomillashtirish doirasida aholi qarz yuki darajasining oshib ketishini oldini olish, shuningdek banklar, mikromoliya tashkilotlari va lombardlarda kredit xatarlarini kamaytirish maqsadida qarzga xizmat ko'rsatishni daromadga nisbati cheklovi 2025-yil 1-yanvardan boshlab 50 foizgacha pasaytirildi.

Shuningdek, aholi qarz yuki bilan bog'liq xatarlarning ortishini jilovlash maqsadida istisno tariqasida, banklar tomonidan ajratiladigan kreditlarga yuqoriroq tavakkalchilik darajalarini belgilash amaliyoti joriy etildi.

Hisobot yilida mikromoliyalashtirish sohasini takomillashtirish va bunda, tadbirkorlik subyektlarining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish, hududlarda moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabni o'z vaqtida qondirish borasida zarur choralar ko'rib borildi.

Jumladan, "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi yangi Qonun loyihasi qabul qilinib, unda jismoniy shaxslarga ajratiladigan mikroqarzning eng ko'p miqdorini 50 mln so'mdan 100 mln so'mgacha oshirildi.

2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ko‘char aktivlarga asoslangan instrumentlarini rivojlantirish orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda moliyalashtirish operatsiyalaridan foydalanishning yangi mexanizmi – **faktoring tizimi** joriy etildi.

Tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklariga tashrif buyurmagan holda faktoring xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish maqsadida 2024-yil sentabr oyidan boshlab **elektron raqamli faktoring platformalar** faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

2024-yilda amalga oshirilgan faktoring xizmatlari hajmi 1,9 trln so‘mga yetib, shundan 1,6 trln so‘mi (85%) tijorat banklari va 0,3 trln so‘mi (15%) mikromoliya tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2024-yilda to‘lov tizimlari ishlashining uzluksizligi va infratuzilmasini yaxshilash borasidagi faoliyatda asosiy e‘tibor naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘lamini kengaytirishga va bunda, ushbu tizimlar faoliyatiga xavf solayotgan kibertahdidlar va firibgarliklarni oldini olishga qaratildi.

Xususan, bank tizimida to‘lovlar uzluksizligi va tijorat banklarining likvidililigini ta‘minlash maqsadida Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish vaqti uzaytirildi.

Bunda, har qanday elektron to‘lov hujjatlarni soat 8-00 dan 17-00 gacha, tijorat banklari o‘rtasidagi pul bozori operatsiyalariga oid elektron to‘lov hujjatlarni 17-00 dan 17-30 gacha, Markaziy bank va tijorat banklari o‘rtasidagi pul-kredit operatsiyalariga oid elektron to‘lov hujjatlarini esa 17-00 dan 18-00 gacha uzatish joriy etildi.

2025-yil 1-yanvar holatiga Face ID texnologiyasidan foydalanadigan tijorat banklari soni 28 taga, to‘lov tashkilotlari soni esa 15 taga yetgan bo‘lsa, banklar va to‘lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali raqamli identifikatsiyadan o‘tgan mijozlar soni 5,4 mln taga ortgan holda, hisobot yili yakuniga kelib 12,2 mln taga yetdi.

Onlayn kredit (*mikroqarz*) rasmiylashtirish bilan bog‘liq firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida vaqtinchalik tartib ishlab chiqildi va unda kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan onlayn kredit (*mikroqarz*)lar firibgarlar qo‘liga tushib qolishini oldini olish maqsadida **48 soatgacha bo‘lgan vaqt davomida qayta tasdiqlash amaliyoti** joriy qilindi.

Mazkur cheklovlar noyabr oyidan boshlab kuchga kirdi va yil yakuniga qadar 28 138 ta holatda ajratilgan 304,1 mlrd so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari mijoz o‘z shaxsini tasdiqlash uchun qo‘shimcha identifikatsiyadan o‘tmaganligi sababli kredit ajratish jarayoni to‘xtatildi va mablag‘lar bank hisobiga qaytarildi.

Bank kartalari bilan bog‘liq firibgarlik holatlari bo‘yicha fuqarolardan Markaziy bankka kelib tushgan murojaatlar yuzasidan olib borilgan tezkor chora-tadbirlar natijasida 2024-yil davomida 9,5 mlrd so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari bloklanishiga erishildi.

Bank kartalari bilan bog‘liq shubhali frod operatsiyalarni aniqlash va oldini olish maqsadida, Markaziy bankda markazlashgan antifrod tizimi test-sinov tariqasida joriy etilib, ushbu axborot tizimiga 34 ta bank va 9 ta to‘lov tashkiloti integratsiya qilindi.

2024-yilda Markaziy bankning raqamli texnologiyalari infratuzilmalarini rivojlantirish va faoliyatni raqamlashtirish borasida ham muhim choralar ko‘rib borilib, ma‘lumotlar almashinishida integratsiyalashuvni jadallashtirish, zamonaviy va yuqori texnologik yechimlarni tatbiq etish bo‘yicha muayyan loyiha va tashabbuslar amalga oshirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-apreldagi “Tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha aktivlar repatratsiyasi va soliq majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 251-sonli qaroriga asosan qo‘mitaning **“E-kontrakt”** axborot tizimi bilan tijorat banklari axborot tizimlari intgeratsiya qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining **“Masofaviy audit”** avtomatlashtirilgan axborot tizimi va Markaziy bank axborot tizimlari o‘rtasida axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

Markaziy bank mutaxassislari uchun “Matrix BI” tizimi xarid qilinib, “Kredit axborotining davlat reyestri” ma‘lumotlari bazasidan foydalanish va tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bunda, hisobotlar va tahliliy ma‘lumotlarni avtomatik ravishda shakllantirishni ta‘minlovchi qo‘shimcha dasturiy modullar ishlab chiqilib, “Matrix BI” dasturiga integratsiya qilindi va to‘liq foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, Markaziy bankning barcha axborot tizimi va ma‘lumotlar bazalari ma‘lumotlarini tahlil qilish, hisobotlarni shakllantirish va dashboardlar yaratish imkonini beruvchi Qlik Sense biznes-tahliliy vositasi orqali amalga oshirilmoqda.

Hisobot yilida moliyaviy xizmatlar iste‘molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda ushbu mexanizmlarni takomillashtirish hamda banklarning murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha faoliyatini tartibga solish yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Tijorat banklarida mijozlar murojaatlarini ko‘rib chiqish va ular bilan ishlash tartibini takomillashtirish va banklarning bu sohada mas‘uliyatini oshirish borasidagi tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar takomillashtirildi.

Mazkur yangi qoida va talablarning amaliyotga joriy etilishi iste'molchilarning murojaatlari sifatli va samarali ko'rib chiqilishiga hamda murojaatlarni umumlashtirgan holda tahlil qilinishi natijasida bankda iste'molchilarning e'tirozini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Hisobot yilida, shuningdek, banklardagi omonatlarni himoya qilish, aholining moliyaviy savodxonligini hamda moliyaviy ommaboplikni oshirish kabi boshqa yo'nalishlarda ham muhim ishlar davom ettirildi.

Ushbu hisobotning keyingi bo'limlarida yuqorida keltirilgan faoliyat yo'nalishlaridan tashqari bank tizimida 2024-yil davomida amalga oshirilgan boshqa chora-tadbirlar hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq Markaziy bankka yuklatilgan vazifalar ijrosi to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

I. 2024-YILDA ICHKI VA TASHQI MAKROIQTISODIY SHAROITLAR

1.1. Ichki iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi

1.1.1. Iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi omillar


Hisobot yilida ham iqtisodiyotni moliyalashtirishda asosiy urg'u aholini barqaror daromad olish imkoniyatlarini kengaytirib borishga yo'naltirilayotganligi uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlarini yuqori sur'atlarda oshishida namoyon bo'ldi. Bu esa, YaIMning xarajatlar tomonidan shakllanishida asosiy harakatlantiruvchi omil bo'ldi.

2024-yilda YaIM o'sishi 6,5 foizni tashkil etib, yakuniy iste'mol harajatlari o'sishi 2023-yildagi 5,9 foizdan 6,4 foizgacha, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari 7 foizdan 7,5 foizgacha, asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi 23,4 foizdan 27,6 foizgacha tezlashdi.

Bunda, 2024-yilda YaIM tarkibida uy xo'jaliklari iste'molining ulushi 67 foiz atrofida saqlanib qolib, YaIM o'sishidagi hissasi 2023-yildagi 4,8 foiz banddan 5,1 foiz bandgacha ko'tarildi.

1.1.1.1-chizma

Xarajatlar usulida hisoblangan YaIM komponentlarining o'sishga qo'shgan hissasi



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

Shuningdek, mamlakatda investitsion faollikning yuqori darajada saqlanishi va qulay biznes muhitini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2024-yilda investitsiyalarning YaIM o'sishiga qo'shgan hissasi 2 foiz bandni tashkil etdi.

2024-yilda import sur'atlarining qisqarishi natijasida YaIM o'sishidagi hissasi 0,6 foiz bandga to'g'ri keldi (2023-yilda -6,1 foiz band).


Davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissassi barqaror saqlanib qolib ($\sim 0,1-0,5$ foiz band), bu, o'z navbatida, muvozanatli fiskal siyosatning amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2024-yilda ham global iqtisodiyotda saqlanib qolayotgan murakkab iqtisodiy holat hamda tashqi moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning ortib borishi va tashqi resurslarni jalb etish bo'yicha raqobatning kuchayishi sharoitlarida, 2024-yilda xususiy investitsiyalar va fiskal xarajatlar, iqtisodiyotga yo'naltirilgan kreditlarni o'sib borayotganligi talab tomondan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi omillardan bo'lib qolmoqda.

Hisobot yilida iqtisodiyotdagi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori **493,6** trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan real hisobda **27,6** foizlik o'sishi, markazlashmagan investitsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan **32,8** foizga o'sishi (**441,8 trln so'm**) hisobiga ta'minlandi.

1.1.1.2-chizma

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'zgarishi



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Shuningdek, hisobot yilida **markazlashgan investitsiyalarning** jami o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 2023-yildagi 14 foizdan 10,5 foizgacha qisqargan bo'lsa, **markazlashmagan investitsiyalar** ulushi 86 foizdan 89,5 foizgacha oshgan.

Markazlashgan investitsiyalar hajmining real o'sishida sekinlashish kuzatilgan bo'lsada, uning tarkibidagi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan qilingan investitsiyalar qariyb **1,6 barobarga** oshgan.

Markazlashmagan investitsiyalarning o'sishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining **59** foizga oshganligi hisobiga shakllangan.

2024-yilda global iqtisodiyotda yuqori darajadagi noaniqliklar saqlanib qolgan sharoitlarda jahonda moliyaviy resurslar narxlarining oshishi hamda ushbu resurslarning asosan **rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga yo'naltirilayotganligi** kuzatildi.

Mazkur holatda iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi xatti-harakatlar, xususan, davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish belgilangan miqdoriy budjet parametrlari doirasida davom ettirildi.

Natijada, 2024-yilda umumiy fiskal defitsitning YaIMga nisbati 3,3 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 11,4 trln so'mga qisqargan. Ushbu prosiklik fiskal siyosat nisbatan qat'iy monetar siyosat samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fiskal va monetar siyosatlar o'zaro muvofiqlashuvi imkoniyatarini kengaytirdi.

Hisobot yilida davlat budjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari 2023-yilga nisbatan 11,3 foizga o'sib, 361,1 trln so'mga yetdi.

Davlat budjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha 42,2 foizni, iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash xarajatlari 10,6 foizni hamda ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish dasturlariga yo'naltirilgan mablag'lar qariyb 8 foizni tashkil etdi.

Yuzaga kelayotgan tashqi shoklarning salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan pul-kredit siyosatining yuritilishi hamda makroprudensial siyosat instrumentlarining kengaytirilishi o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining banklar tomonidan kreditlash imkoniyatlarini oshirmoqda.


2024-yilda iqtisodiyot tarmoqlariga hamda aholi ehtiyojlari uchun **287,1** trln so'm (2023-yilga nisbatan 35,8 trln so'mga ko'p) miqdorida kreditlar ajratildi.

O'z navbatida, iqtisodiyotdagi umumiy kredit qo'yimalari qoldig'i esa o'tgan yilga nisbatan 14 foizga o'sib, **566,2** trln so'mni tashkil etdi. Bunda, **tadbirkorlik subyektlariga** ajratilgan kredit qo'yimalari qoldig'i **389,8** trln so'mni, **aholiga** ajratilgan kredit qo'yimalari qoldig'i **176,3** trln so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan mos ravishda 11,8 hamda 18,9 foizga oshgan.

Kreditlarning 26,4 foizi **sanoatga**, 13,4 foizi **savdo va umumiy ovqatlanishga**, 7,1 foizi **qishloq xo'jaligini** rivojlantirishga, 2,8 foizi **qurilishga** hamda 2,5 foizi **transport va kommunikatsiya** sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

2024-yilda **aholiga** 104,7 trln so'm kredit mablag'lari ajratilgan bo'lib, ushbu kredit mablag'larining 43,8 foizini **mikroqarz**, 17,7 foizini **iste'mol krediti**, 16,6 foizini **mikrokreditlar**, 16,3 foizini **ipoteka** kreditlari tashkil etdi.

1.1.1.3-chizma


Ajratilgan kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi ulushi

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Hisobot yilida ham aholi daromadlarini ko'paytirish va bu orqali iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari davom ettirildi.

2024-yilda aholi umumiy daromadlari 2023-yilga nisbatan real hisobda **8,1** foizga oshib, **896,3** trln so'mni tashkil etdi.

1.1.1.4-chizma

Aholi daromadlarining shakllanish manbalari ulushi

1.1.1.5-chizma

Aholi daromadlari o'sishiga manbalarning qo'shgan hissasi

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

Mazkur o'sish asosan iqtisodiyotda o'rtacha real ish haqi miqdorining 7 foizga, pensiya va nafaqalar nominal miqdorining 15 foizga, transfertlar hamda mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning mos ravishda 1,1 hamda 1,2 barobarga, shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning¹ 1,4 barobarga oshishi hisobiga shakllandi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 60 foizdan yuqori darajada saqlanib qolmoqda. O'z navbatida, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi 26 foizga to'g'ri kelib, tarkibida asosiy qismni xalqaro pul o'tkazmalari tashkil etadi.

Mehnat migratsiyasi geografiyasi tarkibida yuqori daromadli davlatlar ulushining ortishi hisobiga 2024-yilda xalkaro pul o'tkazmalari o'tgan yilga nisbatan 30 foizga yoki 3,4 mlrd dollarga ortib, 14,8 mlrd dollarni tashkil qildi.

2024-yilda mehnat faoliyatidan olingan daromadlarining aholi umumiy daromadlari o'sishiga qo'shgan hissasi 2023-yilga nisbatan 5,4 f.b.dan 4,4 f.b.ga pasaydi. Hisobot yilida aholi daromadlarining o'sishi asosan doimiy bo'lmagan manbalar – o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar (+1,8 f.b.) va transfertlar (+1,0 f.b.) hisobiga ta'minlandi².

Qayd etish joizki, yuqori iqtisodiy faollik hamda ishchi kuchi unumdorligi nisbatan past bo'lgan sharoitlarda iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar aholi daromadlarining oshishi yalpi talabni rag'batlantiruvchi omillardan biri bo'lib, o'z navbatida, inflyatsion bosimni yaratmoqda.

1.1.2. Ishlab chiqarish faolligi va mehnat bozori

2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini uzluksiz qo'llab-quvvatlash va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan davlat siyosati davom ettirildi. Bu esa, o'z navbatida, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, iqtisodiyotni raqamlashtirish hamda jozibador investitsion muhitni shakllantirish sharoitlarini kuchaytirib, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari tezlashishiga imkon yaratdi.


Yuqori investitsion faollik hamda yalpi talabning oshib borishi natijasida iqtisodiy o'sish 2023-yildagi 6,3 foizdan 6,5 foizgacha tezlashishgan holda 2024-yilda YaIMning nominal qiymati 1 454,4 trln so'mni tashkil qildi.

¹ Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo'ljallanmagan, uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan o'z uyida yashash xizmatlarining shartli hisoblangan qiymati kiradi. O'zbekistonda bu xizmat hajmi foydalanuvchilarning xarajatlari usulida baholanadi, ya'ni uy egalari o'z uylarini ijaraga berishlari kerak bo'lganda, bozor baholaridagi ijara narxini belgilash uchun tegishli xarajatlar elementlari hisobga olinadi.

² O'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning umumiy daromadlar o'sishiga qo'shgan hissasining oshishi ehtimolan statistik o'zgarishlar hamda hisob-kitoblarda yashirin iqtisodiyotni inobatga olish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

1.1.2.1-chizma

Iqtisodiyot tarmoqlarining YaIM o'sishiga qo'shgan hissasi



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

2024-yilda YaIM ning **6,5** foizlik o'sishiga **xizmatlar sohasi** – **3,4** foiz, **sanoat tarmog'i** – **1,6** foiz, **qurilish** – **0,6** foiz va **qishloq xo'jaligi** – **0,6** foiz hissa qo'shdi. Bunda, xizmatlar sohasi va sanoat tarmog'ininng qo'shgan hissasida 2023-yilga nisbatan o'sish kuzatilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi hissasida qisqarish kuzatildi.


Iqtisodiyot tarmoqlaridan **xizmatlar** sohasi (+7,7%) va **sanoat** tarmog'ida (+6,8%) yuqori o'sish kuzatilib, 2024 yilda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan bo'ldi. Shuningdek, **qurilish** ishlari hajmi **8,8** foizga hamda **qishloq xo'jaligi** mahsulotlarini yetishtirish **3,0** foizga o'sdi.

Xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi va aholi real daromadlarining yuqori o'sishi natijasida yuzaga kelgan ichki talab **ishlab chiqarish** tarmog'ida o'sish sur'atlarini tezlashishiga sharoit yaratdi.

Sanoat asosiy tarmoqlari – **ishlab chiqarish** tarmog'ida o'sish sur'atlari 2023-yildagi 6,7 foizdan 7,7 foizgacha, **tog'-kon sanoati** 1 foizdan 1,9 foizgacha hamda **suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimi** 1 foizdan 5,5 foizgacha tezlashgan bo'lsa, **elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash** tarmog'i 9,7 foizdan 5,3 foizgacha sekinlashdi.

Tog'-kon sanoati o'sish sur'atlari tezlashgan bo'lishiga qaramasdan, uning tarkibidagi **neft** qazib olish **-8,5** foiz va **tabiiy gaz** qazib olish **-4,5** foizga qisqardi. Shuningdek mazkur tarmoq tarkibidagi **ko'mir** (+26,3%) hamda **gaz kondensati** (+1,4%) qazib olish sohalarida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qolgan holda 2023-yilga nisbatan tezlashdi.

1.1.2.2-chizma

Ishlab chiqarish sanoatida tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mazkur holat yuqori iqtisodiy faollik va o'sib borayotgan yalpi talab natijasida energiya manbaalari importiga bo'lgan yuqori talab saqlanib qolishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga sharoit yaratdi.

Ishlab chiqarish sanoati tarkibida tarmoqlarning o'sish sur'atlari **to'qimachilik** mahsulotlarida **11,1** foizgacha, **kimyo** mahsulotlarida **3,4** foizgacha hamda **boshqa no metall mineral mahsulotlarida 18** foizgacha tezlashdi.

Shuningdek, o'sish sur'atlari **oziq-ovqat** mahsulotlarida 2024 yildagi 6,2 foizdan **4,5** foizgacha, **elektr uskunalarda** 14,8 foizdan **4,5** foizgacha hamda **avtotransport vositalarida** 13,8 foizdan **4,5** foizgacha sekinlashgan bo'lsa, **ichimliklar** 1 foizgacha va **farmatsevtika** mahsulotlari **7,5** foizgacha qisqardi.

Bundan tashqari, **metallurgiya** sanoati (+6,3%) va **kiyim** ishlab chiqarish (+9,4%) tarmoqlarida yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qoldi.

Qurilish sektorida iqtisodiy faollikning oshishi natijasida qurilish materiallariga bo'lgan talabning o'sib borishi **boshqa no metall mineral mahsulotlarning** ishlab chiqarish hajmini yuqori o'sishiga olib keldi.

Shuningdek, **kimyo mahsulotlari** ishlab chiqarish hajmini tezlashishi bu turdagi mahsulotlarga tashqi bozorlarda talabning oshishi, energetika mahsulotlari importini yuqori o'sishi hamda ichki talabning barqaror o'sib borganligi bilan izohlanadi.


Ko'rsatilayotgan xizmatlarning ommabopligi oshib borishi hamda aholi daromadlarining yuqori sur'atlarda o'sishi bozor xizmatlariga talabni oshirgan holda bu tarmoqdagi yuqori o'sishga iqtisodiy sharoit yaratdi.

Axborot va aloqa (+25,8%), **moliyaviy xizmatlar** (+20,6%), **transport xizmatlari** (+8,6%) va **savdoda** (+11,8%) yuqori o'sish qayd etilib, mazkur tarmoqlar xizmatlar sohasi umumiy o'sishining tezlashishiga xizmat qiluvchi asosiy sohalardan bo'ldi.

2024-yilda **yashash va ovqatlanish** xizmatlari o'sishi 13,5 foizdan **10,6** foizgacha, **ta'lim** xizmatlari o'sishi 23,1 foizdan **13,4** foizgacha hamda **tibbiyot** xizmatlari o'sishi 12,3 foizdan **9,4** foizgacha sekinlashdi.

1.1.2.3-chizma

Xizmatlar sohasida asosiy turlar bo'yicha xizmat ko'rsatish hajmining o'zgarishi



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Ta'lim xizmatlaridagi sekinlashishini, bir tomondan, yangi xususiy oliy ta'lim muassasalarini ochish talablarining qat'iylashtirilishi, boshqa tomondan, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, xizmatlar sohasi tarkibida **ko'chmas mulk** bilan bog'liq xizmatlar (+0,7 f.b.) va **ijara** xizmatlari (+3,1 f.b.) ko'rsatish xajmlari o'sishi tezlashdi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishga qaratilgan tadbirlar, raqamli davlat xizmatlari ko'lamini kengaytirib borishi hamda yoshlarni IT sohasidagi faoliyati faol qo'llab-quvvatlanishi **axborot va aloqa** xizmatlarida yuqori o'sishni qayd etilishiga sabab bo'lgan holda, bu turadgi xizmatlar ko'rsatish hajmlari o'sishi tezlashdi.

Bank tizimida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda raqamli bank xizmatlari ko'lamini kengaytirishga qaratilgan choralar ham **moliyaviy xizmatlar** ko'rsatish sohasida yuqori o'sish sur'atlarini saqlanib qolinishiga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i tarkibida **dehqonchilik** mahsulotlarini yetishtirishning o'sish sur'ati 2023-yildagi 4,3 foizdan **2,2** foizgacha sekinlashgan bo'lsa, **chorvachilik** mahsulotlarini yetishtirishning o'sish suratlari 2023-yildagi 3,7 foizdan **4** foizgacha tezlashdi.

Dehqonchilik mahsulotlari tarkibida **donli ekinlar** yetishtirish 2023-yildagi 5,8 foizdan **4,8** foizgacha, **poliz ekinlari** yetishtirish 2023-yildagi 5,5 foizdan **5,1** foizgacha sekinlashgan bo'lsa, **kartoshka** (+4,0%), **sabzavotlar** (+3,8%), **mevalar** (+4,8%) hamda **uzum** (+5,4%) yetishtirish hajmlari o'sishi o'tgan yilga nisbatan yuqori darajalarda bo'ldi.

Chorvachilik mahsulotlari tarkibida **mol va parranda go'shtini** yetishtirishning (+3,9%) o'sish suratlari o'zgarishsiz barqaror holda saqlanib qolgan bo'lsa, **tuxum** yetishtirish hajmining o'sish sur'ati 2023-yildagi 4,4 foizdan **3,7** foizgacha sekinlashgan. Shuningdek, bu tarmoqdagi **sut** mahsulotlarini yetishtirish 2,9 foizdan **4** foizgacha oshgan.

Iqlim o'zgarishlariga qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi korxonalarning moslashish jarayonlarida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, dehqonchilik uchun suv zaxiralarining yetishmasligi hamda noqulay ob-havo sharoitlarining qishloq xo'jaligi faoliyatiga salbiy ta'siri, bir tomondan, tarmoqda o'sish sur'atlarini sekinlashtirayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, ushbu holatlar qishloq xo'jaligini intensiv rivojlanishiga turtki bermoqda va barqaror o'sish suratlari saqlab qolinishiga zamin bo'lmoqda.

Qurilish ishlari hajmiining o'sish suratlari tezlashgan bo'lib, tarmoq tarkibida yuqori o'sish **fuqarolik obyektlari** qurilishi yo'nalishida (+24,7%) kuzatildi. Shuningdek, tarmoq tarkibidagi **bino va inshootlar** qurilishi hajmlari **5,5** foizga hamda **ixtisoslashtirilgan qurilish** ishlari hajmi esa **6,4** foizga o'sdi.

Qurilish ishlarining **23,5** foizi **yirik qurilish tashkilotlari** tomonidan hamda **46,2** foizi **kichik korxona va mikrofirmalar** tomonidan amalga oshirilgan. Yirik korxonalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **19,9** foizga hamda kichik korxonalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5,6** foizga oshdi.

Qurilish sohasida yuqori investitsion faollik, shaffoflikka qaratilgan chora-tadbirlar, infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirilishi hamda aholiga ajratiladigan kreditlar hajmlarining oshib borishi yuqori o'sish sur'atlarini qayd etilishiga xizmat qildi.

2024-yil davomida shakllangan yuqori iqtisodiy faollik savdo hajmlarining barqaror o'sishida ham namayon bo'ldi. 2024-yilda **chakana savdo** hajmining o'sish sur'ati 9,1 foizdan **9,9** foizgacha tezlashgan bo'lsa, **ulgurji savdo** hajmi 2023-yilga nisbatan **11,4** foizga oshdi.


1-havola

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot holati

Hukumat tomonidan yashirin iqtisodiyotga qarshi amalga oshiralayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda uning qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Hususan, kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 2017-yildagi 45,1 foizdan 2024-yilda 34,8 foizgacha qisqardi (-10,3 f.b.).

1-chizma.

2017-2024 yillarda O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot o'zgarishi dinamikasi (YaIMdagi ulushi)



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlar uchun rasmiy sektorda faoliyat yuritish tobora jozibador va daromadliroq bo'lib borayotgani hamda norasmiy faoliyat yuritish imkoniyatlarning cheklanayotganligi hisobiga norasmiy iqtisodiyot ulushi ham mos ravishda 37,8 foizdan 26,4 foizga (-11,4 f.b.) pasaygan. Eng katta qisqarish sanoat (17,1 foizdan 5,1 foizga) va qurilish (41,1 foizdan 31,3 foizga) sohalarida kuzatildi.


Biroq, mazkur davrda xizmatlar sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi 13,9 foizdan 15 foizga oshgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi sohasida esa norasmiy iqtisodiyot yuqori darajada saqlanib qolmoqda (63,6%). Bu yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash usullarini yanada takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish va tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Qayd etish lozimki, so'nggi yillarda umumiy omil samaradorligining³ (UOS) pasayib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2024-yilda UOS o'sish sur'atlari manfiy bo'lib, -1,1 foizni tashkil qildi (2023-yilda +0,1%).

³ Umumiy omil samaradorligi (TFP – Total Factor Productivity) iqtisodiyotda mavjud resurslar (kapital va mehnat)dan qanchalik samarali foydalanilayotganini ifodaluvchi ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbekistonda kapital va mehnat resurslarining iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini baholash maqsadida Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanilgan.


1.1.2.4-chizma

YaIMga ishlab chiqarish omillarining qo'shgan hissasi



1.1.2.5-chizma

Umumiy omil samaradorligi o'zgarishi



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Markaziy bank hisob kitoblari

Kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar UOS pasayishini qisman qoplamoqda. Jumladan, kapitalning YaIMga qo'shgan hissasi 2023-yildagi 5,1 foiz banddan 2024-yilda 6,8 foiz bandgacha oshdi. Bir tomondan, kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar o'sib borayotgan bo'lsa-da, UOSning pasayishi moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalarini samaradorlik darajasi bilan izohlanishi mumkin.

2017-2024-yillarda mehnat kuchining iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi barqaror 1 foiz band atrofida shakllanib qelmoqda.

1.2. Tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi

1.2.1. Global iqtisodiyotdagi tendensiyalar va kutilmalar

Hisobot yilida global iqtisodiyot o'zining yangi fenomenlari – jahon iqtisodiyoti va moliya bozorlarida deglobalizatsiya, qarz darajasining o'sishi, raqamlashtirish va demografik o'zgarishlar ta'sirida shakllanishi kuzatildi.

Iqtisodiy o'sish. 2024-yilda global YaIM o'sish sur'atlari xizmatlar sohasiga bo'lgan talabning barqaror saqlanib qolishi, dezinflyatsion jarayonlarining davom etishi, yangi yo'nalishlardagi (*yashil iqtisodiyot*) investitsion faollikning oshishi va jahon savdosining tiklanishi hisobiga ta'minlandi.

Global iqtisodiy faollikni aks ettiruvchi PMI indeksi xizmat ko'rsatish sohasida faollikning yuqori saqlanib qolishi hisobiga o'rtacha **52,5** ni tashkil etdi (2023-yilda 51,7). Xususan, **xizmatlar** sohasida mazkur indeks qiymati 2024-yilda o'rtacha **53,1** ga to'g'ri kelgan bo'lsa, **ishlab chiqarish** sohasida yuqori o'zgaruvchanlik kuzatilganiga qaramay ko'rsatkich **50** atrofida shakllangan⁴.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati 2023-yil darajasi atrofida shakllanib, **3,2** foizni tashkil etgan. **Rivojlanayotgan** mamlakatlarda iqtisodiy o'sish 2023-yildagi 4,4 foizdan **4,2** foizgacha sekinlashgan bo'lsa, **rivojlangan** iqtisodiyotlarda mazkur ko'rsatkich **1,7** foiz darajasida saqlanib qolgan⁵.

Shu bilan birga, 2024-yilda **global iqtisodiy kutilmalarda** optimistik dinamika saqlanib, ushbu ko'rsatkich 2023-yildagi 2,1 dan **2,6** ga oshdi. Xitoyda ushbu ko'rsatkich o'zgarishsiz qolib, **4,5** ni tashkil etgan bo'lsa, AQShda esa sezilarli o'sishi kuzatilib, indeks 1,3 dan **2,1** ga ko'tarildi. Yevropa Ittifoqida tiklanish sust kechayotgani sababli, indeks 0,6 dan **1,0** ga oshib, o'rtacha o'sish tendensiyasini namoyon etdi⁶.

Xalqaro ekspertlarning prognozlariga ko'ra, 2025 va 2026-yillarda global YaIM o'sishi **3,3** foizni tashkil etadi.

2-havola

Global iqtisodiyotning postpandemik rivojlanish siklining yakunlanishi – yangi bosqich boshlanishi

Xalqaro moliya institutlari, xususan XVJ jahon iqtisodiyotining **postpandemik sikli** yakunlanganini va yangi bosqich – yirik iqtisodiyotlar o'rtasidagi tafovutning kuchayish davri boshlanganini ta'kidlamogda.

Shu bilan birga, global YaIM 2024-yil va kelgusi yillarda o'z potentsiali doirasida shakllanishi kutilmogda, global inflyatsiya dinamikasi esa pandemiyadan oldingi trendiga qaytdi.

Yangi siklning asosiy xususiyati – dunyoning yirik iqtisodiyotlari orasida, xususan, AQSh, Yevropa va Xitoyda iqtisodiy o'sish va inflyatsiya dinamikalari turli yo'nalishlarda shakllanayotganligi bilan xarakterlanadi⁷.


Xususan, 2023–2024-yillarda AQShda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha **2,8** foizni tashkil etgan bo'lsa, Yevropada esa ushbu ko'rsatkich atigi **0,6** foiz bo'lib, bu asosan Germaniya iqtisodiyotining ikki yil ketma-ket qisqarishi bilan bog'liq.

⁴ PMI indeksining qiymati 50 dan yuqori bo'lganida ishbilarmonlik faolligining yaxshilanib borishini, 50 dan past darajada shakllanganda esa iqtisodiy holatning yomonlashuvini aks ettiradi.

⁵ International Monetary Fund. 2025. *World Economic Outlook – Global Growth: Divergent and Uncertain*. Washington, DC. January.

⁶ Iqtisodiy kutilmalar indeksi (MM Economic Expectations Index) bir nechta mamlakat uchun YAIM o'sishiga oid baholar o'zgarishini aks ettiradi. Ushbu indeks Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda yetakchi tahliliy markazlar tomonidan taqdim etiladigan YAIM prognozlarining o'rtacha tortilgan ko'rsatkichi hisoblanadi. Indeksning o'sishi bozorning keyingi 12 oy ichida iqtisodiyotga nisbatan optimistik munosabatda ekanligini bildiradi.

⁷ Gourinchas Pierre-Olivier, *As One Cycle Ends, Another Begins Amid Growing Divergence*. January 17, 2025, IMF



Manba: XVJ

Iqtisodiy rivojlanishdagi siklik tafovut vaqt o'tishi bilan yo'qolib borishi, biroq tarkibiy farqlar hisobiga uzoq muddatli tafovut saqlanib qolishi taxmin qilinmoqda.

AQShdagi ishlab chiqarish samaradorligining, ayniqsa texnologik tarmoqlarda, oshishi, biznes muhiti va rivojlangan kapital bozorlari hisobiga iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashmoqda. Bu esa, o'z navbatida, investitsiya oqimlarining kuchayishiga hamda AQSh dollarining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, Yevrozona va Xitoy iqtisodiy o'sishining sekinlashishi va past inflyatsiya xavfi bilan duch kelayotgan bir paytda, AQSh uchun asosiy tahdid – inflyatsiyaning tezlashishi hisoblanmoqda.

Bu xavf, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dollarning kurs tebranishlari tufayli **inflyatsion bosimning kuchayishi** va Xitoyda ichki talabning susayishi natijasida **iqtisodiy o'sishning sekinlashishi** orqali sezilishi mumkin.

Xalqaro savdo. 2024-yilda global tovar va xizmatlar savdosi **2,7** foizga oshdi. 2024-yilning ikkinchi yarmida savdo sur'atlari tezlashdi, bu savdodagi mavjud xavflar – AQShdagi yuk tashish va saqlash xablarida ish tashlashlar va tariflar siyosatining qat'iy lashtirilishi – sababli tovarlar zaxiralarini shakllantirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin⁸.

Savdo sur'atlarining jonlanishi fonida suv orqali yetkazib berish narxlari oshib borishi (*pandemiya davridagi darajalardan past darajada bo'lsada*) kuzatildi. Xususan, 40 futlik konteynerni suv orqali yetkazib berish narxi 2023-yil yakunidagi 2,7 ming dollardan hisobot yili yakunida **3,9** ming dollargacha yoki qariyb **1,5 barobarga** oshdi.

Davom etayotgan deglobalizatsiya va fragmentatsiya jarayonlari fonida, 2024-yilda yangi savdo cheklovlari soni 2010–2019-yillar davridagi o'rtacha ko'rsatkichdan **5 barobarga** oshdi. Ayniqsa, “G'arb” va “Sharq” pozitsiyalaridagi davlatlarda bu cheklovlar 2015-yildan beri **5 barobarga**, neytral mamlakatlarda esa **2 barobarga** ko'paygan.


⁸ World Bank. 2025. Global Economic Prospects, January 2025. Washington, DC: World Bank

Shuningdek, global savdo siyosati noaniqlik indeksi 2000–2009-yillarda oʻrtacha 30 ni tashkil etgan boʻlsa, 2020–2024 yillarda **2,3 barobarga** oshib, 70 ga yetgan.

Shu bilan birga, 2025-yilda jahon savdosi hajmlarining oʻrtacha **3,1** foizga oʻsishi kutilmoqda, biroq bu pandemiyadan oldingi 4,5 foizlik oʻrtacha koʻrsatkichdan pastroq boʻlib, asosan (*Yevrozona, Yaponiya va Xitoydan tashqari*) rivojlanayotgan iqtisodiyotlar hisobiga taʼminlanadi.

1.2.1.1-chizma


**40 futlik konteynerni suv orqali
yetkazib berish narxi,
haftalik dinamika**



Manba: Drewry.co.uk

1.2.1.2-chizma

**Global savdo sharoitlariga taʼsir
qiluvchi choralar soni**



Manba: Global Trade Alert, Jahon banki

Jahon xomashyo bozorlaridagi holat. Hisobot yilida jahon bozorida xomashyo tovarlari narxlari savdo sharoitlarini qatʼiylashuvi, Yevropa va Osiyoda ishlab chiqarish faolligining sekinlashishi, geosiyosiy omillar va spekulativ kutilmalar taʼsirida shakllanib, umumiy hisobda **2,7** foizga pasaydi.


Xususan, oʻgʻitlar narxi 2023-yilga nisbatan **23,4** foizga (*2023-yilda -34,9%*), energiya manbalari **5,1** foizga (*-29,9%*), boshqali don mahsulotlari **15,2** foizga (*-11,5%*) **pasaygan** boʻlsa, qimmatbaho metallar **22,3** foizga (*+7,7%*) va asosiy metallar **4,7** foizga (*-11,0%*) **oshishi** kuzatilgan.

2024-yilda neft taʼminotining ortishi va talabning sekin oʻsishi geosiyosiy xavflarni yumshatib, neft (*Brent markasi*) narxi oʻrtacha **80,7** dollar atrofida shakllanishiga sharoit yaratdi (*2023-yilga nisbatan -2,3%*). 2025-yilda OPEK+ ga aʼzo boʻlmagan davlatlar tomonidan neft qazib olish hajmining oshirilishi va global talabning pasayishi hisobiga neft narxi **72** dollar, 2026-yilda esa **71** dollar boʻlishi prognoz qilinmoqda.

2024-yilda Yevropada yer osti gaz omborlarining yuqori darajada to'ldirilganligi, nisbatan iliq ob-havo sharoitlari hamda gazga bo'lgan talabning sun'iy ravishda cheklanishi hisobiga **tabiiy gaz** o'rtacha narxi 16 foizga qisqarib, 1 mmBib uchun **6,6** dollarni tashkil etdi. 2025-yilda gaz narxlari yuqori talab hamda yetkazib berish qisqarishi hisobiga 11 foizga oshishi, biroq 2026-yilda suyultirilgan tabiiy gaz taklifining ko'payishi bilan 8 foizga pasayishi prognoz qilinmoqda.


1.2.1.3-chizma

2020-2023-yillarda asosiy xomashyo tovarlari narxlarining o'zgarishi, 2010-yil bazaviy yil



1.2.1.4-chizma

2024-yillarda asosiy xomashyo tovarlari o'rtacha narxlarining o'zgarishi



Manba: Jahon banki ma'lumotlari


2024-yilda alyuminiy va mis taklifi cheklangani sababli **metall narxlari** 4,7 foizga, oltinga xususiy va davlat talabi yuqori bo'lgani tufayli **qimmatbaho metallar** 22,3 foizga qimmatladi. 2025-2026-yillarda asosiy metallar narxlari barqaror saqlanib qolishi kutilmoqda.

2024-yilda hosildorlikning yuqori darajada shakllanishi hisobiga **oziq-ovqat narxlari** 7,6 foizga pasaydi. 2025-yilda qo'shimcha 5 foizga tushishi, 2026-yilda esa barqarorlashishi kutilmoqda. Biroq, ekstremal ob-havo sharoitlari narxlarning oshishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan asosiy xavflar orasida ta'kidlanmoqda.

Global inflyatsiya. Xomashyo narxlarining pasayishi hamda oldingi davrda olib borilgan qat'iy pul-kredit siyosatining kechikkan ta'siri hisobiga global inflyatsiya darajasi bosqichma-bosqich sekinlashishda davom etmoqda.

Xususan, **global inflyatsiya** sur'atlari hisobot yilida 2023-yildagi 6,7 foizdan 5,7 foizgacha sekinlashib, rivojlangan mamlakatlarda 2,6 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 7,8 foizni tashkil etgan. Shuningdek, global inflyatsiya 2025-yilda 4,2 foizga, 2026-yilda 3,5 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda.

Inflyatsiya darajasi aksar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda maqsadli ko'rsatkichlarga (*target*) yaqinlashib, inflyatsiya darajasi maqsadli ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar ulushi kamayib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda targetga erishmagan davlatlar ulushi **45** foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich **30** foizga tushishi prognoz qilinmoqda.



2024-yilda global pul-kredit siyosatining yumshatish fazasi davom ettirilib, global pul-kredit indeksi qiymati yil boshidagi -0,4 dan yil yakunida **-8,5** gacha pastladi⁹ va mazkur tendensiya 2025-yilning birinchi yarmida ham saqlanib qolishi kutilmoqda. Shu bilan birga, hisobot yilida Markaziy banklar tomonidan asosiy stavkalarini pasaytirish jarayonlari faollashib, 2024-yil yanvarda 36 foiz markaziy banklar pasaytirgan bo'lsa, dekabr oyida bu ko'rsatkich **69,3** foizga yetdi.

3-havola

Norasmiy sektor: global miqyosidagi tendensiyalar

An'anaviy qarashlarga ko'ra, iqtisodiyot rivojlangan sari rasmiy sektorda ish o'rinlari va imkoniyatlar ko'payib borishi hisobiga norasmiy sektorning qisqarishi kuzatiladi. Biroq, 146 ta mamlakatning so'nggi 20 yillik ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan yangi tadqiqot bu qarashni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mazkur tadqiqotning birinchi xulosasiga ko'ra, iqtisodiy o'sish har doim ham norasmiy iqtisodiyot ulushining kamayishiga olib kelmaydi. Aksariyat past daromadli davlatlarda iqtisodiy o'sish davrida norasmiy sektor qisqarmasdan, aksincha, kengayib borgan. Ya'ni, ushbu holatda norasmiy faoliyat rasmiy sektor bilan uzviy bog'liq bo'lib, u bilan birga rivojlanadi.


Xususan, so'nggi 20 yilda norasmiy sektorning rivojlanishi mamlakatlarga qarab farq qildi. Xitoy va Turkiyada u izchil ravishda qisqargan bo'lsa, Hindistonda aksincha, oshib borgan. Gretsiyada 2010-yilgacha pasayib, keyin qayta o'sgan va 2017-yildan buyon yana kamaya boshlagan.

⁹ Global pul-kredit indeksi 0 dan katta bo'lganda markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosati qat'iylashtirilishi, 0 dan kichik – yumshatilishini anglatadi.

Shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlar ham turli xil o'zgarishlarni namoyon etgan: Xitoy va Turkiyada jon boshiga YaIMning o'sishi norasmiy sektor qisqarishiga olib kelgan bo'lsa, Gretsiya va Italiyada esa norasmiy sektorning kamayishi iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi bilan bog'liq bo'lgan (*norasmiy iqtisodiyot ulushi Xitoy va Turkiyaga nisbatan avvaldan kichik bo'lgan*).

1-chizma

Norasmiy iqtisodiyotning YaIMga nisbatan ulushi



Ikkinchi xulosaga ko'ra, 2010-yillardan keyin global miqyosda norasmiy sektor qisqarish sur'atlari to'xtab, so'nggi yillardagi iqtisodiy o'sishga qaramay, aksincha, ularning ulushi ortib bormoqda.

So'nggi hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo bo'yicha norasmiy iqtisodiyotning o'rtacha ulushi 2013-yildagi 33 foizdan 34 foizga ortgan. Past daromadli mamlakatlarda oxirgi 10 yil ichida bu ko'rsatkich 50 foizdan 60 foizga yaqinlashgan, aksincha, rivojlangan mamlakatlarda u deyarli ikki barobarga kamayib, 10 foiz atrofida shakllangan. Rivojlanayotgan davlatlarda esa norasmiy sektor ulushi o'zgarmasdan 33-34 foiz darajasida saqlanib qolmoqda, bu esa o'rtacha jahon ko'rsatkichiga mos keladi.

Yao, J. (2024). *Unveiling the Informal Economy: An Augmented Factor Model Approach* (No. 2024/110). International Monetary Fund.

Davlat qarzi. YUNKTADning hisob-kitoblariga ko'ra, global davlat qarzi 2023-yilda 97 trln dollarga (2022-yilga nisbatan +5,6 trln dollar) yetdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlanganlarga nisbatan ikki barobar tezroq qarz yukini oshirib bormoqda va hozirda ularning umumiy qarzi hajmi 29 trln dollar yoki global qarzni 30 foizini tashkil etmoqda¹⁰.

Tashqi qarzga xizmat ko'rsatish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hanuz yuqori darajada saqlab qolinib, 2022-yilda mazkur xarajatlar 365 mlrd dollarga yetdi. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlar yangi kreditlarni jalb qilishdan ko'ra, mavjud qarzlar bo'yicha ko'proq to'lovlarni amalga oshirmoqda. Jumladan 2022-yilda 49 mlrd dollarlik sof kapital chiqimi kuzatilgan.

¹⁰ UNCTAD (2024). *A World of Debt 2024: A Growing Burden to Global Prosperity*. United Nations Conference on Trade and Development.

Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlar AQShga nisbatan 2-4 barobar, Germaniyaga nisbatan esa 6-12 barobar qimmatroq (*yuqori stavkada*) qarzlar jalb qilmoqda. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzining **61 foizi xususiy kreditorlar** hissasiga to'g'ri kelmoqda, bu esa uni restrukturizatsiyasini qiyinlashtirishini anglatadi.

O'z navbatida, qarz yukining o'sishi ijtimoiy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 46 ta mamlakatda qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari sog'liqni saqlash hamda ta'lim xarajatlaridan oshib, bu esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirmoqda.

Xalqaro moliyaviy yordam tarkibi ham o'zgarmoqda. 2022-yilda moliyaviy ko'maklarning umumiy hajmi 164 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa-da, bunda **yordam grantlardan ko'ra ko'proq kreditlar shaklida** taqdim etilmoqda. Jumladan, qarzlar ulushi 2012-yildagi 28 foizdan 202-yilda 34 foizga oshdi, shu bilan birga, qarzlarini kechish va restrukturizatsiya uchun ajratilgan mablag'lar 14 barobarga kamayib, 4,1 mlrd dollardan 300 mln dollarga tushgan.

1.2.2. O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari iqtisodiyotidagi o'zgarishlar

2024-yilda O'zbekistonning asosiy savdo hamkor mamlakatlarida ichki iqtisodiy transformatsion jarayonlarning davom etishi kuzatilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarida 2023-yilga nisbatan sekinlashish dinamikasiga qaramasdan iqtisodiy barqarorlik saqlab qolindi.

2024-yilda **Rossiya** iqtisodiyotining iqtisodiy o'sish sur'ati 2023-yildagi 3,6 foizdan **3,8 foizgacha** tezlashdi. Bunda, bir tomondan, davlat investitsiyalari, jumladan, mudofaa sohasidagi investitsiyalar iqtisodiy faollikni rag'batlantirib, ichki talabni yuqori darajada saqlab qolgan bo'lsa, boshqa tomondan, ishsizlik darajasini past darajada (2,6%) shakllanishi aholi daromadlarining o'sishi va natijada, iste'mol bozorining kengayishiga xizmat qildi.

Bundan tashqari, qayta ishlash sanoati va mashinasozlik sohalariga yo'naltirilgan yirik sarmoyalar va buyurtmalar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib, texnologik rivojlanishni tezlashtirdi.

2024-yilda **Xitoy** iqtisodiyoti **4,8 foizga** o'sib, 2023-yilga nisbatan (5,2%) sekinlashdi. Iqtisodiy o'sish, asosan, tashqi talab orqali rag'batlantirilib, bunda eksport hajmi 7,1 foizga oshdi. Eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda ijobiy dinamika kuzatildi, jumladan avtomobilsozlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (*AKT*) sohasida ishlab chiqarish hajmining oshish hisobiga sanoat tarmog'i 5,8 foizga o'sdi.

Shu bilan birga, ichki talabning sustligi hisobiga chakana savdo hajmining o'sishi 3,5 foizga sekinlashdi, ko'chmas mulk bozoridagi inqiroz davom etib, savdo va investitsiyalarning pasayishi orqali iqtisodiyotga bosimi davom etmoqda.


4-havola

O'zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlar bilan savdo aylanmasi

2024-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi qariyb **66** mlrd dollarga yetib, 2023-yilga nisbatan 3,3 foizga oshdi. Bunda, tovar va xizmatlar eksporti hajmi **27** mlrd dollarni (+8,4%), import hajmi esa **39** mlrd (+0,8%) dollarni tashkil etdi.

Asosiy savdo aylanmasi Xitoy (18,9%), Rossiya (17,6%), Qozog'iston (6,5%) va Turkiya davlatlari (4,5%) hissasiga to'g'ri kelib, ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi **47,5** foizni tashkil qildi (2023-yilda 49,8%).

O'zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlari bilan 2023–2024-yillardagi savdo aylanmasi




Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Hisobot yilida Xitoy bilan savdo aylanmasi **12,5** mlrd dollarni (-9,7%), Rossiya – **11,6** mlrd dollarni (+14,5%), Qozog'iston – **4,3** mlrd dollarni (-4,6%) va Turkiya – **2,9** mlrd dollarni (-7,1%) tashkil etdi.

1.2.2.1-chizma

Asosiy savdo hamkor davlatlardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari dinamikasi



Manba: XVJ ma'lumotlari

Turkiyada 2024-yilda iqtisodiy o'sish 2023-yilga (5,1%) nisbatan sekinlashib, 2,8 foizni tashkil etdi. Hisobot yilida Turkiya iqtisodiyoti kuzatilayotgan bir qator jiddiy sharoitlar davom etdi.

Xususan, kuzatilayotgan yuqori inflyatsiya aholi xarid qobiliyatiga jiddiy bosim o'tkazayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, amalga oshiralayotgan qat'iy pul-kredit siyosati kreditlar narxining keskin oshishi va investitsiyalarning sekinlashishiga olib keldi. Shuningdek, Yevrozonadagi iqtisodiy o'sishning sekinlashishi (*Turkiyaning asosiy savdo hamkorlaridan biri*) mamlakat eksport hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qozog'iston iqtisodiyoti 2024-yilda sekinlashib, iqtisodiy o'sish 4,0 foizni tashkil etdi (2023-yilda 5,1%). Qozog'iston iqtisodiyoti tashqi talabning mo'tadilligi va neft qazib olish hajmining sekin kengaytirilishi natijasida tog'-kon tarmog'ida faollikning pasayishi kuzatilib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Xususan, hisobot yilida qayta ishlash sanoati 5,3 foizga, qishloq xo'jaligi – 13,4 foizga, qurilish sohasi – 10,3 foizga, savdo – 8,2 foizsha va transport – 8,1 foizga o'sdi.

Hisobot yilida **Rossiyada** iste'mol faolligining yuqori darajada saqlanishi inflyatsiya sur'atlarining tezlashishiga olib keldi. Biroq, amalga oshirilgan qat'iy pul-kredit siyosati inflyatsiya o'sish sur'atlarini jilovlash imkonini berdi va yil yakuniga kelib inflyatsiya ko'rsatkichi 9,5 foizni tashkil etdi (2023-yilda – 7,4%).

Qozog'istonda nisbatan qat'iy pul-kredit siyosatining yuritilishi hamda global inflyatsion bosimining susayishi 2024-yil yakuni bo'yicha inflyatsiya darajasini 2023-yildagi 9,8 foizdan 8,6 foizgacha sekinlashishiga xizmat qildi.

Xitoyda ichki talabning past darajada saqlanib qolishi hamda ishlab chiqaruvchilar narxlarining pasayishi fonida inflyatsiya darajasi 0,1 foizni tashkil etdi (2023-yilda – -0,3 foiz).


Turkiyada amalga oshirilgan qat'iy pul-kredit siyosati inflyatsiya darajasi 2023-yildagi 64,8 foizdan 44,4 foizgacha sekinlashishiga olib keldi va 2020-yil iyuldan buyon ilk ijobiy foiz stavkasining shakllanishiga erishildi.

Asosiy savdo hamkor davlatlarning Markaziy banklari hisobot yilida turli pul-kredit siyosatini amalga oshirdi.

Xususan, **Rossiya** banki ikkinchi yarim yillikdan boshlab, inflyatsion jarayonlarining tezlashishi hamda ichki talabning yuqori o'sish sur'atlari fonida 2024-yil yakuniga qadar asosiy stavkani 3 marta qayta ko'rib chiqib, yillik 21 foiz darajasigacha oshirdi (*yil boshida 16%*).

1.2.2.2-chizma

Asosiy savdo hamkor davlatlardagi yillik inflyatsiya darajasi va markaziy bank asosiy foiz stakalari dinamikasi



Manba: Savdo hamkor davlatlarning Markaziy banklari ma'lumotlari

*Xitoy inflyatsiya bo'yicha rasmiy maqsadli ko'rsatkichga ega emas, inflyatsiyaning 3 foizlik darajasi maqbul qiymat sifatida belgilangan.

Qozog'iston Markaziy banki ichki iqtisodiy sharoitlar hamda inflyatsiya sur'atlaridan kelib chiqib, asosiy stavkani yil boshidagi 15,75 foizdan 4 marta pasaytirib (14,25 foizgacha), yil yakunida **15,25** foizga ko'tardi.

Turkiya Markaziy banki 2023-yilda boshlagan qat'iy pul-kredit siyosatini davom ettirib, asosiy stavkani yillik 50 foizgacha oshirdi va yil yakunida **47,5** foizgacha pasaytirdi.

Xitoy regulyatori iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida pul-kredit siyosatini yumshatishni davom ettirib, asosiy stavkani yil davomida 3 marta qayta ko'rib chiqib, 3,45 foizdan **3,10** foizgacha pasaytirdi.

Shuningdek, Rossiya milliy valyutasi kursi (*dollarga nisbatan*) 2023-yildagi qariyb 30 foizlik keskin qadrsizlanishdan so'ng 2024-yilda nisbatan past sur'atda **-13,4** foizga pasaydi.

Qozog'iston milliy valyutasi dollarga nisbatan **15,2** foizga qadrsizlandi (*2023-yilda 1,7 foizga mustahkamlangan*).

Xitoy yuanining dollarga nisbatan almashuv kursi 2023-yildagi barqaror dinamikasini saqlab qolib, 2024-yil davomida **1,5** foizga qadrsizlandi (*2023-yilda 1,7%*).

Turk lirasining dollarga nisbatan qadrsizlanish sur'atlari 2023-yilga nisbatan sekinlashib, **20** foizni tashkil etdi (*2023-yilda - 57,2%*).

1.3. Inflyatsion jarayonlar va kutilmalar

2024-yilning dastlabki choragida bazaviy inflyatsiya pasayib borishi hisobiga umumiy inflyatsiya darajasi mart-aprel oylarida o'zining so'nggi yillardagi eng past ko'rsatkichini qayd etgan bo'lsada, ikkinchi chorakda energiya resurslari narxlari erkinlashtirilishi, tibbiy xizmatlar va dori vositalariga qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilishi hisobiga inflyatsiya darajasida sezilarli o'sish qayd etildi.

Ikkinchi yarim yillikda umumiy inflyatsiya biroz pasayuvchi dinamikani namoyon etib, yil yakunida yillik 9,8 foizni tashkil etdi va bunda energiya resurslari narxlari oshirilishining birlamchi ta'sirisiz inflyatsiya darajasi 6,3 foiz doirasida shakllandi.


Shuningdek, birinchi yarim yillikda ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksida (*ICHNI*) yuqori o'sish kuzatilganiga qaramasdan, 2023-yildagi yuridik shaxslar uchun energiya resurslari narxlari oshirilishi ta'sirining tugashi hisobiga ushbu ko'rsatkich ikkinchi yarim yillikda sezilarli pasayib, yil yakuni bo'yicha 13,6 foizni tashkil etdi.

YaIM deflyatori esa sezilarli o'zgarishlarsiz saqlanib qolib, yil yakunida 13,3 foizga teng bo'ldi.

2024-yilda **oziq-ovqat mahsulotlari** guruhi umumiy inflyatsiyani pasaytiruvchi xususiyatga ega bo'lib, ushbu guruh mahsulotlari narxlarini oshishi yillik 2,4 foizgacha sekinlashdi. Jumladan, yuqori hosildorlik yetishtirilganligi natijasida meva va sabzavotlar, guruch hamda bug'doy uni narxlarida deflyatsiya qayd etilib, oziq-ovqat inflyatsiyasi sekinlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Meva-sabzavotlar narxlari ta'sirisiz oziq-ovqatlar guruhi bazaviy inflyatsiyasi 5,9 foizni tashkil etdi.


1.3.1-chizma

**Inflyatsiya ko'rsatkichlari dinamikasi,
o'tgan yilning mos davriga nisbatan**



1.3.2-chizma

**INI asosiy tarkibiy qismlari inflyatsiyasi
dinamikasi,
o'tgan yilning mos davriga nisbatan**



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Biroq, ikkinchi yarim yillikda jahon bozorida ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashishi mahalliy bozorlarda narxlarga oshiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

2024-yilda **nooziq-ovqat mahsulotlari** guruhi inflyatsiyasi barqaror darajada shakllanib, ushbu guruh narxlarining yillik o'sishi 7,7 foizga teng bo'ldi. Shu bilan birga, ikkinchi chorakda dori vositalariga qo'shilgan qiymat solig'i tatbiq qilinishi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhi inflyatsiyasiga oshiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, almashuv kursi o'zgarishining barqaror shakllangani import hisobiga taklif etiladigan iste'mol tovarlari narx o'zgarishini sekinlashishiga xizmat qilib, nooziq-ovqat tovarlari guruhi inflyatsiyasini barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2024-yilda **xizmatlar** sohasida narxlar o'sishi umumiy inflyatsiyaga asosiy oshiruvchi ta'sirga ega bo'lib, ushbu sohada narxlarning yillik o'sishi 26,7 foizni tashkil etdi. Xususan, aprel-may oylarida energiya resurslari narxlari erkinlashtirilishi hamda tibbiy xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'iga tortilishi xizmatlar sohasida narxlarning sezilarli oshishiga olib keldi.

Shuningdek, so'nggi chorakda propan hamda metan yonilg'i mahsulotlari narxlarining oshishi natijasida transport xizmatlari ham qimmatlashdi.


Bazaviy inflyatsiya

2024-yilning dastlabki yarim yilligida bazaviy inflyatsiya darajasida barqaror pasayish kuzatildi. Biroq iqtisodiy faollikning yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, aholi daromadlarining barqaror oshib borayotganligi yalpi talabni qo'llab-kuvvatlashi natijasida bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichi yilning ikkinchi yarim yilligida o'suvchi tendensiyaga qaytib, yil yakunida 7,2 foizga teng bo'ldi.

So'nggi chorakda bazaviy inflyatsiya tezlashishiga, asosan, avvalgi chorakdagi taklif omillarining (*energiya resurslari narxi oshirilishi hamda dori vositalari va tibbiy xizmatlarni qo'shilgan qiymat solig'iga tortilishi*) ikkilamchi ta'sirlari hamda yonilg'i mahsulotlari (*metan va propan*) narxlari oshishining boshqa tovar va xizmatlar narxlariga o'tishi (*ikkilamchi ta'siri*) bilan izohlanadi.


1.3.3-chizma

Umumiy inflyatsiya va bazaviy inflyatsiya dinamikasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan



1.3.4-chizma

Aholi va tadbirkorlarning kelgusi 12 oy uchun inflyatsion kutilmalari



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Markaziy bank hisob-kitoblari

Inflyatsion kutilmalar

2024-yil davomida aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalarida o'zgaruvchan tendensiya kuzatildi. Xususan, dastlabki chorakda inflyatsion kutilmalarda pasayuvchi dinamika kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi chorakda energiya resurslari tariflarining oshirilishi bozor ishtirokchilarining inflyatsion kutilmalari ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Yoqilg'i resurslarining mavsumiy qimmatlashishi sharoitida so'nggi chorak davomida iqtisodiyot subyektlarining narxlar bo'yicha kutilmalarida o'sish kuzatildi. Dekabr oyida o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, aholining inflyatsion kutilmalari 14,4 foizni, tadbirkorlar kutilmalari esa 13,9 foizni tashkil etdi.

So'rovlarda aholi va tadbirkorlik subyektlari inflyatsion kutilmalari shakllanishiga asosan yoqilg'i va energiya resurslari hamda kommunal xizmatlar qimmatlashishi, almashuv kursi o'zgarishi hamda transport xarajatlari oshishi ta'sir etganligi ko'rsatib o'tilgan.

1.3.1-jadval

Aholi va tadbirkorlik subyektlari inflyatsion kutilmalari shakllanishining asosiy omillari (respondentlar ulushi, foizda)

	2024-yil											
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Novabr	Dekabr
Aholi												
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	49	54	50	47	49	47	44	46	47	46	51	57
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	39	39	42	55	57	54	51	49	45	47	51	56
Almashuv kursining o'zgarishi	55	56	61	55	49	41	39	42	50	51	51	55
Transport xarajatlarining oshishi	29	33	29	28	28	28	26	26	28	26	30	35
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	32	30	35	29	30	28	28	27	29	28	31	33
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	32	28	29	23	24	26	22	40	39	31	28	28
Tadbirkorlik subyektlari												
Valyuta kursining o'zgarishi	59	57	61	60	52	42	38	42	51	50	51	52
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	35	37	38	54	55	53	50	47	46	42	49	52
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	43	49	44	44	43	41	42	45	44	42	48	49
Transport xarajatlari qimmatlashishi	33	35	33	31	33	29	31	31	31	29	32	34
Soliq yukining yuqoriligi	24	27	25	31	35	31	28	27	27	23	25	27
Xomashyo narxlarining qimmatlashishi	28	28	28	27	26	26	25	26	27	25	25	25

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

1.4. O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqei ko'rsatkichlari

2024-yilda tashqi sektor statistikasini takomillashtirish maqsadida Shveysariya va Qozog'iston markaziy banklari mutaxassislari bilan tajriba almashinuvi dasturi doirasida mamlakatlararo aks (*mirror*) statistikasiga asoslangan holda tovarlar savdosini tahlil qilish, to'lov balansining prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning muvofiqlashtirilgan so'rovnomasi (*CDIS*)ni o'tkazish (*tuzish*) va mamlakatlar kesimida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid ma'lumotlarni shakllantirish tartibi ko'rib chiqildi.

Hisobot yilida O'zbekiston Respublikasining **to'lov balansi** va **xalqaro investitsiyaviy mavqei** ko'rsatkichlari **tashqi omillar** – asosiy eksport xomashyo tovarlari narxlarining o'sishi hamda mehnat migratsiyasi yo'nalishida kuzatilgan ijobiy tendensiyalar, shuningdek **ichki omillar** – iqtisodiy faollikning jadallashuvi, xizmat ko'rsatish sohasida eksport salohiyatining oshishi kabi sharoitlarda shakllandi.

Xususan, 2024-yilda jahon tovar-xomashyo bozorlarida oltinning o'rtacha narxi 2023-yilga nisbatan 23 foizga, kumush narxi – 21 foizga, mis narxi – 8 foizga hamda uran narxi – 42 foizga o'sdi¹¹.

Mehnat migratsiyasini qabul qiluvchi mamlakatlarda ishchi kuchiga yuqori talab, ish haqining oshishi hamda migratsiya geografiyasi tarkibida yuqori daromadli davlatlar ulushining ortishi xalqaro pul o'tkazmalari hajmining ko'payishiga xizmat qildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xizmatlar sohasi jadal rivojlanib, turizm, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, transport va logistika, ta'lim va tibbiyot sohalarida eksport salohiyati yuqori darajada oshmoqda.

Xususan, 2024-yilda respublikaga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2023-yilga nisbatan 20 foizga ko'payib, 8 mln nafarga yetdi. Shuningdek, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot texnologiyalari xizmatlari eksporti 1,4 barobarga oshdi.


Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida, 2024-yilda to'lov balansi **joriy operatsiyalar hisobining** manfiy saldosi 2023-yilga nisbatan yaxshilanib, 5,7 mlrd dollar doirasida shakllandi.

Tovar va xizmatlar eksporti. Xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining o'zgarishi hamda norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining ko'payishi natijasida, eksport hajmi **26,2 mlrd dollarga** yetdi.

¹¹ Жаҳон банки ва Халқаро валюта жамғармасининг хомашё нархларига оид маълумотлари.

1.4.1-chizma

Joriy operatsiyalar hisobi dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Tovarlar eksporti 2023-yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolib, **19,6** mlrd dollarni hamda xizmatlar eksporti qariyb **21** foizga o'sib, **6,5** mlrd dollarni tashkil qildi.

Tovarlar eksporti tarkibida (*monetar oltinsiz*) to'qimachilik mahsulotlari, qimmatbaho bo'lmagan metallar, meva-sabzavotlar va o'simliklar, kimyo sanoati mahsulotlari asosiy ulushga (**67%**) ega bo'lib, 2024-yilda birgalikda **7,6** mlrd dollarlik eksport qilindi.

1.4.2-chizma

Tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jami xizmatlar eksportining **49** foizi sayohatlar, **33** foizi transport va **18** foizi boshqa xizmatlar eksportiga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar sonining ortishi natijasida turizm bilan bog‘liq xizmatlar eksporti 2023-yilga nisbatan **48** foizga ko‘payib, **3,2** mlrd dollarga yetdi.

Tovar va xizmatlar importi. Hisobot yilida mamlakatda investitsion faollik va ichki iste‘mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi energoresurslar, mashina va uskunalari, oziq-ovqat mahsulotlari importiga talabni oshib borishi fonida import hajmi **43,6** mlrd dollarga yetdi.

Importning o‘rish sur‘atlari o‘tgan yillarga nisbatan mo‘tadillashib (2,3%), tovarlar importi **3,8** foizga qisqarib, **33,2** mlrd dollarni, xizmatlar importi esa **28** foizga oshib, qariyb **10,5** mlrd dollarni tashkil qildi.

Tovarlar importi tarkibida mashina, uskuna va mexanizmlar, transport vositalari, mineral mahsulotlar, qimmatbaho bo‘lmagan metallar hamda kimyo sanoati mahsulotlari asosiy ulushga (73%) ega bo‘lib, **25,5** mlrd dollarni tashkil etdi.

Xizmatlar importi tarkibida transport xizmatlari, sayohatlar bilan bog‘liq xizmatlar va boshqa xizmatlar mos ravishda **44** foiz, **42** foiz va **14** foizni tashkil etdi.

Import hajmining eksport hajmiga nisbatan yuqori sur‘atlarda o‘shishi fonida savdo balansi manfiy saldosi **17,4** mlrd dollar doirasida shakllandi.

Birlamchi va ikkilamchi daromadlar. Birlamchi va ikkilamchi daromadlardagi transchegaraviy xalqaro pul o‘tkazmalari 2024-yilda joriy operatsiyalar hisobini muvozanatlashtiruvchi omil sifatida xizmat qildi.

2024-yilda birlamchi va ikkilamchi daromadlar balansi ijobiy (*musbat*) saldo bilan shakllanib, mos ravishda **1,1** mlrd dollar va **10,6** mlrd dollarni tashkil qildi.

Mehnat migratsiyasi geografiyasining diversifikatsiyasi hamda qabul qiluvchi mamlakatlarda ish haqining oshishi birlamchi va ikkilamchi daromadlar komponentlari bo‘yicha tushumlarning shakllanishini rag‘batlantirgan bo‘lsa, norezidentlarning investitsiya daromadlari oshishi xarajatlarni ko‘paytiruvchi omillardan bo‘ldi.

Jumladan, birlamchi daromadlar bo‘yicha rezidentlarning tushumlari hajmi 2023-yilga nisbatan **6,6** foizga ko‘payib, **5,7** mlrd dollarga yetdi.


Birlamchi daromadlar komponenti bo‘yicha xarajatlarning oshishi asosan norezidentlarning O‘zbekistonga kiritgan investitsiyalari va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘langan daromad va foizlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalarining pasayuvchi fazaga o‘tishi va ijobiy kutilmalarga qaramasdan, tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarida o‘rish kuzatilib, norezidentlarning O‘zbekistondagi birlamchi daromadlari **4,5** mlrd dollarni tashkil qildi (*o‘rish 4,8%*).

Norezidentlardan uy xo‘jaliklariga kelib tushgan shaxsiy transfertlar hisobiga ikkilamchi daromadlar bo‘yicha tushumlar **11,6** mlrd dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, ular bo‘yicha to‘lovlar **1** mlrd dollarga teng bo‘ldi.

1.4.3-chizma

Joriy transfertlar dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi xorijiy investitsiyalar hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va tadbirkorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish doirasida jalb qilingan tashqi qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirildi.

2024-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof hajmi 2023-yilga nisbatan **32** foizga oshib, qariyb **2,8** mlrd dollarni tashkil etdi. Ularning kapitaldagi sof o'sishi **2,1** mlrd dollar, bosh kompaniyalardan olingan qarzar bo'yicha majburiyatlarning sof o'sishi **1,1** mlrd dollar hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (*MTB*) doirasidagi investitsiyalarning sof kamayishi **585** mln dollarga teng bo'ldi.


Portfel investitsiyalar komponenti nomoliyaviy tashkilotlar kapitaliga portfel investitsiyalar hamda xalqaro obligatsiyalar bo'yicha operatsiyalar hisobiga **3,1** mlrd dollar manfiy saldo bilan shakllandi.

Shu bilan birga, xorijdan jalb qilingan kredit va qarzarlar joriy operatsiyalar hisobi taqchilligini moliyalashtirgan asosiy manbalardan bo'lib, mazkur operatsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan **2** foizga ko'payib, **7,5** mlrd dollarni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasining sof xalqaro investitsiyaviy mavqei ko'rsatkichi 2024-yilning boshiga nisbatan **11** foiz yoki **1,4** mlrd dollarga mustahkamlanib, 2025-yil 1-yanvar holatiga **13,7** mlrd dollarni tashkil etdi. Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi **96,7** mlrd dollarni, tashqi majburiyatlari hajmi esa **83** mlrd dollarni tashkil etdi.

1.4.4-chizma

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibining o'zgarishi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot davrida boshqa investitsiyalar bo'yicha aktivlar va xalqaro zaxira aktivlari hajmining ko'payishi sof investitsiyaviy mavqega ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri, portfel va boshqa investitsiyalar bo'yicha majburiyatlarning ortishi sof investitsiyaviy mavqeni kamaytiruvchi omillardan bo'ldi.

1.4.5-chizma

O'zbekiston Respublikasining xalqaro investitsiyaviy mavqei



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yil yakunida **umumiy tashqi qarz**¹² hajmi yil boshiga nisbatan **20** foizga ko'payib, **64,1** mlrd dollarni tashkil qildi.


¹² Davlat va davlat tomonidan kafolatlangan hamda xususiy qarz, shu jumladan qarz bo'yicha hisoblangan lekin to'lanmagan foizlarni o'z ichiga oladi.

Bunda, davlat tashqi qarzi hajmi, nooperatsion o'zgarishlarni inobatga olganda **14** foizga oshib, **33,9** mlrd dollarga yetgan bo'lsa, korporativ tashqi qarz hajmi **28** foizlik o'sish bilan **30,2** mlrd dollarga yetdi.

Hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini moliyalashtirish ko'lamining ortishi, shuningdek, xususiy sektorda asosan tijorat banklari, energetika sektori va iqtisodiyotning boshqa sektorlari korxonalari tomonidan yangi qarzlarning jalb qilinishi hisobiga umumiy tashqi qarz bo'yicha majburiyatlar 2024-yilda **10,8** mlrd dollarga ko'paydi.

1.4.6-chizma

O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Umumiy tashqi qarz bo'yicha majburiyatlar o'sishining **4,2** mlrd dollari davlat va **6,6** mlrd dollari korporativ tashqi qarz bo'yicha majburiyatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Korporativ tashqi qarz tarkibida bank sektori bo'yicha majburiyatlar qoldig'i **11** mlrd dollarni (*o'sish 26%*), yoqilg'i-energetika sektorida **8,4** mlrd dollarni (*o'sish 30%*) hamda boshqa sektorlarda **10,8** mlrd dollarni (*o'sish 28%*) tashkil qildi.

II. 2024-YILDA BANK TIZIMI RIVOJLANISHI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGI

2024-yil davomida Markaziy bank tomonidan bank tizimi faoliyatida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini maqbul darajada bo'lishini ta'minlash hamda tashqi iqtisodiy jarayonlar orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning salbiy ta'sirlarini yumshatish va banklar bardoshligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Bunda, tijorat banklari faoliyati doimiy ravishda turli ssenariylarda stress-testlardan o'tkazilib kelgusida ularning kapitali va likvidligiga bo'lgan xatarlarni kamaytirish choralari ko'rib borildi.

Mazkur stress-testlar natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha chora-tadbirlar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ta'minlandi.

Tavakkalchilikka asoslangan bank nazoratini takomillashtirish maqsadida 2024-yilning noyabr oyida Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida **Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP)** o'tkazilib, bunda banklar faoliyatini nazorat qilish tizimi Bazel talablariga muvofiqligi baholandi. Baholash natijalariga ko'ra dastlabki xulosalar va tavsiyalar yuzasidan Markaziy bankda:

banklarning boshqaruv kengashlari va ichki audit xizmatlarining bankning moliyaviy holati yuzasidan hisobotlarini davriy ravishda muhokama qilib borish;

tijorat banklarining kredit, operatsion, bozor va valyuta risklarini xalqaro andozalarga mos ravishda baholash hamda xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlarining **texnik ko'magini** ushbu xatarlar bo'yicha turli ssenariylarda **stress-testlar** o'tkazishning ilg'or uslublarini bosqichma-bosqich makroprudensial nazorat tizimiga joriy etib borish;

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy banklar hamda O'zbekistonning chet eldagi banklari shuningdek, boshqa milliy moliyaviy sohalar nazorat organlari bilan birgalikda **kollegial nazorat organlarini (Supervisory College)** tashkil qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

tavakkalchilikka asoslangan bank nazoratini takomillashtirish tadbirlari doirasida banklarning **biznes modellari, kredit, foiz, bozor, operatsion, likvidlilik risklarini, kapital yetarliligi** hamda **korporativ boshqaruvini** o'z ichiga oluvchi risk profilini baholash ko'lamini kengaytirib borish;


banklarning **tizimli ahamiyatga molikligi** va risk-profilidan kelib chiqqan holda prudensial hisobotlar ko'lamini qayta ko'rib chiqish kabi vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari va grafiklari belgilab olindi.

2.1. Bank tizimining moliyaviy barqarorlik holati

2024-yilda bank tizimining **jami kapitali** hajmi **18** foizga oshib, **115** trln soʻmga, ustav kapitali hajmi **22** foizga oʻsib, qariyb **84** trln soʻmga yetdi. Regulyativ kapital hajmi **18** foizga oshib, **124,8** trln soʻmni va tavakkalchilikka tortilgan aktivlar **19** foizga koʻpayib, **719** trln soʻmni tashkil qildi. **Kapital monandligi koʻrsatkichi 17,4** foizni tashkil etib (*minimal talab 13%*), oʻtgan yil darajasida (*17,5%*) saqlanib qoldi.

2.1.1-chizma

Kapital yetarliligi koʻrsatkichi dinamikasi



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari


Hisobot yilida yuqori likvidli aktivlar hajmi 36 trln soʻmga yoki 37 foizga koʻpayib, **133** trln soʻmga yetdi. Yuqori likvidli aktivlar tarkibida **milliy valyutadagi aktivlar** 27 trln soʻmga, xorijiy valyutadagi aktivlar esa 9 trln soʻmga koʻpayib, ularning hajmi mos ravishda **74** va **59** trln soʻmni tashkil etdi.

Natijada, **yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi** (*likvidlilik buferi*) 2024-yilda **2,5** foiz bandga oshib, 2025-yilning 1-yanvar holatiga **17,3** foizga (*minimal talab 10%*) yetdi.

Yuqori likvidli aktivlar hajmining oshishi fonida, bank tizimida likvidlilikni qoplash meʼyori (*qisqa muddatli likvidlilik LCR*) yaxshilandi. Mazkur koʻrsatkich hisobot yili davomida **29** foiz bandga oshib joriy yilning 1-yanvar holatiga **194** foizni tashkil etdi (*oʻrnatilgan minimal talab 100%*).

2.1.2-chizma

Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bu esa, o'z navbatida, bank tizimida kutilmagan stress holatlar yuzaga kelgan taqdirda ham banklar keyingi 30 kun davomida mijozlar oldidagi majburiyatlarni deyarli 2 barobar ortig'i bilan bajara olish imkonini beradi.

2.1.3-chizma

Likvidlilikni qoplash me'yori (LCR)




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, sof barqaror moliyalashtirish me'yori ko'rsatkichi (*uzoq muddatli likvidlilik ko'rsatkichlari NSFR*) qariyb 4 foiz bandga oshib, **115 foiz** darajasida shakllandi (*o'rnatilgan minimal talab 100%*).

2.1.4-chizma

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR) dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda tijorat banklarining yalpi daromadlari **167** trln so'm, yalpi xarajatlari **160** trln so'mni tashkil etib, bank tizimi sof foydasi **7** trln so'mga teng bo'ldi, 27 ta bank faoliyatini 11,5 trln so'm foyda, 9 ta bank esa 4,5 trln so'm zarar bilan yakunlagan.

Banklar jami daromadlarining **67 foizi foizli daromadlar**, **33 foizi foizsiz daromadlar** hissasiga to'g'ri keldi. Foizli daromadlarning **91 foizi** kredit va mijozlarning majburiyatlari, **4,4 foizi** boshqa banklarga joylashtirilgan mablag'lar, **4,6 foizi** qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlarni tashkil etadi.


2.1.5-chizma

Bank tizimi aktivlar rentabelligi (ROA) dinamikasi




2.1.6-chizma

Bank tizimi kapital rentabelligi (ROE) dinamikasi



2.1.7-chizma

Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda tijorat banklarida foizsiz xarajatlarning sezilarli oshishi (+70,4%) sababli bank tizimining rentabellik ko'rsatkichlarida pasayish kuzatildi. Xususan, bank tizimi **aktivlari rentabelligi** 2023-yilga nisbatan **1,2** foiz bandga kamayib, **1,4** foizni va **kapital rentabelligi** **7,6** foiz bandga pasayib, **6,6** foizni tashkil etdi.

O'z navbatida, banklarning foizsiz xarajatlarining ortishi **operations samaradorlik ko'rsatkichi (CIR)**da ham namoyon bo'ldi. 2024-yilda mazkur ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **2** foiz bandga oshib, **36** foizni (*ushbu ko'rsatkichning maqbul darajasi 50 foiz bo'lib, uning kichrayib borishi ijobiy baholanadi*) tashkil etdi.

5-havola

Asosiy ko'rsatkichlar ta'rifi

Bank tizimi kapitali hajmi – bu mamlakatdagi barcha II darajali banklarning umumiy kapitali bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligi va tavakkalchiliklarni qoplash qobiliyatini aks ettiradi. U I darajali kapital (*ustav kapitali + taqsimlanmagan foyda + zaxiralar – nomoddiy aktivlar*) va II darajali kapital (*I darajali kapital + subordinar obligatsiyalar + kreditlar bo'yicha yo'qotishlar uchun rezervlar + qayta baholangan aktivlar*)dan iborat.

Bank kapitali hajmining o'sishi moliyaviy barqarorlik, biznesni kengaytirish imkoniyati va tavakkalchiliklarni kamaytirishini ko'rsatuvchi ijobiy signal hisoblanadi. Kapital o'sishi foyda oshishi, ustav fondiga qo'shimcha investitsiyalar jalb qilinishi, daromadlarni saqlab qolish, regulyator talablarini bajarish va kredit portfelini kengaytirish hisobiga yuz berishi mumkin.

Kapital yetarliligi ko'rsatkichi (*Capital Adequacy Ratio, CAR*) – bankning moliyaviy barqarorligini va xatarlarni qoplash qobiliyatini ko'rsatuvchi asosiy indikator. Basel III standartlariga ko'ra, CARning minimal darajasi **8** foiz, tizimli molik banklar uchun esa **10,5–12** foiz. O'zbekistonda **13** foiz etib belgilangan.

CAR **o'sishi** bankning moliyaviy barqarorligi, kapital oshishi va kreditlash imkoniyatlarining kengayishini bildiradi. CAR **pasayishi** xatarli aktivlarning o'sishi, zararlar yoki qayta kapitalizatsiya zaruratini ko'rsatishi mumkin.

Yuqori likvidli aktivlar ko'rsatkichi (*High-Quality Liquid Assets, HQLA*) bankning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati va likvidlik inqirozining oldini olish darajasini aks ettiradi.

O'z navbatida, Basel III talablariga ko'ra, likvidlilikni qoplash me'yori LCR (*Liquidity Coverage Ratio*) **100** foizdan kam bo'lmasligi kerak, ya'ni bank 30 kunlik mablag' chiqimlarini qoplash uchun yetarli likvid aktivlarga ega bo'lishi zarur.

HQLA o'sishi bankning barqarorligini ko'rsatadi, biroq daromadlilikni cheklashi mumkin. HQLA 10 foiz darajadan pasayishi esa bank likvidlik muammolariga duch kelishi mumkinligini anglatib, omonatchilar ishonchining pasayishi va tezkor ravishda qo'shimcha likvidlilik jalb qilish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.

2.1.1. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Iqtisodiyotda moliyaviy sektor ko'lamining oshib borishi, bir tomondan, inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq potensial xatarlarni oshib borishiga sharoit yaratadi.

Ushbu holatda bank tizimi aktivlarining barqaror o'sib borishini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sish uchun muvozanatli yondashuv orqali aktivlar tarkibidagi **potensial buzilishlarni** bartaraf etib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yilda Markaziy bankning ushbu yo'nalishlardagi asosiy e'tibori iqtisodiyotni moliyalashtirishning YaIM o'sishi bilan muvofiqligini ta'minlashga, kredit portfeli sifatini yaxshilashga hamda aktivlar konsentratsiyasi bilan bog'liq xatarlarni pasaytirib borishga qaratildi.

Hisobot yilida banklarning **jami aktivlari 117 trln so'mga** yoki **18 foizga** oshib, 2025-yilning 1-yanvar holatiga **769,3 trln so'mga** yetdi.

Aktivlar tarkibidagi **sof kredit qo'yilmalari** ulushi 2023-yildagi 70,2 foizdan **66,9 foizgacha**, Markaziy bankdagi mablag'lar ulushi 5,1 foizdan **4,5 foizgacha** kamaygan bo'lsa, boshqa banklardagi mablag'lar ulushi 8,2 foizdan **8,5 foizgacha**, investitsiyalar va sotib olingan qimmatli qog'ozlar ulushi 5 foizdan **7,7 foizgacha** oshishi kuzatildi.

Shuningdek, naqd pullar ulushi 3,1 foizdan 3,3 foizgacha, asosiy vositalar ulushi 3,0 foizdan 3,2 foizgacha, hisoblangan foizlar ulushi 3,0 foizdan 3,1 foizgacha, boshqa xususiy mulklar va aktivlar ulushi 1,9 foizdan 2,7 foizgacha oshgan.

Sof kredit qo'yilmalari hamda Markaziy bankdagi mablag'lar ulushining kamayishi qat'iy pul-kredit sharoitlarining saqlab qolinishi va makroprudensial choralarning kuchaytirilishi fonida kredit qo'yilmalari o'sishining mo'tadillashganligi bilan izohlanadi.

Banklar tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarining kreditga bo'lgan talabini qondirish va moliyaviy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash maqsadlariga 2024-yilda **287 trln so'm** yoki 2023-yilga nisbatan **14,3 foizga** ko'p kreditlar ajratildi.

Mazkur ajratilgan kreditlarning milliy valyutadagi qismi 2023-yilga nisbatan 11,4 foizga oshib 193 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, xorijiy valyutada qismi 20,6 foizga oshib 94 trln so'mni tashkil qildi.

Shuningdek, kreditlarning 67 foizini milliy valyutadagi kreditlar, 33 foizni chet el valyutasidagi kreditlar tashkil etgan. Bunda, ularning **64** foizi tadbirkorlik subyektlariga hamda **36** foizi aholiga ajratilgan.

Ushbu tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlarning **73** trln soʻmlik qismi revolver shaklida **aylanma mablagʻlarni** toʻldirish maqsadlariga yoʻnaltirilgan.

Oʻz navbatida, 2024-yil davomida 222 trln soʻm yoki 2023-yilga nisbatan 20 foizga koʻp kreditlar soʻndirilgan va ularning ajratilgan kreditlarga nisbatan 77 foizni tashkil etgan.


Natijada, banklar tomonidan ajratilgan kredit qoʻyilmalari 2024-yil boshiga nisbatan **13** foizga yoki **62** trln soʻmga oshib, 2025-yilning 1-yanvar holatiga **533** trln soʻmga yetdi.

Mazkur kredit qoʻyilmalarining **milliy valyutadagi** qismi 2023-yildagi 55 foizdan **57** foizga yetgan boʻlsa, **xorijiy valyutadagi** kreditlar salmogʻi 45 foizdan **43** foizgacha pasaygan.

Kredit portfelida xorijiy valyutadagi kreditlar salmogʻining pasayib borishi Markaziy bank tomonidan ehtiyotkor valyuta siyosatini olib borilayotganligi hamda tadbirkorlik subyektlarining valyuta almashunuv kursi bilan bogʻliq xatarlardan himoyalanih boʻyicha koʻnikmasining ortib borayotganligi bilan izohlanadi.


2.1.1.1-chizma

Ajratilgan va soʻndirilgan kreditlar dinamikasi



2.1.1.2-chizma

Kredit portfel dinamikasi



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

2024-yilda **tadbirkorlik subyektlariga** ajratilgan kredit qoʻyilmalari 10,2 foizga oʻsib **355,6** trln soʻmni, **aholiga** ajratilgan kredit qoʻyilmalari 2023-yilga nisbatan 19,5 foizga koʻpayib, **177,5** trln soʻmni tashkil etdi.

Aholining kredit qo'yimalari tarkibida **mikroqarzarlar** 1,7 barobarga oshib, **42,4** trln so'mni, **ipoteka kreditlari** 16,5 foizga oshib, **67,7** trln so'mni va boshqa kreditlar 2,3 foizga oshib, 67,4 trln so'mni tashkil etdi.

2024-yilda **mikroqarzlarning** aholiga ajratilgan kredit qo'yimalaridagi ulushi 2023-yildagi 16,5 foizdan **23,9** foizga yoki **7,4** foiz bandga **sezilarli darajada oshgan**.

Ta'kidlash lozimki, 2024-yil 1-yanvardan mikroqarzlarning maksimal miqdori 50 million so'mdan **100** million so'mga oshirilgani **kreditlashning mikroqarzar segmentida** yuqori o'sishiga sharoit yaratishi bilan birga, banklar kredit portfelida **mikroqarzlarning konsentratsiya** darajasining ortishi, shuningdek mikroqarzarlar uchun garov ta'minotining talab etilmasligi ushbu segmentda **xatarlar to'planishiga** olib kelmoqda.

Kredit qo'yimalarining banklarning mulkchilik shakli bo'yicha qaralganda, 2024-yilda davlat banklarida jami kredit qo'yimalari 10 foizga oshib **366,7** trln so'mni va xususiy banklarda 20,5 foizga oshib **166,4** trln so'mni tashkil etdi.

Jami kredit portfelida **davlat banklarining** ulushi 2023-yildagi 70,7 foizdan **68,8** foizgacha pasaygan bo'lsa, **xususiy banklarda** esa 29,3 foizdan **31,2** foizgacha oshish kuzatildi.

Mazkur holat xususiy banklarda zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilayotganligi va biznes modeli chakana kreditlashga ixtisoslashgani hamda kreditlash jarayonlarining soddalashtirib borilayotganligi, xususan, mikroqarzarlar olish mobil ilovalar orqali amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yimalari qoldig'i sanoat sohasida **9** foizga oshib, **153,4** trln so'mga, qishloq xo'jaligida **6** foizga oshib, **50,3** trln so'mga, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida **17** foizga oshib, **38,1** trln so'mga, qurilish sohasida **6** foizga oshib, **13** trln so'mga hamda moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish sohasida **4** foizga oshib, **4,2** trln so'mga yetdi.

2024-yilda **imtiyozli kreditlar**¹³ qoldig'i **142** trln so'mni tashkil qilib, kredit qo'yimalaridagi ulushi **27** foizga teng bo'ldi.

Iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan o'sib borayotgan talabini qondirib borishga sharoit yaratish maqsadida va tashqi manbalardan resurslar jalb qilishdagi noaniqliklar tijorat banklari tomonidan **ichki moliyalashtirish manbalarga** bo'lgan ehtiyojlarni kuchaytirmoqda.

Xususan, hisobot yilida banklarning jami majburiyatlari **654,5** trln so'mga yetib, 2023 yilga nisbatan **18** foizga yoki **99** trln so'mga oshdi.

¹³ Imtiyozli kreditlar sifatida foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasi va undan past bo'lgan milliy valyutadagi kreditlar hamda O'zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasi va Hukumat kafolati ostida ajratilgan xorijiy valyutadagi kreditlar hisobga olingan.

Majburiyatlar o‘rishining **67 foizi depozitlar, 16 foizi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar, 10 foizi jalb qilingan kredit liniyalari, 2 foizi subordinar qarzar** va **7 foizi boshqa** majburiyatlar hisobiga shakllandi.

Jami majburiyatlar tarkibida **jalb qilingan depozitlar** ulushi 43,5 foizdan 47,2 foizgacha, **chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar** ulushi 2,4 foizdan 4,4 foizgacha hamda **subordinar qarzar va boshqa majburiyatlar** ulushi 5,4 foizdan 5,9 foizgacha oshgan.

Markaziy bankka to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar (*to‘lov tizimlari bo‘yicha to‘lovlar*) 0,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, jalb qilingan **kredit liniyalarining ulushi** 40,4 foizdan 35,9 foizgacha hamda boshqa banklarga to‘lanadigan mablag‘lar ulushi 8 foizdan 6,3 foizgacha kamaygan.

Jalb qilingan depozitlar tarkibida milliy valyutadagi depozitlar ulushi 70,1 foizdan **75 foizgacha** oshgan bo‘lsa, chet el valyutasidagi depozitlar ulushi 29,9 foizdan **25 foizgacha** pasaygan.

Ushbu holat almashuv kursining barqaror shakllanib borayotganligi hamda nisbatan qat’iy pul-kredit siyosatining yuritilishi hisobiga ijobiy real foiz stavkasi saqlab qolinayotganligi milliy valyutadagi depozitlarning jozibadorligini oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, jismoniy shaxslardan milliy valyutada jalb qilingan muddatli depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi 21,8 foizni tashkil etib, jalb etilgan depozitlarning 55 foizi 22 foizgacha, 37 foizi 22-25 foizgacha, qolgan 8 foizi 25 foizdan yuqori stavkalarda jalb etilgan.

Tijorat banklari tomonidan hisobot yilida jalb qilingan depozitlar tarkibidagi aholi omonatlari qoldig‘i **42 foizga** yoki **36 trln so‘mga** oshib, **122 trln so‘mga**, jumladan, milliy valyutada jalb etilgan omonatlar qoldig‘i **54 foizga** yoki **31 trln so‘mga** oshib, 88 trln so‘mga, jami aholi omonatlaridagi ulushi **66 foizdan 72 foizga** yetdi.

Jalb qilingan depozitlar qaytarish muddatlari tarkibida **bir yilgacha** bo‘lgan depozitlar ulushi qariyb **29 foiz** atrofida 2023-yil darajasida saqlanib qolgan bo‘lsa, **bir yildan yuqori** muddatli depozitlar ulushi 35,3 foizdan **38,7 foizgacha** oshgan. **Talab qilib olguncha** depozitlar ulushida 35,3 foizdan **32,1 foizgacha** pasayish kuzatilgan.

Umuman olganda, global inflyatsiya darajasining pasayib borishi fonida xorijiy markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosatlari yumshatish fazasiga o‘tayotgan bo‘lsada, xorijiy resurslarga bo‘lgan talabning yuqori saqlanib qolayotganligi natijasida tashqi moliya bozordagi foiz stavkalarining sekinroq sur‘atlarda pasayishi kuzatilmoqda.

2.1.1.1-jadval

Depozitlarning muddatlari bo'yicha taqsimlanishi

	Jami	Depozitlar qaytarish muddatiga ko'ra							
		Talab qilib olinguncha		6 oygacha		6 oydan 1 yilgacha		1 yildan yuqori	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda
01.01.2024-y.	241 687	85 198	35,3	36 329	15	34 952	14,5	85 209	35
milliy valyutada	169 516	50 827	30	25 909	15	27 209	16	65 571	39
xorijiy valyutada	72 171	34 370	48	10 420	14	7 743	11	19 638	27
01.01.2025-y.	308 692	99 094	32,1	43 980	14,2	46 260	15	119 359	39
milliy valyutada	231 235	62 415	27	34 647	15	39 014	17	95 158	41
xorijiy valyutada	77 458	36 679	47	9 332	12	7 246	9	24 201	31

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shu bilan birga, iqtisodiyotda muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida bank kreditlariga bo'lgan yuqori talabni qondirib borishda ichki manbalar bilan birga tashqi manbalarni ahamiyati oshib bormoqda.

Ushbu maqsadda 2024-yilda banklar tomonidan jami **6,3** mlrd dollarlik (2023-yilga nisbatan +46%), shu jumladan, **2** mlrd dollarlik bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli xorijiy kreditlar jalb etilgan.

Hisobot yilida **4,6** mlrd dollarlik xorijiy kreditlar so'ndirilib, (2023-yilga nisbatan +60%) shundan, **2,8** mlrd dollari (60%) uzoq muddatli kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

Banklarda mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlardan kelib chiqqan holda kreditlash manbalarini shakllantirish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida **tashqi kredit resurslari 9,1** foizga (12,3 trln so'mga oshib, **11,4** mlrd dollarni tashkil qilgan) oshgan bo'lsa, **ichki resurslar – depozitlar** qoldig'i 2024 yilda **67** trln so'm yoki **28** foizga o'sgan holda, ularning jami majburiyatlardagi ulushi ushbu davrda 44 foizdan **47** foizgacha oshgan.


2.1.2. Tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar tahlili

Tadbirkorlik subyektlarining biznes tashabbuslari qo'llab-quvvatlash hamda investitsion loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholining bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari kengaytirishda banklarning o'rni va rolga katta ahamiyat berilmoqda.

2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi **539** mingdan ortiq loyihalarga tijorat banklari tomonidan jami **160** trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

2.1.2.1-chizma

2024-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi



*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 fevraldagi PF-21-son Farmoniga asosan tadbirkorlik subyektlari yillik pul aylanmasiga qarab **kichik, o'rta va yirik toifalarga** ajratilgan.

Bunda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar ham inobatga olingan.

Xususan, ushbu kreditlarning **92,4** trln so'mlik yoki 2023-yilga nisbatan **26** foizga ko'p qismi kichik va o'rta tadbirkorlikni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga **538** mingdan ortiq loyihalarga yo'naltirildi.

2024-yilda tijorat banklari tomonidan **savdo va xizmatlar sohasidagi** tadbirkorlik subyektlarining qariyb **69** mingdan ortiq loyihalarini moliyalashtirish uchun **61,3** trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Ushbu mablag'larning **25** trln so'mi xizmatlar sohasidagi loyihalarga, **15,7** trln so'mi savdo faoliyatiga va **20,6** trln so'mi xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratilgan.

Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan **5 771 ta** tadbirkorlik subyektiga **4,6** trln so'mdan ortiq kreditlar ajratildi.

Ushbu ajratilgan kreditlarning **1,5 trln so‘mi** – mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish, **1 022,7 mlrd so‘mi** – restoranlar faoliyati, **812,8 mlrd so‘mi** – yo‘lovchi tashish xizmatlariga, **522,6 mlrd so‘mi** – turistik agentlik va oromgohlar faoliyati hamda **62,1 mlrd so‘mi** – sport va sog‘lomlashtirish turizmi uchun yo‘naltirilgan.

2024-yilda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirishga xorijiy kredit liniyalari resurslaridan ham keng foydalanildi. Respublika bo‘yicha jami 26,7 mingga yaqin loyihalar uchun 3,3 mlrd dollarlik kreditlar yo‘naltirildi.


Ushbu resurslarning 1,2 mlrd dollar miqdoridagi qismi kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratildi.

2024-yilda xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan canoatga 2 138,3 mln, cavdo va umumiy ovqatlanish sohalariga 387,7 mln, xizmat ko‘rsatishga 290,4 mln, qishloq xo‘jaligiga 190,4 mln dollar, transportga 188,5 mln, qurilishga 139,8 mln va aloqaga 3,4 mln dollar yo‘naltirildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari (*keyingi o‘rinlarda – dasturlar*) doirasida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida so‘nggi 7 yilda jami **50 trln so‘mdan** ortiq imtiyozli kreditlar ajratilib, **2,3 millionga** yaqin aholining daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanishiga zamin yaratildi.

2.1.2.2-chizma

2024 yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit ajratish dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma’lumotlari

2024-yilda dasturlar amalga oshirilishi davom ettirilib, asosiy e'tibor, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga qaratildi va hokim yordamchilari tavsiyalari asosida **372** mingdan ortiq loyihalarga jami **6,8** trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi.

Ushbu imtiyozli kreditlar hisobidan, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan **150** mingdan ortiq loyihalariga **2,7** trln so'mlik va xotin-qizlarning **203** mingdan ortiq loyihalariga **3,2** trln so'mlik kreditlar ajratildi.

Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning **495** mlrd so'mi (7%) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, **6,3** trln so'mi (93%) o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, 2024-yilda ajratilgan kreditlarning **3,6** trln so'mi qishloq xo'jaligi (*shundan, chorvachilik 1,5 trln so'm, issiqxona tashkil etish uchun 567 mlrd so'm, meva-sabzavot va bog'dorchilik uchun 518 mlrd so'm*), **1,9** trln so'mi xizmat ko'rsatish, **838** mlrd so'mi hunarmandchilik yo'nalishi uchun hamda **433** mlrd so'mi ishlab chiqarish va boshqa sohalarga yo'naltirilgan.

Kredit ajratish bilan bog'liq barcha jarayonlar to'liq raqamlashgan holda (*Oilakredit.uz*) yagona elektron platforma orqali amalga oshirilmoqda, xususan, kredit uchun ariza berish, scoring, hujjatlarni rasmiylashtirish, mahsulot buyurtmasi va monitoring jarayonlari avtomatlashgan holda inson omilisiz ko'rib chiqilmoqda.

O'z navbatida, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish hamda ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilgan **300** mln so'mgacha kreditlar ajratish mexanizmlari joriy qilindi.

Ushbu yo'nalish doirasida **49 159** nafar tadbirkorlik subyektlarining **4,8** trln so'mlik loyihalari moliyalashtirildi.

Unga ko'ra, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning uzluksizligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida, 2018-2023-yillarda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit olib, undan muvaffaqiyatli foydalanib, o'z vaqtida qaytargan **751** ming nafar mijozlarni kichik va o'rta biznes darajasiga olib chiqish bo'yicha manzilli ro'yxat shakllantirildi.

Ushbu mijozlarga **300** mln so'mgacha mikrokreditlar, shundan, **100** mln so'm garovsiz qismi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ mablag'lari hisobidan, **200** mln so'mgacha qismi banklar va mikromoliya tashkilotlarining o'z mablag'lari hisobidan ajratish tizimi joriy qilindi.

Natijada, ushbu qaror doirasida **10 ming nafardan ortiq** tadbirkorlik subyektlarining loyihalariga **3,1** trln so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

2024-yilda tijorat banklari tomonidan **alohida tashabbus va tajribalar** asosida aholini tadbirkorlikka jalb qilish va daromadli mehnat bilan band qilish ishlari davom ettirildi.

Xususan, “Sayxunobod” va “Uychi” tumanlari tajribalari hamda **“bir kontur – bir mahsulot”** tamoyili asosidagi ishlar kengaytirib borilmoqda.

“Sayxunobod tajribasi” asosida mahallalarda mikroloyihalar tashkil etish uchun **326 mingta** mikroloyihaga **10,2** trln so‘mlik kreditlar ajratildi va natijada **577 ming nafar** aholini daromadli mehnat bilan bandligi ta‘minlandi.

Bunda, sanoat sohasida **53 mingta** loyihaga **2** trln so‘m, xizmat ko‘rsatish sohasida **144 mingta** loyihaga **4,8** trln so‘m va qishloq xo‘jaligi sohasida **127 mingta** loyihaga **3,4** trln so‘m kreditlar ajratildi.

“Uychi tajribasi” asosida 2024-yilda **110 mingga** yaqin tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, ushbu uchrashuvlarda ularning **68 mingdan** ortiq ko‘targan masalalari va muammolarini ijobiy hal etildi.

“Bir kontur – bir mahsulot” tamoyili asosida ijaraga berilgan yer maydonlarida ustuvor ravishda eksportbop serdaromad qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha yaxlit **5,4 ming** gektar yer maydonlarida **508 ta** namunaviy loyihalarni amalga oshirdi.

Ushbu loyihalarga **41,5** mlrd so‘mlik kreditlar ajratilib, ularga “etakchi” tadbirkorlarni (*eksportyor, qayta ishlash korxonasi*) biriktirish orqali **18 mingta** dehqon xo‘jaliklari tashkil qilindi.

2.1.3. Banklar moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda qo‘llanilgan prudensial va makroprudensial chora-tadbirlar

2024-yilda banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarga banklarning likvidlilik va kapital buferlarini shakllantirish orqali bardoshlilikini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash, kreditlash amaliyotlaridagi mavjud zaifliklarni bartaraf qilish, yirik qarzдорlarning moliyaviy holatini tahlil qilib borish borasida zarur choralar ko‘rib borildi.

Xususan, Markaziy bank tomonidan 2024-yilning sentabr oyida bank tizimida likvidlilik holati tahlili va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan likvidlilik risklari va ularning banklar moliyaviy barqarorligiga ta‘siri yuzasidan **“asosiy”** va **“xatarli”** ssenariylarda stress-test o‘tkazildi.

Bunda, “asosiy” ssenariy noqulayliklar sharoitlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos shoklarning minimal to‘plamini hamda “xatarli” ssenariy iqtisodiyotda keskin makroiqtisodiy, geosiyosiy yoki iqlim o‘zgarishi shoklari yuzaga kelishi xatarlari asosida hisob-kitob qilindi.

Stress-test natijalari yuzasidan tijorat banklari tomonidan likvidligidagi mavjud zaifliklarni bartaraf qilish borasida tegishli amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va ijrosi ta'minlanmoqda.

Banklarning kredit portfelli sifatini yaxshilash, kreditlarning qaytmaslik bilan bog'liq xatarlarni oldini olish maqsadida banklarning kredit portfelli muntazam ravishda banklar, hududlar, sohalar va segmentlar kesimida tahlillar kuchaytirildi.


Banklarda kapital buferlarini shakllantirish hamda ustav kapitali miqdorini qonun talablari doirasida muvofiqlashtirish choralari ko'rib **14** ta bankning ustav kapitali miqdori **500** mlrd so'mga yetkazildi.

Bundan tashqari, tadbirkorlar faoliyatidagi mavjud muammolarni o'rganish, ulardagi muammoli kreditlar salmog'ini pasaytirish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari bilan birgalikda joylarda o'rganishlar amalga oshirib borilmoqda.

2024-yilda bank tizimida muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi **4** foiz (2024-yil I chorakda 4,5%) darajasida saqlanib qoldi.

2.1.3.1-chizma

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2025-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari kredit portfelining **79** foizi “**standart**”, **17** foizi “**substandart**” hamda **4** foizi muammoli (**1,9** foizi “**qoniqarsiz**”, **1,4** foizi “**shubhali**” va **0,7** foizi “**umidsiz**”) kreditlar sifatida tasniflandi.

Banklar tomonidan 2024-yilda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralar (*standart aktivlar bo'yicha yaratilgan zaxiralarni hisobga olinmaganda*) hajmi **4,9** trln so'mga yoki 36 foizga oshib, **18,4** trln so'mga yetdi. Bunda, **muammoli kreditlarni zaxiralar bilan qoplanish** darajasi o'tgan yilning mos davridagi **82** foizdan 2024-yil 1-yanvar holatiga **87** foizga oshdi.


Muammoli kreditlarning 75 foizi (15,8 trln so‘m) tadbirkorlik subyektlari va 15 foizi (5,4 trln so‘m) jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aholining muammoli kreditlari tarkibida **1,7 trln so‘mi (31%) mikroqarzarlar, 1,5 trln so‘mi (28%) avtokreditlar, 1,2 trln so‘mi (22%) tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar, 932 mlrd so‘mi (17%) ipoteka kreditlari va 88 mlrd so‘mi (1,6%) boshqa iste‘mol kreditlari** hissasiga to‘g‘ri keladi.

Markaziy bank tomonidan kapital monandligi va likvidlilik, bankka aloqador va o‘zaro aloqadorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilik miqdorlari, banklarning ko‘chmas mulklarga qilingan investitsiyalari hamda valyuta pozitsiyalari kabi prudensial talablarga amal qilish holatlari nazorat tizimi kuchaytirildi.

2.1.3.2-chizma

Jismoniy shaxslarning muammoli kreditlari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, hisobot yilida kapital monandligi ko'rsatkichlari hisob-kitobi bo'yicha aktivlar o'rnatilgan talablar darajasida tavakkalchilikka tortilishi, ularning sifati to'g'ri tasniflanganligi hamda aktivlar bo'yicha yetarli miqdorda zaxiralar shakllantirilganligi, subordinar qarzarlar o'rnatilgan talablarga muvofiq hisobga olinishi va boshqa komponentlarning haqqoniy aks ettirilishi holatlarini o'rganish ishlari o'tkazildi.

Bank tizimi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega yirik tavakkalchiliklarni boshqarish va ularning ehtimoliy ta'sirini baholab borish maqsadida bank tizimi kredit portfelidagi **TOP-50** ta qarzdorlarning banklar moliyaviy holatiga ta'siri o'rganildi.

Nazorat tadbirlari doirasida tajriba tariqasida qo'llanilgan **4 ta** banklar andozalari asosida 2024-yilda **14 ta** banklarning **risk-profillari baholandi**.

O'tkazilgan tahlil natijalari yuzasidan tijorat banklariga nisbatan tegishli choralar ko'rildi va mavjud zaifliklarni bartaraf qilish borasida ko'rsatmalar berildi.

Banklarning risk-profilini baholash natijalaridan kelib chiqib, 2025-yilda o'tkaziladigan tekshirish dasturiga takliflar ishlab chiqildi.

Banklar faoliyatida yuzaga kelgan ahamiyatga molik ma'lumotlar, bank kengashi tomonidan qabul qilingan muhim qarorlar, regulyator tomonidan bankka nisbatan qo'llanilgan choralar va sanksiyalarni o'z ichiga olgan **institutsional tahliliy ma'lumotlar** shakllantirib borildi.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan banklarning 2024-yil uchun mo'ljallangan **biznes reja ko'rsatkichlari ijrosi** choraklik nazorati amalga oshirildi.

Aholiga ajratilgan kreditlarning risk darajasini baholash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (*potensial*) muammoli kreditlarni aniqlash maqsadida ipoteka kreditlari, avtokreditlar va mikroqarzlarning sifat jihatdan davriy o'zgarishi o'rganildi.

O'rganishlar davomida bugungi kunda ayrim banklar kredit portfellarida jismoniy shaxslarga ajratilayotgan bir turdagi kreditlar konsentratsiyasi oshib ketganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank tizimida kredit xatarlarini oldini olish, banklar kredit portfellari tarkibini diversifikatsiya qilish maqsadida:

- 2025-yilda aholiga ajratilayotgan mikroqarzlarning konsentratsiyasi yuqori bo'lgan banklarga nisbatan xatarlarni oldini olish bo'yicha choralar ko'rib boriladi;
- ushbu kredit mahsulotidan ortgan mablag'lar ustuvor ravishda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi belgilandi.

2.1.4. Aholining qarz yuki

So'nggi yillarda iste'molchilarning an'anaviy bank xizmatlari bilan birga yangi turdagi xizmatlarga, xususan, nasiya savdo orqali tovar va xizmatlarni xarid qilishga bo'lgan talabi ortib borayotgan bo'lib, kredit tarixiga yoki doimiy daromadga ega bo'lmagan iste'molchilar uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etmoqda va buning natijasida ba'zi istemolchilarning qarz yuki ko'rsatkichlarini nazorat qilish qiyinlashmoqda.


Ushbu sharoitlarda aholi qarz yuki darajasining ortib ketishi va mamlakat moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida Markaziy bank tomonidan qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalari takomillashtirib borilmoqda.

Jumladan, 2024-yil 1-iyuldan boshlab qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (*DSTI*) cheklovi jismoniy shaxslarga ajratilgan barcha kredit turlari (*oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar bundan mustasno*) uchun **60** foiz etib belgilandi.


2.1.4.1-chizma

2.1.4.2-chizma

Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati



Jismoniy shaxslarga ajratilgan avtokreditlar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi

Ipoteka kreditlari ajratishda bozor tamoyillari ko'lamining kengayishi, jumladan tijorat banklari resurs mablag'lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlari ulushining (*hisobot davrida ajratilgan ipoteka kreditlarining 35 foizi*) ortib borishi ushbu kredit turi bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasining o'sishiga (+2,1 f.b.) hamda o'rtacha kredit so'ndirish muddatining qisqarishiga (17,5 yildan 16,6 yilga) sabab bo'ldi.

Xususan, **ipoteka krediti** bo'yicha kredit shartlarining qat'iylashishi hamda har bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan kredit summasi miqdorining ortishi (30%) hisobiga aholining ushbu kredit turi bo'yicha **qarzga xizmat ko'rsatish nisbati** 2023-yildagi 44 foizdan 2024-yilda **54** foizgacha oshdi.

Avtokreditlar bo'yicha aholining **qarzga xizmat ko'rsatish nisbati** hisobot yilida 2023-yildagi (59%) ko'rsatkichdan biroz pasayib, **58** foizda shakllandi. Avtokreditlar bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasi (+2,1 f.b.) hamda har bir avtokredit oluvchiga to'g'ri keladigan kredit summasi (6,9%) ortishiga qaramay, aholining ish haqi miqdorida (17,4%) kuzatilgan o'sish jismoniy shaxslarning ushbu kredit turi bo'yicha banklar oldidagi majburiyatlarini bajarish holatining yaxshilanishiga sabab bo'ldi.

Aholi qarz yuki darajasining oshib ketishini oldini olishga, shuningdek banklar, mikromoliya tashkilotlari va lombardlarda kredit xavfini kamaytirish maqsadida **qarzga xizmat ko'rsatishni daromadga nisbati cheklovi** 2025-yil 1-yanvardan boshlab **50** foizgacha pasaytirildi.

Qarz yuki cheklovi talablarining kredit faolligiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida esa, istisno tariqasida:

- banklarning jismoniy shaxslar bo'yicha kredit portfelining **15** foizigacha;

- mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan kreditlar ajratishda asosiy qarz qoldig'i yig'indisi bazaviy hisoblash miqdorining **50 baravarigacha** (*o'zini o'zi band qilgan shaxslarga 75 baravarigacha*) miqdorida qarz yuki ko'rsatkichini inobatga olmagan holda jismoniy shaxslarga kredit ajratish mumkinligi belgilandi.

Shu bilan birga, banklar kredit portfelida aholi qarz yuki bilan bog'liq xatarlarning ortishini oldini olish uchun, istisno tariqasida, ajratiladigan kreditlarga **yuqoriroq tavakkalchilik darajalarini** belgilash amaliyoti joriy etildi.

2.2. Kredit va to'lov tashkilotlari infratuzilmasi

2.2.1. Faoliyat yuritayotgan kredit va to'lov tashkilotlari

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni **36 tani** tashkil etdi. Ularning **9 tasini** ustav kapitalida davlat ulushi mavjud banklar, **20 tasi** xususiy banklar va **7 tasi** chet el banklari ishtirokidagi banklar.

Tijorat banklarining filiallari soni **288 taga**, mini-banklar –**40 taga**, bank xizmatlari ofislari – **1 680 taga** va tun-kun “24/7” rejimida ishlaydigan bank shoxobchalari – **4 447 taga** yetdi.

2024-yilda “**Yevroosiyo Banki**” aksiyadorlik jamiyatiga bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berildi.

Shuningdek, 2024-yilda **16 ta** mikromoliya tashkiloti, **9 ta** lombard, **2 ta** to'lov tashkiloti va **1 ta** to'lov tizimi operatori o'z faoliyatini boshladi. **7 ta** to'lov tashkilotlarining litsenziyalari chaqirib olindi (*shundan 4 tasi o'z ixtiyori bilan, 2 tasi qonunchilik talablarini buzganligi uchun hamda 1 tasi birlashganligi munosabati bilan*).

Bundan tashqari, **1 ta** to'lov tizimi operatorining litsenziyasi o'z ixtiyoriga ko'ra chaqirib olindi va **1 ta** lombard o'z faoliyatini tugutganligi to'g'risidagi xabarnomaga asosan lombardlar reyestridan chiqarildi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat yuritayotgan nobank kredit tashkilotlari soni **193 tani** tashkil etdi (*mikromoliya tashkilotlari – 100 ta, lombardlar – 92 ta va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti – 1 ta*). Shuningdek, **3 ta** to'lov tizimi operatorlari, **44 ta** to'lov tashkilotlari va **2 ta** kredit byurolari faoliyat ko'rsatmokda.

2.2.2. Kredit axborotining davlat reyestri, Kredit byurosi va Garov reyestri faoliyati

Kredit xatarlarini oldini olishda mijozlarni skoringdan o'tkazish hamda ularning to'lovga layoqatlilik darajasini to'liq va sifatli baholashda ma'lumotlar qamrovi hamda almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi.


Kredit axboroti almashinuvi tizimi o'z ichiga Markaziy bankning Kredit axborotining davlat reyestri, KATM hamda "CRIF Kredit-axborot xizmatlari" kredit byurolarini qamrab oladi.

Kredit axborotining davlat reyestrda tijorat banklariga kredit (*lizing, faktoring va bank kafolatlari*) bo'yicha kelib tushgan buyurtmalar, tuzilgan bitimlar va ushbu bitimlar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan.

Xususan, 2025-yil 1-yanvar holatiga qarzdorligi mavjud bo'lgan amaldagi bitimlar soni 2024-yilning 1-yanvariga nisbatan 33,6 foizga oshib, qariyb 7,5 mln tani, qarzdorlar soni esa 20,0 foizga o'sib, qariyb 5 mln nafarni tashkil etdi.


2.2.2.1-chizma

Amaldagi kredit bitimlari soni



2.2.2.2-chizma


Amaldagi qarzdorlar soni




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2025-yil boshiga mavjud qarzdorlar sonining 94,9 foizini **jismoniy shaxslar** hamda 5,1 foizini **yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar** tashkil etgan. Kredit qarzdorligi mavjud jismoniy shaxslarning 54,4 foizi erkaklar, 45,6 foizi ayollardan iborat.

2.2.2.3-chizma

Kredit qarzadorligi mavjud jismoniy shaxslar soni

2.2.2.4-chizma

Jismoniy shaxslarning amaldagi kredit bitimlari ulushi

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Qarzadorligi mavjud bo'lgan amaldagi bitimlar soni kredit turlari bo'yicha tasniflanganda, **kredit kartalari** soni o'tgan yilga nisbatan 2,3 barobarga, **mikroqarzarlar** soni 54,4 foizga, **ta'lim kreditlari** soni 19,8 foizga, **ipoteka kreditlari** soni 8,6 foizga va **mikrokreditlar** soni 7,8 foizga ko'paygan.

2024-yilda Kredit axborotining davlat reyestriga nobank kredit tashkilotlari (*mikromoliya tashkilotlari va lombardlar*) tomonidan axborot taqdim etilishi, faktoring xizmatlari va bank kafolatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qabul qilinishi, shuningdek tahlil va nazorat qilish imkoniyatlarini oshirish maqsadida qo'shimcha va aniqlashtiruvchi ma'lumotlar yig'ilishi yo'lga qo'yildi.

Reyestrqa qabul qilingan kredit axborotining sifatini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni inventarizatsiya qilib borish ishlari davom ettirilib, o'tgan yil mobaynida aniqlangan kredit axborotiga oid xato va kamchiliklar tijorat banklari bilan birgalikda to'liq bartaraf etildi.

Axborotlarni taqdim etishda yo'l qo'yilayotgan xatoliklarning oldini olish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ularning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida turli mantiqiy nazoratlar ishlab chiqilib dasturiy ta'minotga joriy qilindi.

Reyestrning biznes-tahlil tizimi (*Business Intelligence*) negizida hisobotlar va tahliliy ma'lumotlarning avtomatik shakllantirilishi yo'lga qo'yilib, tijorat banklari kredit portfelidagi risklarni real baholash imkonini beruvchi bir nechta dasturiy modullar amaliyotga joriy etildi.

KATM kredit byurosi bazasidagi kredit axboroti subyektlariga (*jismoniy va yuridik shaxslar*) oid ma'lumotlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 15,0 mln tani tashkil etib, shundan 95,9 foizi (*qariyb 14,4 mln tasi*) jismoniy shaxslar va 4,1 foizi (*612,8 mingtasi*) yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

2024-yil davomida KATM kredit byuroosi bilan kredit axboroti almashinuvi bo'yicha shartnomalar tuzgan kredit axboroti foydalanuvchilari soni 143 taga (*asosan reteylar va boshqa tashkilotlar hisobiga*) ko'payib, **773** taga yetdi.

Shuningdek, 2024-yilda KATM kredit byurosiga **kredit axborotini yetkazib beruvchilar** soni 140 taga ko'payib, 2025-yil 1-yanvar holatiga **777 tani** tashkil etdi. Hozirda KATM kredit byuroosi tomonidan jami 60 dan ortiq turdagi kredit hisobotlari bank va nobank kredit tashkilotlariga taqdim etib kelinmoqda.

2.2.2.1-jadval

Kredit axboroti foydalanuvchilari soni

Tashkilotlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Tijorat banklari	30	32	33	31	35	35
Mikromoliya tashkilotlari	55	59	68	83	84	97
Lombardlar	60	62	70	80	84	92
Lizing tashkilotlari	3	5	8	20	31	36
Sug'urta tashkilotlari		1	1	4	8	11
Reteylar va boshqa tashkilotlar	13	70	175	261	388	502
Jami	161	229	355	479	630	773

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yil davomida bank va nobank tashkilotlar tomonidan KATM kredit byurosidan jami 106 166,9 mingta kredit hisobotlari olingan bo'lib, shundan 79 416,6 mingtasi (74,8%) tijorat banklari, 25 676,5 mingtasi (24,2%) nobank kredit tashkilotlar (*mikromoliya, lombard*), shuningdek, lizing, sug'urta, reteyl va boshqa tashkilotlar hamda 1 073,8 mingtasi (1,0%) jismoniy va yuridik shaxslar (*kredit axboroti subyektlari*) xissasiga to'g'ri keladi.

Kredit axboroti subyektlari bo'lgan aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun kredit tarixiga oid ma'lumotlarni masofadan turib onlayn tarzda olish amaliyoti takomillashtirib borildi.

Xususan, kredit axboroti sub'ektlariga o'zlarining kredit tarixini taqdim qilishni muzlatib qo'yish imkonini beruvchi yangi **"FREEZE"** xizmati ishga tushirildi, shuningdek, **"my.gov.uz"** platformasida **"FREEZE"** va **"SMS xabarnoma"** xizmatlarini faollashtirish hamda o'chirish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, 2024-yilda KATM kredit byurosining **mobil ilovasi** ishga tushirildi, ilova orqali kredit tarixiga oid ma'lumotlarni olish, scoring ball va kredit tarixi xaqidagi umumiy ma'lumotlarni bepul real vaqt rejimida (*onlayn*) kuzatib borish, **"FREEZE"** va **"SMS xabarnoma"** xizmatlarini faollashtirish va o'chirish, shuningdek turli xildagi to'lovlarni mobil ilova orqali amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Hisobot yilida **garov reyestrining** yangi interfeysi amaliyotga joriy qilinib, tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari, Soliq qo‘mitasi va davlat surishtiruv-tergov organlari ichki axborot-dasturiy tizimlari orqali garov reyestrining barcha xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Bank va nobank kredit tashkilotlari ushbu yaratilgan veb-xizmat orqali notarius axborot tizimi orqali ma’lumot olish, taqiq qo‘yish va yechish hamda IIV YHXBB axborot tizimidan ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Garov reyestri axborot tizimidan yozuv izlaganda holati (*aktiv yoki o‘chirilganligi*) yuzasidan ma’lumot taqdim etish va mavjud, o‘chirilgan yoki mavjud emasligi to‘g‘risida **QR-kodli ko‘chirmalar** berish amaliyoti joriy qilindi.

“Payme” to‘lov tashkiloti bilan garov reyestri ma’lumotlar bazasi integratsiya qilinishi orqali Garov reyestri xizmatlarid foydalanuvchilari uchun jismoniy shaxslardan to‘lovlarni qabul qilish imkoniyati kengaytirildi.

Garov reyestriga kiritilgan va o‘chirilgan yozuvlar to‘g‘risida mulk egalariining telefon raqamlariga SMS shaklida xabar yuborish amaliyoti joriy qilindi.

Shuningdek, Garov reyestri va **my.gov.uz** portali integratsiya qilinib, jismoniy va yuridik shaxslar uchun portal orqali garov reyestri bazasidan yozuv izlash imkoniyati yaratildi.

“Raqamli hukumat” tizimi (*Idoralararo integratsiyalashgan platformasi/Raqamli ma’lumotlar platformasi*) va “Garov reyestri” axborot tizimi o‘rtasida davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini manzilli, qisqa muddatlarda, masofadan turib hamda proaktiv tarzda olish imkoniyatini beruvchi integratsiya amalga oshirildi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish doirasida Xalqaro moliya korporatsiyasining ekspertlari yordamida garov reyestri faoliyati o‘rganilib, tizimda ma’lumotlar aniqligi, xizmatlar sifatini oshirish va yangiliklar joriy qilinishi yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Faktoring platformalari orqali garov reyestri axborot tizimidan foydalanish imkonini beruvchi veb-xizmat yaratildi.

KATM kredit byurosi foydalanuvchisi bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan garov reyestri axborot tizimidagi ko‘chirmalarni **infokredit.uz** sayti orqali olish maqsadida KATM kredit byurosi Garov reyestri axborot tizimiga integratsiya qilindi.

Maxsus texnika vositalariga nisbatan taqiq yoki xatlov mavjudligi va ushbu texnikaga oid boshqa muhim ma’lumotlarni olish bo‘yicha Garov reyestri axborot tizimini Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi axborot tizimiga 2025-yilda integratsiya qilish yuzasidan Kelishuv tasdiqlandi.

Garov reyestridan foydalanuvchilar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga **1 914** tani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 635 taga ko'paydi.

Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan garov mulkiga bo'lgan huquqlari to'g'risida garov reyestriga kiritilgan yangi yozuvlar soni **530 mingdan** oshgan bo'lsa, tijorat banklari tomonidan garov reyestri orqali Adliya vazirligining "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga **135 mingdan** ortiq garovdagi mol-mulkka taqiq qo'yilgan hamda **134 mingdan** ortiq mol-mulk holati to'g'risida ma'lumot berilgan.

Garov reyestri ma'lumotlar bazasida jami aktiv yozuvlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga qariyb **1,4 mln** tani tashkil etgan bo'lsa, mavjud yozuvlarga **45,8 mingdan** ortiq o'zgartirishlar kiritildi. Foydalanuvchilarga yozuvlar bo'yicha garov reyestridan **323 mingga** yaqin ko'chirmalar taqdim etilib, **724 mingdan** ortiq yozuvlar garov reyestridan chiqarilishiga erishildi.

2.2.3. Aholi omonatlarini kafolatlash tizimini takomillashtirish

Aholi omonatlarini o'z vaqtida to'liq qaytarilishini ta'minlash maqsadida ushbu mablag'larni sug'urtalash, omonatlarni kafolatlash tizimini raqamlashtirish jarayonlari bilan bir qatorda, ularning banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim sanaladi.

Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi "Xalqaro depozitlarni sug'urtalovchilar assotsiatsiyasi" (*IADI*), shuningdek ushbu assotsiatsiyaning Yevro Osiyo mintaqaviy qo'mitasi (*EARC*) Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy qo'mita (*APRC*) a'zosi sifatida ushbu xalqaro uyushma va uning qo'mitalari bilan faol hamkorlik olib bormoqda.

Fond tomonidan xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, xorijiy davlatlar bilan tajriba almashish va o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida 10 ta davlatning "**Depozitlarni sug'urtalash**" tashkilotlari bilan hamkorlik va anglashuv Memorandumlari imzolandi.

2024-yilda **Gruziya, Qozog'iston va Xorvatiya** davlatlarining depozitlarni sug'urtalash tashkilotlari bilan o'zaro anglashuv va hamkorlik memorandumlari imzolanib, **Hindiston, Azarbayjon, Belarus va Armanistonning** depozitlarni sug'urtalash tashkilotlari bilan o'zaro tajriba almashish va hamkorlik qilish borasida tegishli ishlar olib borilmoqda.

2024-yilda tijorat banklaridan Fondga kelib tushgan kalendar badallar miqdori 2023-yilga nisbatan qariyb 1,4 barobarga oshib, **904 mlrd** so'mni tashkil etdi.

Fond faoliyati davomida jami kelib tushgan kalendar badallar miqdori **2 922 mlrd** so'mga yetib, ushbu miqdor Fond reyestriga kiritilgan tijorat banklaridagi kafolatlangan jami omonatlar qoldig'ining **2,9** foizini tashkil etadi.

2024-yilda banklardan kelib tushgan kalendar badallar, olingan daromad va muddati tugaganligi sababli Fondga qaytarilgan mablag'lar hisobiga jami **3 471,5 mlrd so'mlik mablag' daromad keltiruvchi aktivlarga** shundan, 2 661,6 mlrd so'mi davlat qimmatli qog'ozlariga, 100 mlrd so'mi Ipotekani qayta moliyalash kompaniyasi obligatsiyalariga va 709,9 mlrd so'mi tijorat banklarining muddatli depozitlariga joylashtirildi.

2025-yil 1 yanvar holatiga Fondning jami mablag'lari 4 577,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Bunda, Fondning **investitsiya portfeli 4 564,2 mlrd so'mni** tashkil etib, shundan, 3 502,1 mlrd so'mi (76,7%) davlat qimmatli qog'ozlariga, 145 mlrd so'mi (3,2%) Ipotekani qayta moliyalash kompaniyasining obligatsiyalariga va 917,1 mlrd so'mi (20,1%) tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilgan.

Hisobot yilida tijorat banklariga qo'yilgan depozitlar ulushini kamaytirish maqsadida Fond mablag'larini davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirish choralari ko'rildi.

Natijada, 2024-yil boshida tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilgan mablag'lar jami investitsiyaning 35,8 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 20,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Fond tomonidan 2024-yilda **olingan daromad 646,4 mlrd so'mni** tashkil etib, shundan davlat qimmatli qog'ozlaridan 463,2 mlrd so'm, Ipotekani qayta moliyalash kompaniyasi obligatsiyalaridan 12,3 mlrd so'm va tijorat banklaridagi depozitlardan 170,9 mlrd so'm daromad olingan.

2.3. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyatining samaradorligi


Hisobot yilida aholi va tadbirkorlik subyektlarining mikromoliyaviy xizmatlariga bo'lgan talabining oshishi sharoitida mikromoliyaviy xizmatlarni ko'rsatuvchi yangi nobank kredit tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilishi va mikromoliyaviy xizmatlarning jozibadorligi hamda ommabopligini oshirish imkoniyatlari kengaytirib borildi.

2024-yil davomida mikromoliyaviy xizmatlar bozorida yangi ishtirokchi sifatida **16 ta** mikromoliya tashkiloti hamda **9 ta** lombard va ularning **151 ta** filiallari (*112 ta mikromoliya tashkiloti va 39 ta lombardlar*) tashkil etilib, ularning umumiy soni **192 taga**, shundan mikromoliya tashkilotlari **100 taga** (*filiallar soni 236 ta*) va lombardlar soni **92 taga** (*filiallar soni 71 ta*) yetdi.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tarkibida chel el kapitali mavjud bo'lgan mikromoliya tashkilotlari soni o'tgan yilga nisbatan 5 taga ortib, 2024-yilda **20 taga** (*12 ta mikromoliya tashkilotlari va 8 ta lombardlar*) yetgan.


2.3.1-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar bosh ofislari soni



2.3.2-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning filiallari soni




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bunda, faoliyat yuritayotgan mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning aksar qismi **Toshkent shahri** (44 ta mikromoliya tashkiloti va 47 ta lombard) va **Farg'ona** viloyati (19 ta mikromoliya tashkiloti va 4 ta lombard) hissasiga to'g'ri keladi.


2.3.3-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar bosh ofislarining hududlardagi taqsimoti



2.3.4-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning filiallari sonining hududlardagi taqsimoti




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan 2023-yilga nisbatan **85** foizga ko'p jami **16 trln so'm** miqdorida kreditlar ajratildi. Bunda, kreditlashning **89** foizi (**14,4 trln so'mi**) mikromoliya tashkilotlari va **11** foizi (**1,8 trln so'mi**) lombardlar tomonidan amalga oshirilgan.

2.3.5-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Kreditlash amaliyotlarining o'sish sur'ati o'tgan davrga nisbatan mikromoliya tashkilotlarida **104,5** foiz va lombardlarda **10** foizni tashkil etdi. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlarning **15,2** trln so'mi yoki **94** foizi jismoniy shaxslarga va **963** mlrd so'mi yoki **6** foizi yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

Ta'kidlash joizki, ajratilgan kreditlarning **54** foizini onlayn kreditlar tashkil etmoqda. Onlayn kreditlash sur'atlarining sezilarli oshishi moliyaviy ekotizmlarning (*Uzum*) rivojlanishi hamda nasiya va boshqa bo'lib to'lash savdo segmentining ommalashib borayotganligi bilan izohlanadi.

2.3.6-chizma

Ajratilgan onlayn va oflayn kreditlarning segmentatsiyasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatishga ruxsat berildi¹⁴. Bunda, “murobaha”, “islomiy ijara”, “salam”, “mushoraka” va “muzoraba” islomiy moliyalashtirish mexanizmlari orqali 2024-yilning avgust-dekabr oylarida **1,1 mlrd so'm** miqdorida resurslar ajratildi.

2.3.7-chizma

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid ko'rsatilgan xizmatlar hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorlari bo'yicha segmentatsiyasida 2024-yilda ajratilgan kreditlarning aksar qismi 46 foizi **10 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlarni, 20-50 mln so'mgacha bo'lgan kreditlar ulushi 25 foizni, 50-100 mln so'mgacha bo'lgan kreditlar ulushi 15 foizni va 10-20 mln so'mgacha bo'lgan kreditlar ulushi 14 foizni tashkil etgan.

Sezilarli o'sish tendensiyasi yirik miqdorda – **50-100 mln so'm** miqdorida ajratilgan kreditlar hajmida kuzatildi. Mazkur kreditlarning jami jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlardagi ulushi 2023-yildagi **5 foizdan 15 foizga** yetdi.


Mazkur holat jismoniy shaxslarga mikroqarzlar ajratishda mikroqarzlar summasining 50 mln so'mdan 100 mln so'mgacha oshirish bo'yicha qonunchilik talablariga kiritilgan o'zgartirishlar bilan izohlanadi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan mikrokreditlar miqdorlari segmentatsiyasida **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlarning ulushi **30 foizni**, 50 mln so'mgacha – 29 foizni, 100-200 mln so'mgacha – 25 foizni, 200-300 mln so'mgacha – ulushi 14 foizni va 300 mln so'mdan yuqori bo'lgan kreditlar ulushi 2 foizni tashkil etgan.

¹⁴ Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 3536, 2024-yil 26-iyul)

2.3.8-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda mazkur yuridik shaxslarga ajratilgan mikrokreditlar tarkibida 50-100 mln so'mgacha bo'lgan kreditlarning ulushi 2023-yildagi 51 foizdan 30 foizgacha qisqargan bo'lsa, 50 mln so'mgacha bo'lgan kreditlarning ulushi 4 foizdan 29 foizgacha sezilarli oshishi kuzatildi.

2.3.9-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2025-yil 1-yanvar holatiga mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning aktivlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,7 barobarga** ortib, **8,4 trln so'm** tashkil etdi. Bunda, **mikromoliya tashkilotlarining** aktivlari **1,8 barobarga** (**3,4 trln so'mga**) o'sib, **7,9 trln so'mga** va **lombardlar** aktivlari **1,5 barobarga** (**162 mlrd so'mga**) ko'payib, **498 mlrd so'mga** yetdi.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami aktivlarining **99 foizi** (**8 trln so'mi**) kredit qo'yilmalari hissasiga to'g'ri kelib, aktivlar o'sishi asosan kredit qo'yilmalarining **1,8 barobarga**, xususan mikromoliya tashkilotlarida **1,9 barobarga**, lombardlarda **1,5 barobarga** o'sishi hisobiga yuzaga kelgan.

2.3.10-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar aktivlari miqdori




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bunda, 2024-yil yakunida mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlarining barcha kredit tashkilotlar umumiy kredit qoldig'idagi ulushi **1,5 foizga** yetdi.

2.3.11-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kredit qo'yilmalari dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan **jismoniy shaxslarga** ajratilgan **mikroqarzlar** qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,8 barobarga** ortib, **7,1 trln so'mga**, **iste'mol** kreditlari hajmi esa **2,5 barobarga** oshib, **12,4 mlrd so'mga** yetgan bo'lsa, **tadbirkorlik subyektlariga** ajratilgan **mikrokreditlar** qoldig'i qariyb **2,1 barobarga** ko'payib, **379 mlrd so'mga**, lizing xizmatlari hajmi **8,5 barobarga** oshib, **93,1 mlrd so'mga** hamda faktoring xizmatlari hajmi **1,2 mlrd so'mga** oshib, **9,5 mlrd so'mga** yetdi.

2.3.12-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kredit turlari qoldig'i




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlarida muammoli kreditlar (*NPL*) 2024-yilda **2,4 foizni** (*qoldig'i 184 mlrd so'm*) hamda muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti (*NPL coverage ratio*) **57 foizni** tashkil etdi.

2.3.13-chizma

Muammoli kreditlar va ularni qoplash koeffitsiyenti




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami majburiyatlari 2 barobarga (2,7 trln so'mga) oshib, 5,5 trln so'mni tashkil etgan. Xususan, mikromoliya tashkilotlarining majburiyatlari 2 barobarga (2,6 trln so'mga) oshib, 5,4 trln so'mni, lombardlarda esa 3 barobarga (80 mlrd so'mga) ko'payib, 121 mlrd so'mni tashkil etgan.


2.3.14-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar majburiyatlari dinamikasi



2.3.15-chizma

Mikromoliya tashkilotlari majburiyatlar tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Mikromoliya tashkilotlarining jami majburiyatlari 2025-yil 1-yanvar holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97 foizga oshib, 5,4 trln so'mni tashkil etdi. Uning 16 foizi ta'sischiilar, 47 foizi tijorat banklari, 7 foizi xalqaro moliya institutlari, 14 foizi mahalliy kompaniyalardan, 2 foizi obligatsiyalarni joylashtirish va 14 foizi boshqa majburiyatlardan shakllangan.

Bunda, jalb etilgan mablag'larda ta'sischiilar mablag'lari 1,9 barobar (397 mlrd so'm), tijorat banklari resurslari 2 barobar (1 283 mlrd so'm), xalqaro moliya institutlari mablag'lari 1,7 barobar (154 mlrd so'm), mahalliy kompaniyalardan jalb etilgan mablag'lar 3,2 barobar (516 mlrd so'm) va obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'lar 2,9 barobarga (72 mlrd so'm) oshgan.


Lombardlarning jami majburiyatlari 2025-yil 1-yanvar holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 194 foizga oshib, 121 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, uning 64 foizi ta'sischiilar, 18 foizi tijorat banklaridan jalb etilgan mablag'lar va 18 foiz boshqa majburiyatlar hisobidan shakllangan.

Bunda, lombardlar jami majburiyatlari tarkibida ta'sischiilar mablag'lari 2,4 barobarga (45 mlrd so'm), tijorat banklari resurslari 4,6 barobarga (17 mlrd so'm) hamda mahalliy kompaniyalardan jalb etilgan mablag'lar 5,4 barobarga (19 mlrd so'm) oshgan.

2.3.16-chizma

Lombardlar majburiyatlari tarkibi

2.3.17-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapital dinamikasi

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapitali o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 barobarga (847 mlrd so'm) ko'payib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 2,9 trln so'mga yetgan. Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali 1,4 barobarga (764 mlrd so'm) oshib, 2,5 trln so'mni va lombardlarda 1,3 barobarga (83 mlrd so'm) oshib, 378 mlrd so'mni tashkil etgan.

Mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali o'sishida ustav kapitalining 443 mlrd so'mga (54%), foydaning 158 mlrd so'mga (23%), taqsimlanmagan foydaning 122 mlrd so'mga (72%) hamda zaxira kapitalining 41 mlrd so'mga (70%) oshishi hisobiga ta'minlangan.


Lombardlarda mazkur o'sish foydaning 47 mlrd so'mga (39%), taqsimlanmagan foydaning 33 mlrd so'mga (54%), ustav kapitalining 14 mlrd so'mga (15%) o'sishi hisobiga yuzaga kelgan.

Shuningdek, 2024-yilda o'tgan yilga nisbatan mikromoliya tashkilotlari jami ustav kapitali tarkibida xorijiy kapitalining ulushi 9,1 foizdan 8,9 foizga (112 mlrd so'm) pasaygan bo'lsa, lombardlarda 16,8 foizdan 17,3 foizga (18 mlrd so'm) oshgan.

2024-yilda mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning yalpi daromadlari 3,4 trln so'mni, yalpi xarajatlari 1,5 trln so'mni tashkil etib, jami 1 trln so'm miqdorida sof foyda olingan.


2.3.18-chizma

Ustav kapitalida xorijiy kapitali mavjud mikromoliya tashkilotlari



2.3.19-chizma

Ustav kapitalida xorijiy kapitali mavjud lombardlar




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlarida yalpi daromadlar 3 trln so'mni, yalpi xarajatlar 1,4 trln so'mni va sof foyda 833 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, lombardlarning daromadlari va xarajatlari mos ravishda 354 mlrd so'mni va 138 mlrd so'mni tashkil etib, 170 mlrd so'm miqdorida sof foyda olingan.

2.3.20-chizma

Mikromoliya tashkilotlarining kreditlardan olingan foizli daromadlarini jami daromaddagi ulushi dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlarining foizli daromadlari jami daromadlarning 70 foizini tashkil etib, uning 99,3 foizi ajratilgan kreditlar (*moliyaviy xizmatlar*) hisobiga shakllangan.

Mikromoliya tashkilotlar jami xarajatlari tarkibida foizsiz xarajatlar 10 foizni, operatsion xarajatlar 44 foizni va foizli xarajatlar 46 foizni tashkil etgan. Lombardlar jami xarajatlari tarkibida foizsiz xarajatlar 11 foizni, operatsion xarajatlar 81 foizni va foizli xarajatlar 8 foizni tashkil etadi.

2.3.21-chizma

Mikromoliya tashkilotlarining foizli daromadlari tarkibidagi moliyaviy xizmat turlari bo'yicha daromadlari dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Mikromoliya tashkilotlari tomonidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali olinayotgan foizli daromatlarda ko'rsatilayotgan xizmatlarlar segmentatsiyasi ulushida miqroqarzlarning ulushi **97-99** foiz oralig'ida shakllangan.

2024-yilda mikromoliya tashkilotlarida **aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA)** o'tgan yilga nisbatan **9** foiz bandga kamayib, **19,4** foizni tashkil etgan.

Shuningdek, **kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE)** o'tgan yilga nisbatan **23,7** foiz bandga kamayib, 2025-yilning 1-yanvar holatiga **40,5** foizga yetgan.

2.3.22-chizma

Mikromoliya tashkilotlarining rentabellik ko'rsatkichlari dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami o‘rtacha aktivlari hamda kapitali bir yil davomida mos ravishda 2 barobar va 1,5 barobarga oshgan bo‘lsa, sof foyda ushbu davrda 34 foizga oshgan.

2.3.23-chizma

Lombardlarning rentabellik ko‘rsatkichi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2025-yil 1-yanvar holatiga lombardlarda ROA ko‘rsatkichi **55,6** foiz va ROE ko‘rsatkichi **52,0** foizni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichlar joriy yilning o‘tgan davrida mos ravishda 56-59 va 49-54 foiz oralig‘ida shakllangan.

2.4. Kredit va to‘lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

2.4.1. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

2024-yilda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishga oid qonunchilik hujjatlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bilan bir qatorda, to‘lovga qobiliyatsiz banklarni moliyaviy barqarorlikka putur yetkazmagan holda bozordan chiqarish mexanizmlarini yaratish bo‘yicha ishlar davom ettirildi.

Xususan, Markaziy bank tomonidan bank tizimi barqarorligini ta’minlash, shu jumladan barqarorlikka xavf soluvchi omillarni kamaytirishga yo‘naltirilgan **makroprudensial siyosat instrumentlari** takomillashtirilib borildi.

Bunda, jismoniy shaxslarga mikroqarz ajratilishida qarz yuki ko‘rsatkichini (*DSTI*) hisoblash tartibi 2024-yilning 1-iyulidan boshlab **barcha turdagi kreditlar** ajratilishida tatbiq etildi. Shu bilan birgalikda, bank tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan barcha kreditlar va mikroqarzlarning sonining eng ko‘pi bilan **15** foizigacha bo‘lgan miqdorida qarz yuki ko‘rsatkichi hisoblanmasligi yoki inobatga olinmasligi mumkinligi qayd etildi.

Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablarga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali banklarning o'zini **o'zi band qilgan shaxslar** va **kichik tadbirkorlik subyektlarini** kreditlash imkoniyatlari kengaytirildi. Bunda, mazkur qarz oluvchilarga banklar tomonidan mikromoliyalashtirish faoliyati doirasida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha **tavakkalchilik darajalari** 100 foizdan 75 foizgacha tushirildi.

Shuningdek, kapital monandligi hisob-kitobida tavakkalchilik darajalari jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari va avtokreditlar bo'yicha **qarz yuki ko'rsatkichi (DSTI)** va **kredit summasining ta'minot (garov) summasiga nisbati (LTV)** asosida, boshqa kreditlar bo'yicha qarz yuki ko'rsatkichi (DSTI) asosida o'rnatilishi belgilandi.

Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanishga oid talablarga Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hamda Bazel qo'mitasi tavsiyalari asosida o'zgartirishlar kiritildi. Bunda, aktivlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik so'ndirilganda va ular bo'yicha to'lovlar kechiktirilmasdan amalga oshirilganda **bosqichma-bosqich yaxshilanishiga** oid tegishli normalar kiritildi.

Bundan tashqari, faktoring xizmatlari ko'lami kengayishini rag'batlantirish maqsadida bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilik hisob-kitobida mazkur xizmatlar bo'yicha tavakkalchilikning eng ko'p miqdori bank **birinchi darajali kapitalining 25 foizigacha** oshirildi.

Shuningdek, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar jozibadorligini oshirish maqsadida mazkur tashkilot tomonidan chiqarilgan **korporativ obligatsiyalar** yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritildi.

Bank faoliyatini belgilovchi qonunchilik me'yorlarini yangi bank xizmatlari va amaliyotlarini huquqiy talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish borasida ham bir qator ishlar qilindi.

Moliyaviy barqarorlik kengashi (MBK) standartlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan **"Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"**gi qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritildi.

Mazkur qonun loyihasida banklarni sanatsiya qilish maqsadlari va prinsiplari, sanatsiya qilish vositalari, sanatsiya qilishni moliyalashtirish mexanizmlari, Markaziy bankning sanatsiya qilish bo'yicha vakolatlari, banklarni ixtiyoriy va majburiy tugatish tartibi, shuningdek Moliyaviy barqarorlik kengashi faoliyati bilan bog'liq qoidalar belgilanmoqda.

Shu bilan birga, mikromoliyalashtirish sohasini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, hududlarda moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Jumladan, **“Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”**gi Qonunga jismoniy shaxslarga ajratiladigan mikroqarzning eng ko‘p miqdorini 50 mln so‘mdan 100 mln so‘mgacha oshirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi qabul qilindi.

Bundan tashqari, yetarli salohiyatga ega mikromoliya tashkilotlarining tijorat bankiga bosqichma-bosqich o‘shirish imkonini yaratish maqsadida Markaziy bank tomonidan **“Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”**gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi.

Mazkur Qonunda mikromoliya banki institutini joriy etilishi rejalashtirilayotgan bo‘lib, mazkur kredit tashkiloti ayrim cheklovlarni inobatga olgan holda bank faoliyatini amalga oshiradi va mikromoliya tashkiloti hamda tijorat banki o‘rtasidagi zanjirni bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi.

Bunda, joylardagi moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, shuningdek faoliyatini kichik va o‘rta biznes loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirish maqsadida mikromoliya banki bank faoliyatini quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshiradi:

- jismoniy shaxslardan kafolatlangan omonat miqdoridan oshmagan miqdorda omonatlar jalb qilish;

- 5 mlrd so‘mdan oshmagan miqdorda kreditlar ajratish.

Shuningdek, mikromoliya banki ustav kapitalining eng kam miqdori **50** mlrd so‘mni va uning kredit portfelida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlarning ulushi **70** foizni tashkil etishi lozim.

Hisobot yilida tijorat banklarida bank operatsiyalari bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirishda shaffoflikni ta’minlash va bank operatsiyalar hisobini alohida yuritish, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (*MHXS*) o‘tishni tezlashtirish yo‘nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, tijorat banklarida buxgalteriya hisobining “hisobvaraqlar rejasi”ni *MHXS*ga muvofiqlashtirish maqsadida quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan:

- o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga ajratilgan kreditlar hisobini alohida olib borish maqsadida o‘zgartirishlar kiritildi;

– Kredit axboroti davlat reyestrda haqqoniy ma'lumotlarni shakllantirish, tahlil va nazorat qilish hamda tijorat banklari balansidagi aktivlar, ularga hisoblangan foizlar va boshqa foizsiz daromadlar, garovga olingan mol-mulk va boshqa huquqlar hisobini tartibga solish hamda kredit, lizing, faktoring bilan bog'liq operatsiyalarni boshqa aktivlar bo'yicha operatsiyalardan hisobini alohida yuritish maqsadida o'zgartirishlar kiritildi;

– “Eskirgan” toifadagi chel el valyutalari mijozlar tomonidan banklarga taqdim etish orqali, bank tomonidan tegishli valyuta toifasi bo'yicha emitent davlatga belgilangan tartibda topshirish imkoniyati yaratildi. Shuning uchun “eskirgan” toifadagi naqd pullar nafaqat Markaziy bankka (*so'm faqat Markaziy bankka*), balki Tijorat bankkalariga (*valyutalar esa Markaziy bankka yoki tijorat bankiga*) ham topshirishi mumkinligidan kelib chiqqan holda tahririy o'zgartirildi.

2024-yilda Markaziy bank tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzgan banklarga nisbatan ayrim operatsiyalarini to'xtatish, **jarima sanksiyalari** va boshqa ta'sirchan choralar qo'llanib borildi.

Xususan, 2024-yilda Markaziy bankning Bank nazorati qo'mitasi qarorlariga asosan **28 ta** tijorat banklari va **24 ta** mikromoliya tashkilotlaridan jami **16,6** mlrd so'm miqdorida jarimalar undirildi.

Bunda, mazkur jarimalarning:

– **9,9** mlrd so'mi yoki **59,6** foizi iqtisodiy me'yorlar talablari bajarilmaganligi uchun (*23 ta bankka nisbatan*);

– **1,8** mlrd so'mi yoki **10,8** foizi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha o'rnatilgan talablar buzilganligi uchun (*6 ta bankka nisbatan*);

– **1** mlrd so'mi yoki **6** foizi banklar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilinmaganligi uchun (*7 ta bankka nisbatan*);

– **1,7** mlrd so'mi yoki **10,2** foizi valyuta sohasidagi qonunchilik talablari buzilishi, kiberxavfsizlik va transchegaraviy operatsiyalar bo'yicha talablarga rioya etmaslik, Markaziy bankka haqqoniy bo'lmagan (*noto'g'ri*) ma'lumotlar taqdim etish hamda bank xizmatlari iste'molchilari huquqlari buzilishi uchun (*19 ta bankka nisbatan*) undirilgan.

Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablari ta'minlanmaganligi, valyuta mavqeiga o'rnatilgan me'yorlarga rioya qilinmaganligi hamda Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan o'rnatilgan talablar buzilishi sababli **23 ta** banklarga nisbatan **ogohlantirish** hamda **6 ta** bankka nisbatan omonatlar jalb qilish, kreditlar (*lizing, faktoring, pul mablag'lari bilan qoplanmagan akkreditivlar ochish va kafolatlar*) berish amaliyotlariga **vaqtinchalik cheklov o'rnatish** bilan bog'liq ta'sir choralari qo'llanildi.

Shuningdek, vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning bank moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sirini kamaytirish, ularda makroprudensial buferlar shakllanishini ta'minlash maqsadida, **oldindan chora ko'rish doirasida** bank aksiyadorlariga oddiy aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash orqali foydani taqsimlash uchun **23 ta** bankka nisbatan **taqiqlash choralari qo'llanildi**.

2.4.2. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

Hisobot yilida nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirilib, bozor munosabatlarining yanada kengayishi sharoitida tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil vositalarini ishlab chiqishga, xususan, tadbirkorlik loyihalariga kafolat (*kafillik*) yordamini taqdim etish ko'lamini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu maqsadda, Markaziy bank tomonidan **“Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”**gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritildi.

Mazkur Qonun loyihasi bilan tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kredit, lizing va akkreditivlarga kafolat (*kafillik*) berish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxs – kafolatlar berish tashkilotini joriy etish hamda uni nobank kredit tashkilotlari qatoriga kiritish nazarda tutilgan.

Mazkur qonun loyihasi bilan nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga qo'yilgan ayrim cheklovlar ham yumshatilmoqda. Xususan:

- nobank kredit tashkilotlariga jismoniy shaxs bo'lgan ta'sischilaridan amaldagiga nisbatan 2 baravar ko'p miqdorda qarz mablag'larini jalb qilishga ruxsat berilmoqda;

- nobank kredit tashkiloti ustav fondidagi 10 foizlik ulushni olishda Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olish talabi 20 foizga oshirilmoqda. Bunda, 10 foizdan 20 foizgacha bo'lgan ulushni olishda Markaziy bankni xabardor qilish tartibi joriy etilmoqda;

- mikromoliya tashkilotlariga tegishli litsenziya olgan holda to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish, shuningdek yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmat ko'rsatish vakolati berilmoqda.

Shuningdek, “Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida”gi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, bunda:

– O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-914-son qonunining 1-moddasiga asosan mazkur yo‘riqnomaning 46 va 48-bandlariga, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 248-moddasida belgilangan tartibda qoplanishi kiritildi;

– o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga ajratilgan kreditlar hisobini alohida olib borish maqsadida alohida hisobvaraqlar kiritildi;

– nobank kredit tashkilotlari tomonidan hisoblangan foizlar bo‘yicha zaxiralar shakllantirish hamda hisobini yuritish maqsadida yangi hisobvaraqlar bilan to‘ldirildi;

– amaliyotdan kelib chiqib, saqlovga qabul qilingan qimmatbaho buyumlar hisobini alohida olib borish maqsadida hisobvaraqlar kiritildi.

Hisobot yilida mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyati ustidan **masofadan nazorat** tadbirlari amalga oshirilib, o‘rganish natijalariga prudensial normativlarga amal qilish holatlari yuzasidan ma’lumotlar **Bank nazorati qo‘mitasi muhokamasiga kiritib borildi.**

2024-yil davomida Bank nazorati qo‘mitasining tegishli qarorlariga muvofiq jami **30 ta mikromoliya tashkiloti** hamda **5 ta lombardga** tegishli choralar ko‘rildi.

Xususan, **tekshirish** natijalariga ko‘ra **1 ta** mikromoliya tashkilotining aktiv amaliyotlari **3 oy muddatga cheklash**, **5 ta** mikromoliya tashkiloti va **3 ta** lombardga jami **492 mln so‘m** miqdorida **jarima** hamda **2 ta** mikromoliya tashkilotiga nisbatan **ogohlantirish** choralari qo‘llanildi.

Masofadan o‘rganish natijalariga ko‘ra **1 ta** mikromoliya tashkilotining aktiv amaliyotlari **3 oy muddatga cheklash**, **11 ta** mikromoliya tashkilotiga jami **170 mln so‘m jarima** hamda **10 ta** mikromoliya tashkiloti va **2 ta** lombardga nisbatan **ogohlantirish** choralari qo‘llanildi.

Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyatida moliyaviy va nazoratga oid hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha **metodik tavsiya** ishlab chiqildi.

To‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov tashkilotlari faoliyati

To‘lov tizimlarining ishlashi ustidan nazoratni amalga oshirish doirasida **3 ta** to‘lov tashkiloti faoliyati tekshiruvdan o‘tkazildi. Tekshiruv natijasida aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan ogohlantirishlar berildi hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan 2024-yilda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzgan to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlariga nisbatan ayrim to'lov xizmatlarini vaqtincha to'xtatish, jarima sanksiyalari va boshqa ta'sirchan choralar qo'llanib borildi.

Jumladan, to'lov tizimlariga oid qonunchilik talablarini buzganligi uchun **1 ta** to'lov tashkilotidan **1 ta** holat uchun **100 mln** so'm miqdorida jarima undirildi.

To'lov tizimlariga oid qonunchilik talablarini buzganligi uchun **1 ta** to'lov tizimi operatori va **1 ta** to'lov tashkiloti faoliyatiga cheklovlar o'rnatildi, xususan:

– litsenziya olingan kundan e'tiboran bir yil davomida to'lov tizimi operatori faoliyati amalga oshirilmagani, “to'lov tizimi operatori faoliyatini amalga oshirish (*boshlash*)” to'g'risidagi ko'rsatmalarini bajarmagani, faoliyatida ruxsat etilmagan to'lovlar o'tkazilishiga yo'l qo'ygani uchun to'lov tizimi operatorining ayrim xizmatlarini ko'rsatishga;

– aniqlangan qoidabuzarlikni bartaraf etish bo'yicha yuborilgan tavsiyalarga amal qilmaganligi sababli to'lov tashkilotining ayrim to'lov xizmatlarini ko'rsatishga **olti oy muddatga cheklov o'rnatildi**.

To'lov tashkilotlari faoliyatiga litsenziya olingan kundan e'tiboran **bir yil davomida** faoliyat ko'rsatmaganligi va faoliyatini **olti oydan ortiq** davrga to'xtatganligi munosabati bilan **1 ta** to'lov tashkilotining, shuningdek, qonun talabini bir marta qo'pol tarzda buzganligi (*ruxsat etilmagan to'lovlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratganligi*) uchun **1 ta** to'lov tashkilotining faoliyatini olib borish huquqini beruvchi litsenziyalari chaqirib olindi.

6-havola

Markaziy bankning bank nazorati qo'mitasining 2024-yildagi faoliyati

Bank nazorati qo'mitasi tomonidan Markaziy bankning nazoratga oid vazifalari ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yil davomida **84 ta** yig'ilish o'tkazilgan bo'lib, ularda jami **418 ta**, shu jumladan **ruxsat berish tartiboti** bilan bog'liq – **284 ta** va **banklarning moliyaviy holati** bilan bog'liq – **134 ta** masala muhokama qilindi.

Ruxsat berish tartiboti masalasida:

– tijorat banklari kuzatuv kengashi va boshqaruvi a'zolari hamda muhim ahamiyatga ega xodimlarining nomzodlarini ko'rib chiqish bo'yicha 123 ta;

– kredit tashkilotlari ustaviga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha 64 ta;

– tashkiliy-huquqiy shakliga qo'yilgan talablarga moslashtirilgan to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlariga litsenziyalarini qayta rasmiylashtirish bo'yicha 42 ta;

– kredit tashkilotlari ustavidagi ulushga egalik qilishga ruxsat berish bo'yicha 22 ta;

– to'lov tizimi operatori va to'lov tashkilotlarini litsenziyalash va chaqirib olish bo'yicha 9 ta;

– mikromoliya tashkilotlarini hisob-ruyxatdan o'tkazish bo'yicha 13 ta, auditorlarga malaka sertifikatini berish bo'yicha 9 ta hamda chet el banklariga vakolatxona ochishga ruxsat berish bo'yicha 2 ta masalalar muhokamasi bo'lib o'tdi.

Banklarning moliyaviy holati yuzasidan:

– Markaziy bank talablarining bajarilishi yuzasidan masofaviy va joyida o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha 79 ta;

– kredit tashkilotlari tomonidan prudensial normativlarning bajarilish holati bo'yicha 14 ta;

– subordinar qarzlarni muddatidan oldin qaytarishga ruxsat berish, maqbul bo'lgan banklar va tizimli ahamiyatga ega banklar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha 7 ta;

– taqiqni bekor qilish va cheklov o'rnatish hamda ayrim xizmatlarni autsorsinga berish bo'yicha 6 ta;

– o'rganishlar o'tkazishni tayinlash bo'yicha 9 ta, banklar foydasini taqsimlash, prudensial nazorat dasturini tasdiqlash va qo'mdon dirasida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ruxsat berish kabi 19 ta masalalar muhokama qilindi.

Bundan tashqari, Bank nazorati qo'mitasining tegishli qarori bilan **7 ta bank 2025-yil uchun tizimli ahamiyatga molik banklar** sifatida belgilandi.

2.4.3. Kredit va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasini tartibga solish va nazorat qilish

Markaziy bank 2024-yilda banklar, nobank kredit tashkilotlari hamda to'lov tashkilotlarining ichki nazorat qoidalariga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish (*keyingi o'rinlarda JDL va TM*) bilan bog'liq shubhali operatsiyalar bo'yicha axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring hamda nazoratni ta'minlash yuzasidan tizimli ishlarni davom ettirdi.

Mazkur jarayonlarda sohaga oid tavakkalchiliklarni aniqlash, ularni minimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda tizimning ishlash samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan risklarni sektoral baholash jarayoni davom ettirilib, bank, nobank kredit tashkilotlari hamda to'lov tashkilotlarida sohaga oid risklarni baholash ishlari amalga oshirildi. Bunda, asosiy e'tibor sektorlardagi yuqori riskli mahsulot va xizmatlar, realizatsiya qilish kanallari va mijozlar turlarini aniqlash bilan birgalikda sohaga oid mavjud tahdidlarni hamda ularni amalga oshirish uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan zaifliklarni chuqur tahlil qilishga hamda har bir sektorning JDL va TM bo'yicha sof risk darajasini aniqlashga qaratildi.

Baholash doirasida nazorat ostidagi sektorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, mijoz turlari, mahsulot va xizmatlar hamda ularni amalga oshirish kanallari bo'yicha ma'lumotlar jamlanib, tahlil qilinib, risklarni kamaytirish bo'yicha banklar va to'lov tashkilotlari uchun tavsiyalar ishlab chiqildi va joriy etildi.

Sektorlardagi yuqori riskli mahsulot va xizmatlar, realizatsiya qilish kanallari va mijozlar turlarini aniqlashda faqatgina ularning o'ziga xos xususiyatlariga tayanilgan holda baholanishi nazorat ostidagi tashkilotlarga aniqlangan yuqori riskli mahsulot va xizmatlar, realizatsiya qilish kanallari va mijozlar turlariga nisbatan o'zlarining ichki hujjatlarida belgilangan preventiv choralarni inobatga olgan holda mustaqil baholashni o'tkazish imkonini berib, ichki zaifliklarni mustaqil aniqlashda boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Hisobot yilidagi risklarni sektoral baholash natijasida bank mahsulotlari va xizmatlaridan naqd pul operatsiyalari, elektron to'lov vositalari hamda xalqaro pul o'tkazmalari eng yuqori xavf darajasiga ega deb baholandi.

Xususan, mijozlarning bank hisobvaraqlariga naqd pul mablag'larini kiritishi, xorijiy elektron hamyonlar orqali tranzaksiyalar, jismoniy shaxslar o'rtasidagi kartadan-kartaga pul o'tkazmalar (*P2P operatsiyalar*), yuridik shaxslarning hisobvarag'idagi pul mablag'larini noqonuniy naqdlashtirish, xalqaro pul o'tkazmalarini qabul qilish va jo'natish operatsiyalari JDL va TM maqsadida foydalanish ehtimoli yuqori bo'lgan operatsiyalar sifatida qayd etildi.

Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari, ulardan foydalanishda haqiqiy foydalanuvchini aniqlash imkoniyatlarini chegaralanganligi va natijada ulardan nominal shaxslar tomonidan foydalanish ehtimoli yuqori bo'lganligi sababli yuqori tavakkalchilik toifasiga kiritildi.

Baholash jarayonida sektorlar bo'yicha asosiy tahdid va zaifliklar ham aniqlanib, ular bilan bog'liq risklarni minimallashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda, nazorat ostidagi tashkilotlarga quyidagi yo'nalishlarga asosiy urg'u berish yuzasidan ko'rsatmalar berildi:

- JDL va TM riski yuqori bo'lgan mamlakatlar bilan operatsiyalar;
- mijozlarning pul mablag'larining manbalarini o'rganish;
- benefitsiar mulkdorlarini aniqlash va o'rganish bo'yicha tartib-taomillarning to'liqligini ta'minlash;
- shubhali operatsiyalarni aniqlash mezonlarini takomillashtirish;
- mijozlarning risk profilini batafsil baholash va yuqori xavfli tranzaksiyalar bo'yicha monitoring tizimlarini kuchaytirish.

Qayd etish lozimki, risklarni baholash natijalari Markaziy bankning va uning nazorati ostidagi tashkilotlarning sohaga oid risklarni tushunish darajasini yanada oshirishga xizmat qilib, nazorat hamda preventiv choralarni amalga oshirishda resurslarni samarali aniqlash, taqsimlash va ulardan foydalanish ustuvorligini belgilash, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishning monand mexanizmlarini shakllantirish va ularni aktual holatda ushlab turish imkonini beradi.

2023-yildagi baholash natijalari bo'yicha Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank, nobank va to'lov xizmatlari sektorlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq risklarni baholash natijalari to'g'risidagi hisoboti" tasdiqlanib, aniqlangan risklarni minimallashtirish doirasida Markaziy bank tomonidan 2024-yilda 4 ta tavsiyaviy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Xususan, 2024-yilda Markaziy bank tomonidan:

Tijorat banklarining, nobank kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish faoliyatiga doir;

Banklar, nobank kredit tashkilotlari va to'lov tashkilotlari uchun mijozning benefitsiar mulkdorini aniqlash;

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish sxemalarini aniqlash uchun kompleks tahlil o'tkazish;

Yuridik shaxslarning pul mablag'larini noqonuniy naqdlashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash va boshqa yuridik shaxslarga pul mablag'larini noqonuniy ravishda naqdlashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslarni aniqlash bo'yicha tavsiyaviy qo'llanmalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

O'z navbatida, mazkur qo'llanmalar asosida terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini, mijozlarning benefitsiar mulkdorlarini, JDL va TM sxemalarini, yuridik shaxslarning hisobvarag'idan pul mablag'larini noqonuniy naqdlashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash va oldini olish choralari samarasi oshirildi. Banklarga mijozlarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha risk profilini baholash tizimini joriy etish yuklatildi va yuqori xavfli operatsiyalarni aniqlash va monitoring qilish choralari kuchaytirildi.

Ushbu qo'llanma asosida tijorat banklarida nazorat qilish tartib-qoidalari takomillashtirildi, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan shubhali operatsiyalarni aniqlash va monitoring qilish bo'yicha mezonlar ishlab chiqildi va nazorat tadbirlarida aniqlangan kamchiliklarni oldini olish uchun banklarga tavsiyalar berildi.

Hisobot yilida risk profili bo'yicha tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan 6 ta tijorat bankida joyiga chiqqan holda tekshirishlar masofaviy monitoring, risk profilini baholash jarayonida yuqori riskni tashkil etgan operatsiyalar va mijozlar bo'yicha, shuningdek mahsus vakolatli davlat organining taqdimnomalari asosida 21 ta tijorat banki, 10 ta to'lov tashkiloti va 2 ta to'lov tizimi operatorida sohaga oid masalalar yuzasidan masofadan nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha tegishli xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan 10 ta tijorat banki va 7 ta to'lov tashkilotiga nisbatan jarima chorasi, shuningdek, 20 ta tijorat banki, 2 ta to'lov tizimi operatori hamda 6 ta to'lov tashkilotiga nisbatan kelgusida kamchiliklar aniqlangan taqdirda qat'iy choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirish bilan bog'liq choralar qo'llanildi.

Markaziy bank, Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 23-yanvardagi 16-sonli qaroriga muvofiq, "Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risidagi Bitimdan" kelib chiquvchi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlamoqda.

Hususan, 2024-yilda Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi Kotibiyatining taklifiga asosan Markaziy bank vakillari ishchi guruh umumiy yig'ilishlarida ishtirok etdilar. Ushbu tadbirlarda moliyaviy xavfsizlik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash va xalqaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shu bilan birga, xisobot yilida Markaziy bank xodimlarining Yevroosiyo guruhi ekspert-baholovchilarni tayyorlash dasturi va forumida ishtiroki ta'minlanib, Markaziy bank xodimlarining malakasi oshirildi va ularning ikki nafari ekspert-baholovchi sertifikatini oldi.

2.5. Faktoring operatsiyalarini rivojlantirish borasidagi faoliyat

Hisobot yilida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ko'char aktivlarga asoslangan instrumentlarini rivojlantirish orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda moliyalashtirish operatsiyalaridan foydalanishning yangi mexanizmi – faktoring tizimi etildi.


2024-yil sentabr oyidan boshlab elektron raqamli faktoring platformalar faoliyati yo'lga qo'yilib, unga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari banklariga tashrif buyurmagan holda, faktoring xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo'ldi.

Natijada, bugungi kunda **4 ta, Oz planet, Finmakon, Factoring.uz** va **V2** elektron faktoring platformalari faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga **26 ta** tijorat banklari ulanishi ta'minlandi.

2024-yilda amalga oshirilgan faktoring xizmatlari hajmi **1,9 trln so'mga** yetib, shundan **1,6 trln so'mi (85%)** tijorat banklari va **0,3 trln so'm (15%)** mikromoliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi. Bunda, jami ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining **58 foizi** yoki **1,1 trln so'mi elektron faktoring platformalari** orqali amalga oshirildi.


2.5.1-chizma

Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi



2.5.2-chizma

Faktoring xizmatlari hajmi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda ko'rsatilgan faktoring xizmatlari banklar kesimida **Asaka bankda** 561 mlrd so'mni (*shundan, elektron platforma orqali 151 mlrd so'm*), **O'zmilliybankda** 304 mlrd so'mni (*270 mlrd so'm*), **O'zsanoatqurilishbankda** 162 mlrd so'mni (*122 mlrd so'm*), shuningdek **xususiy banklarda** jami 348 mlrd so'mni (*342 mlrd so'm*), jumladan **Kapital bankda** 96 mlrd so'mni (*96 mlrd so'm*), **Anor bankda** 50 mlrd so'mni (*50 mlrd so'm*) tashkil etdi.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ham ushbu davrda jami 277 mlrd so'mlik debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirildi.

2.5.3-chizma

Kredit tashkilotlari kesimida 2024-yilda ko'rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hududlar kesimida 2024-yilda ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining asosiy qismi Toshkent shahrida **1,4 trln so‘m (76%)**, Navoiy viloyatida **160 mlrd so‘m (8,6%)**, Farg‘ona viloyatida **120 mlrd so‘m (6,5%)** va Xorazm viloyatiga **31 mlrd so‘m (1,7%)** to‘g‘ri keladi.

2.5.4-chizma

Ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining hududlar kesimida taqsimlanishi




Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

Kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi 2024-yilning ikkinchi yarmida, xususan, noyabr–dekabr oylarida sezilarli o‘sish kuzatilgan bo‘lib, dekabr oyida **630 mlrd so‘m** bilan eng yuqori ko‘rsatkichga erishilgan.

2.5.5-chizma

Kredit tashkilotlari tomonidan 2023-2024-yillarda faktoring xizmatlarining oylik dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli bo‘yicha ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining taqsimotida eng yuqori ulush mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarga – **1,3 trln so‘m** yoki **68 foiz** miqdorida faktoring xizmatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga **360 mlrd so‘mni (19%)** tashkil etgan.

2.5.6-chizma

Faktoring xizmatlari korxonalar tashkiliy shakli bo'yicha tahlili




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ko'rsatilgan faktoring xizmatlar taqsimotida **30** foizi 121 kundan 180 kungacha, **23** foizi – 61 kundan 90 kungacha, **21** foizi – 30 kungacha, **16** foizi – 31 kundan 60 kungacha hamda **10** foizi – 91 kundan 120 kungacha bo'lgan muddatlarga ajratilgan.

2.5.7-chizma


Faktoring xizmatlari muddatlari bo'yicha tahlili



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2.5.8-chizma

Faktoring xizmatlari ko'rsatilgan iqtisodiyot sohalari bo'yicha taqsimoti



Faktoring xizmatlari iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltirilgan bo'lib, ularning asosiy qismi **savdo** va **xizmat ko'rsatish** sohasiga **833** mlrd so'm (**48%**) hamda **sanoat** sohasiga **800** mlrd so'm (**42%**)ni tashkil etadi.

Shuningdek, boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich faktoring xizmatlari kirib kelayotgan bo'lib, xususan, **qurilish** va **qishloq xo'jaligi** sektorlarida mos ravishda **109** mlrd so'mlik (**6%**) va **69** mlrd so'mlik (**4%**) debitorlik qarzdorliklari moliyalashtirildi.

III. MARKAZIY BANKNING PUL-KREDIT, VALYUTA VA KOMMUNIKASIYA SIYOSATI BORASIDAGI FAOLIYATI

3.1. Narxlar barqarorligini ta'minlash

3.1.1. 2024-yilda pul-kredit sharoitlari va instrumentlari tahlili

2024-yilda pul-kredit siyosati iqtisodiyotda inflyatsiyaga yalpi talab tomondan bo'lgan bosimlarni yumshatish, aholining jamg'arish faolligini rag'batlantirish, iqtisodiyotda real foiz stavkalarining maqbul darajada bo'lishini hamda inflyatsiyaning o'rta muddatli target ko'rsatkichiga erishilishini ta'minlash maqsadlariga yo'naltirildi.


2023-(oktabr) va 2024-(aprel) yillardagi energiya tariflari o'zgarishining narxlar shakllanishiga ikkilamchi ta'siri prognozlardagidan past bo'lganligi, inflyatsiyaning kutilayotgan dinamikasi va inflyatsiyani oshiruvchi xatarlarning kamayganligini inobatga olib, iyul oyida asosiy stavka 14 foizdan 13,5 foizga pasaytirildi hamda yil davomida ushbu darajada o'zgarishsiz saqlab qolindi.

Markaziy bank asosiy stavkasi darajasining yilning II yarmida o'zgarishsiz saqlanib qolinishi, shuningdek oktabr oyidan inflyatsiyaning pasayib boruvchi tendensiyaga o'tishi pul bozoridagi **real foiz stavkalarining 2,2-5,1** foiz oralig'ida shakllanishiga va iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarini ta'minlanishiga xizmat qildi.

2024-yilda pul bozorida o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi **14,5** foizni tashkil etgan bo'lsa, umumiy likvidlikning ortishi hisobiga dekabr oyiga kelib, **13,9** foizgacha pasaydi va to'liq foiz koridorida shakllandi.


3.1.1.1-chizma

Markaziy bank asosiy stavkasi dinamikasi



3.1.1.2-chizma

Banklararo pul bozori foiz stavkalari




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari 2024-yil yanvar-may oylarida o'rtacha 21,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, dekabr oyiga kelib, **22,1** foizgacha yetdi.


3.1.1.3-chizma

Aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari



3.1.1.4-chizma

Milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarini ta'minlanishi va pul bozoridagi **foiz stavkalarining** ijobiy real darajada saqlanib qolishi natijasida, 2024-yilning dekabrda aholi depozitlarining foiz stavkasi ularning inflyatsion kutilmalarga nisbatan **11,2** foizlik real darajada shakllandi.

Milliy valyutadagi **muddatli depozitlar** bo'yicha real foiz stavkalari ham **6,3-9,0** foiz atrofida shakllandi.

Mazkur ijobiy real foiz stavkalari milliy valyutadagi depozitlari hajmining sezilarli darajada o'sib borishiga hamda 2024-yil davomida aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari 1,6 barobarga va korporativ muddatli depozitlarni 1,5 barobarga oshishiga xizmat qildi.

Kreditlarga bo'lgan talabning yuqori saqlanib qolishi fonida jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yil yakunida 11 oylik darajasidan mos ravishda 0,5 foiz bandga oshib 24,9 foiz doirasida shakllandi. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavka esa yil davomida nisbatan barqaror shakllanib, dekabr oyida o'rtacha 22,4 foizni tashkil etdi.


2024-yilda banklar tizimli likvidligining ortishi fonida Markaziy bankning likvidlikni jalb etish operatsiyalariga bo'lgan talab ortib bordi. Jumladan, Markaziy bank tomonidan 2024-yilda oylik o'rtacha 4 trln so'mlik likvidlik jalb etish operatsiyalari (*depozit auksion, overnayt depozit*) amalga oshirildi.

Ushbu davrda Markaziy bankning likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga (*RYePO auksion, RYePO overnayt, SVOP overnayt, valyuta overnayt kredit*) bo'lgan talab nisbatan muvozanatlashib, banklarga oylik o'rtacha 1,1 trln so'mlik likvidlik taqdim etib borildi.

Bank tizimi umumiy likvidligi holatidan kelib chiqib, pul bozorida ortiqcha likvidlik mavjudligi kuzatilgan hollarda **Markaziy bank obligatsiyalarining** qo'shimcha emissiyasi amalga oshirildi.


3.1.1.5-chizma

Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari



3.1.1.6-chizma

Markaziy bank obligatsiyalari emissiyasi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilning iyun-dekabr oylarida bank tizimi likvidligi hajmining ortishi kuzatilib, ushbu likvidlikning pul bozoridagi foiz stavkalariga va **infllyatsiya darajasiga bo'lgan ehtimoliy bosimini yumshatish** maqsadida 17 trln so'mlik Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarildi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga muomaladagi Markaziy bank obligatsiyalari qoldig'i 11 trln so'mni tashkil etdi.

7-havola

Markaziy bank kredit qo'mitasining 2024-yildagi faoliyati

2024-yilda Kredit qo'mitasi (*bundan buyon – qo'mita*) tomonidan asosiy stavkani ko'rib chiqish va Pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmlari samaradorligini oshirish hamda 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini belgilash masalalari yuzasidan 8 marotaba muhokamalar o'tkazildi.

Asosiy stavkani ko'rib chiqish bo'yicha qo'mita muhokamalarida asosiy e'tibor inflyatsiya bo'yicha belgilangan target ko'rsatkichiga erishishda inflyatsion omillar ta'sirini minimallashtirish uchun iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab qolishga, inflyatsiyaga monetar omillar ta'sirini pasaytirish mexanizmlarini takomillashtirib borishga hamda pul-kredit operatsiyalarining optimal miqdorlarini belgilash orqali bank tizimi likvidligini samarali boshqarishga qaratildi.

Bundan tashqari, qo'mita tomonidan narxlar oshishiga sabab bo'layotgan omillar, tartibga solinadigan narxlarga kiritilgan o'zgartirishlarning inflyatsion kutilmalarga ta'sirini va inflyatsiya darajasiga bosimini pasaytirish choralari ko'rib borish hamda tarif va notarif cheklovlar hamda ularni Hukumat bilan birgalikda bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan takliflar Prezident Administratsiyasiga davriy ravishda kiritish uchun tayyorlanib borildi.

Qo'mita tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oylarida o'tkazilgan muhokamalarda 5 holatda asosiy stavkani **yillik 14 foiz** saqlab qolish bo'yicha taklif Markaziy bank boshqaruviga kiritilgan. Markaziy bankning Boshqaruvi iyul oyida asosiy stavkani 14 foizdan 13,5 foizga tushirish bo'yicha qaror qabul qilgan.

2024-yil aprel oyida o'tkazilgan qo'mita muhokamasida Markaziy bank boshqaruviga asosiy stavkani o'zgarishsiz – **yillik 14 foiz** darajasida qoldirish yoki **1 foiz bandga** oshirib, 15 foiz darajasida belgilash bo'yicha 2 ta variant taqdim etilgan.

Avgust-dekabr oylarida qo'mita tomonidan 3 ta holatda 13,5 foiz darajasida saqlab qolish bo'yicha taklif Markaziy bank boshqaruviga kiritilgan hamda ushbu davrda asosiy stavkani 13,5 foiz darajasida saqlab qolish bo'yicha Boshqaruv qarori qabul qilingan.

Qo'mitaning 2024-yil 12-iyundagi muhokama yig'ilishida xorijiy valyutadagi depozitlar bo'yicha majburiy zaxiralash me'yorini joriy 18 foizdan 14 foizgacha pasaytirish va o'rtachalash koeffitsiyentini 100 foizgacha oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi hamda Markaziy bank boshqaruviga kiritilishi belgilandi.

Ushbu o'zgarish, xorijiy valyutadagi depozitlar bo'yicha majburiy zaxiralash me'yorini pasaytirish orqali banklarga xarajatlar bosimini ma'lum darajada kamaytirish, ularning likvidlik holatini yaxshilash va **bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini** muqobillashtirish imkonini berishi bildirildi.

Moliya bozori ishtirokchilariga davlat qimmatli qog'ozlar muddatlari va foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida ma'lumot taqdim etish va iqtisodiyot subyektlarining investitsion qaror qabul qilishiga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan Davlat qimmatli qog'ozlari daromadlilik egri chizig'ini ko'rib chiqish bo'yicha Markaziy bank boshqaruviga takliflar kiritildi.

Shuningdek, pul-kredit siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarining dastlabki konseptual loyihasi Markaziy bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish hamda ushbu hujjatda belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda:

– pul-kredit siyosati operatsion mexanizmini takomillashtirish bo'yicha choralarni faol davom ettirish, shu jumladan, banklararo pul va REPO bozorlari hamda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni xorijiy ekspertlar ishtirokida yuridik auditdan o'tkazish;

- makroiqtisodiy tahlil va prognozlash salohiyatini oshirish, shu jumladan, qisqa muddatli modellar qatorini kengaytirish va prognoz qilinadigan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ko‘lamini oshirish, Choraklik prognozlash va dinamik stoxastik umumiy muvozanat (DSGE) modellari parametrlarini qayta ko‘rib chiqish;
- pul-kredit siyosati kommunikatsiyasini rivojlantirish va muloqot kanallarini kengaytirish bo‘yicha takliflar ma‘qullangan.

3.1.2. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmidagi o‘zgarishlar

2024-yilda Markaziy bank tomonidan pul-kredit choralari transmission kanalini yaxshilash, bank tizimi likvidligini samarali boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarni to‘g‘ri shakllanishini ta‘minlash uchun pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmi takomillashtirilib borildi.

Xususan:

- Markaziy bank overnayt operatsiyalarini amalga oshirish oynasining bank to‘lov kuni yakunlanganidan so‘ng 1 soat davomida ochiq bo‘lishini ta‘minlash;
- “kun davomidagi kredit instrumenti” joriy etilib, kun davomida garov evaziga foizsiz kreditlar berish;
- pul-kredit operatsiyalarini amalga oshirishda kredit xatarini minimallashtirish maqsadida likvidlikni taqdim etishga mo‘ljallangan operatsiyalar bo‘yicha garov mulkiga nisbatan 5 foizlik chegirma qo‘llash;
- pul-kredit operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta kursi o‘zgarishi xatarini oldini olish maqsadida valyuta garovi asosidagi overnayt kredit operatsiyasi va 1 haftalik kredit auksioni amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Bank tizimi likvidligini tartibga solish maqsadida Markaziy bank tomonidan har kuni asosiy stavkaning quyi chegarasida overnayt depozit operatsiyalari, haftaning payshanba kunlari esa Markaziy bankning asosiy stavkasida cheklanmagan miqdorda depozit auksionlari o‘tkazib borildi.

Bundan tashqari, 2025-2030-yillarda tijorat banklari majburiyatlarini majburiy zaxiralash talabi bilan **qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish**, tijorat banklariga qo‘shimcha yuklamani pasaytirish maqsadida xorijiy valyutadagi majburiyatlari bo‘yicha majburiy zaxiralash talabini mos ravishda pasaytirish bo‘yicha choralar ko‘rilmoqda.

Jumladan, xorijiy valyutadagi depozitlar uchun shakllantiriladigan majburiy zaxira talabi 2024-yil 1-iyuldan avvalgi 18 foizdan **14 foizgacha pasaytirildi** va o‘rtachalash me‘yori 80 foizdan 100 foizgacha oshirildi. Buning natijasida, **banklarda qo‘shimcha 3 trln so‘m likvidlikni** tasarruf etish imkoniyatlari vujudga keldi.

Umuman olganda, 2024-yilda umumiy likvidlik darajasini tartibga solishchi pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar hajmlarining bank tizimi likvidligi holatiga va belgilangan normativlarning tijorat banklari tomonidan bajarilish darajasiga bog‘liqligi kuchaydi.

3.1.3. Banklararo pul bozori faoliyati tahlili va foiz stavkalari


2024-yilda pul bozoridagi operatsiyalarning hajmi 2023-yilga nisbatan 31 foizga oshib, jami **507** trln soʻmni tashkil etdi va bunda, depozit operatsiyalari hajmi dinamikasida pasayuvchi tendensiya davom etib, 25 foizga qisqargan boʻlsa, REPO operatsiyalari hajmi 3,6 barobarga oshdi.

Ushbu tendensiya, oʻz navbatida, banklararo amaliyotlarda kredit xatarlarini boshqarishda **garov mulkiga boʻlgan talabning** kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi.

Muomaladagi davlat qimmatli qogʻozlari hajmining ortib borishi fonida REPO operatsiyalarining likvidlikni **qayta taqsimlashdagi** roli va ahamiyatini oshirmoqda.


3.1.3.1-chizma

Banklararo pul va REPO amaliyotlari



3.1.3.2-chizma

Banklararo pul va REPO operatsiyalar foiz stavkasi



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari


2024-yilda pul bozorida REPO operatsiyalarining ulushi 54 foizni tashkil etib, 2024 -yil davomida muomaladagi davlat qimmatli qogʻozlari hajmi 2 barobardan ziyodga oshdi va yil yakunida **44** trln soʻmga yetdi.

2024-yilda pul bozorining oʻrtacha tortilgan foiz stavkasi 14,1 foizni, xususan, depozit operatsiyalar boʻyicha foiz stavkalar 14,5 foizni, REPO operatsiyalar stavkasi 13,7 foizni tashkil etdi. Qayd etish joizki, depozit operatsiyalari foiz stavkalari biroz yuqori shakllanganligi, oʻz navbatida, ushbu operatsiyalar tarkibida bir kundan yuqori muddatli operatsiyalarning ulushi oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

Pul bozorining benchmark foiz stavkasi hisoblangan UZONIA foiz stavkasi 2024-yilda to'liq foiz koridori doirasida (*yil davomida o'rtacha 13,6%*) asosiy stavkaga yaqin shakllandi. UZONIA foiz stavkasi va asosiy stavka o'rtasidagi tafovutning qisqarishi umumiy likvidlik **profitsitining qisqarishi** va banklar tomonidan narxni belgilash jarayonidagi ijobiy o'zgarishlar bilan izohlanadi.


3.1.3.3-chizma

UZONIA benchmark foiz stavkasi dinamikasi



3.1.3.4-chizma

Pul bozoridagi muddatlar bo'yicha foiz stavkalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Shu bilan birga, 2024-yilda **bir kundan yuqori** muddatli operatsiyalar bo'yicha ham foiz stavkalarining pasayishi kuzatildi va yil yakunida Markaziy bank foiz koridori doirasida shakllanib bordi. Xususan, 2024-yilda muddati 2-7 kunlik operatsiyalar bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari 15,2 foizni, 8-30 kunlik operatsiyalar bo'yicha 16,5 foizni tashkil etdi.

Bir kundan yuqori muddatli operatsiyalar foiz stavkalarining pasayishi REPO bozorida likvidlikning ta'minlanmagan banklararo depozit bozoriga nisbatan arzonligi, ya'ni garov mulki sifatida davlat qimmatli qog'ozlarining qo'llanilishi hisobiga kredit xatarining pastligi va likvidlik profitsitining o'sishi fonida banklarning likvidlik xatari bo'yicha kutilmalarining pasayishi bilan izohlanadi.

2024-yilda tijorat banklari tomonidan likvidlikni asosan overnight operatsiyalar orqali boshqarish ma'qul (*afzal*) ko'rilib, pul bozoridagi jami amaliyotlarning 77,7 foizi 1 kunlik depozit operatsiyalariga to'g'ri keldi.

3.1.3.5-chizma

Pul bozoridagi operatsiyalarning muddati bo'yicha ulushi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


3.1.4. Ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar tahlili

2024-yilda ichki valyuta bozori global iqtisodiyotdagi nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari saqlanib qolishi, yuqori iqtisodiy faollik fonida chet el valyutasiga bo'lgan umumiy talab hamda taklif hajmining ortishi sharoitida shakllandi.

Hisobot yilida ichki valyuta bozorida chet el valyutasidagi umumiy taklif hajmi (*Markaziy bank intervensiyalarini hisobga olmaganda*) **40,5** mlrd dollarni tashkil etib, shundan **17,7** mlrd dollari (**44%**) xo'jalik yurituvchi subyektlar, **17,2** mlrd dollari (**43%**) banklar va jismoniy shaxslar hamda **5,6** mlrd dollari (**14%**) markazlashgan manbalar hisobiga qondirildi.

3.1.4.1-chizma

Ichki valyuta bozoridagi chet el valyutasi taklifi manbalari




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, ushbu davrda chet el valyutasiga bo'lgan talabning umumiy hajmi **48,1** mlrd dollarga yetib, 2023-yilga nisbatan **13** foizga oshdi. Ushbu talabning **80,6** foizi **yuridik shaxslar** va **19,4** foizi **jismoniy shaxslar** hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxslarning valyuta operatsiyalari. 2024-yilda yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab **38,8** mlrd dollarni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **16** foizga oshdi.

3.1.4.2-chizma

Sotib olingan chet el valyutasi maqsadlari tarkibi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ichki valyuta bozoridagi chet el valyutasining **53** foizi ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, xomashyo va xizmatlar importi, **26** foizi xorijiy kreditlarni so'ndirish, **18** foizi xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, **1** foizi xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va **2** foizi boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan.

3.1.4.3-chizma

Import to'lovlari manbalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning import to‘lovlari hajmi 2023-yilga nisbatan 7 foizga oshib, **39,1** mlrd dollarga (*reeksport hisobga olinmagan*) yetdi va ushbu to‘lovlarning **64** foizi ichki valyuta bozoridan sotib olingan valyuta mablag‘lari hisobidan qoplandi.

3.1.4.4-chizma

AQSh dollarining milliy valyutaga nisbatan almashuv kursi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yil davomida so‘mning AQSh dollariga nisbatan **almashuv kursi** **12 342 – 12 928** so‘m diapazonida shakllanib, **4,5** foizga qadrsizlandi.

3.2. Valyuta siyosati va valyuta operatsiyalari tahlili

Tashqi iqtisodiy faollikdagi noaniqliklar hamda xatarlarning saqlanib qolayotganligi sharoitda valyuta sohasida muvozanatli siyosat olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha to‘lov intizomini mustahkamlash, aktivlarning repatriatsiya qilinishini ta‘minlash hamda ushbu sohada monitoringni takomillashtirish masalalarida valyuta nazorati organlari bilan hamkorlikda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib borildi.

Xususan, tashqi savdo shartnomalari doirasida muddati o‘tgan qarzdorliklari mavjud bo‘lgan xo‘jalik subyektlariga **kafolatlangan to‘lov turlaridan foydalanish** talabi joriy qilindi.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy hamkorlik va kapital oqimini boshqarish masalalari alohida yondashuvni talab etishini inobatga olib, hisobot yilida xususiy investitsiyalarni jadallashtirish, ichki imkoniyatlarni mamlakat iqtisodiyotiga yo‘naltirish maqsadida kapital harakati operatsiyalari bo‘yicha yondashuv o‘zgarishsiz qoldirildi.

3.2.1. Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha mablag'lar harakati tahlili

2024-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlarning jami **eksport tushumlari** (*maxsus eksportdan tashqari*) 2023-yilga nisbatan **8 foizga o'sib**, **16,8 mlrd** dollarni tashkil etgan bo'lsa, tovar va xizmatlar uchun xorijga o'tkazilgan **import to'lovlari** miqdori 2023-yilga nisbatan **7 foizga ortib**, **41 mlrd** dollarga teng bo'ldi.


Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarning manfiy saldosi 2023-yildagi 22,8 mlrd dollardan 24,2 mlrd dollargacha oshdi, import to'lovlarning eksport tushumlari bilan qoplanishi 2023-yil darajasida o'zgarishsiz qolib, 41 foizni tashkil etdi.

Eksport tushumlarining 44 foizi yoki 7,4 mlrd dollari tarmoq korxonalari, 56 foizi yoki 9,4 mlrd dollari hududiy va xususiy korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan.

Eksport tushumlari hamkor davlatlar kesimida tahlil qilinganda, hisobot yilida ularning **62 foizi 5 ta** xorijiy davlatlarga, xususan, 25 foizi **Rossiya**, 14 foizi **Xitoy**, 10 foizi **Qozog'iston**, 7 foizi **Birlashgan Arab Amirliklari** va 7 foizi **Turkiya** davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


3.2.1.1-chizma

Eksport tushumlari va import to'lovlari hajmi dinamikasi



3.2.1.2-chizma

Import to'lovlarni eksport tushumlari bilan qoplanish darajasi (Terms of trade) dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Eksport valyuta mablag'larining **75 foizi (12,7 mlrd)** AQSh dollari, **18 foizi (2,9 mlrd dollar)** Rossiya rubli, **5 foizi (0,9 mlrd dollar)** yevro va qolgan **2 foizi** boshqa valyutalardan kelib tushgan.

3.2.1.3-chizma

Ekspost tushumlarining hamkor-davlatlar kesimidagi dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Import to'lovlarining (41 mlrd dollar) manbasi tahliliga ko'ra, hisobot yilida jami to'lovlarning **62 foizi** yoki **25,3 mlrd dollari** ichki valyuta bozoridan xarid qilingan mablag'lar (2023 yilga nisbatan +8%), **27 foizi** yoki **11 mlrd dollari** xo'jalik subyektlarining o'z valyuta mablag'lari (+3%) hamda **11 foizi** yoki **4,7 mlrd dollari** xorijiy valyutadagi kreditlar (+10%) hisobidan amalga oshirilgan.

3.2.1.4-chizma

2020-2024 yillarda korxonalarning import to'lovlari va manbalari dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Import to'lovlarining **61 foizi** 5 ta asosiy hamkor mamlakatlar, shundan **22 foizi** Xitoy, **15 foizi** Rossiya, **10 foizi** Birlashgan Arab Amirliklari, **7 foizdan** Turkiya va Qozog'iston hissalariga to'g'ri keladi.

3.2.1.5-chizma

Import to'lovlarining hamkor-davlatlar kesimidagi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot davrida tashqi savdo operatsiyalari doirasidagi import to'lovlarning **70 foizi** (29 mlrd) AQSh dollarida, **15 foizi** (6 mlrd) Rossiya rublida, **11 foizi** (4,4 mlrd) yevroda va qolgan **4 foizi** (1,6 mlrd) boshqa valyutalarda amalga oshirilgan.

3.2.2. Jismoniy shaxslar bilan valyuta operatsiyalari

2024-yilda aholi va xorijiy sayyohlarga valyuta ayirboshlash infratuzilmalarini yanada rivojlantirish va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash orqali qulayliklar yaratish hamda jismoniy shaxslarning valyuta ayirboshlash operatsiyalariga bo'lgan talabini doimiy qondirib borish borasidagi ishlar davom ettirildi.


Xususan, hududlarda banklarning valyuta ayirboshlash tarmog'ini kengaytirish natijasida **valyuta ayirboshlash shoxobchalarining (VASH)** umumiy soni 2023-yilga nisbatan 20 foizga oshib, qariyb **6,2 mingga yetkazildi** (shulardan **3,4 mingga** "24/7" rejimida ishlaydigan avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari).

Jismoniy shaxslarga kunning istalgan vaqtida xavfsiz va tezkor valyuta ayirboshlash imkoniyatini taqdim etish, masofaviy tarzda xizmat ko'rsatish ko'lami va sifatini oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlarining (*AvtoVASH*) dasturiy ta'minoti va texnik jihozlanishi doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Jumladan, hisobot yilida hududlarda tijorat banklari tomonidan valyuta ayirboshlash funksiyasiga ega qo'shimcha jami 865 ta zamonaviy ko'p funksiyali bankomatlar o'rnatildi (shundan, Toshkent shahrida 516 ta, Buxoroda 52 ta, Qashqadaryoda 42 ta, Toshkent viloyatida 41 ta va boshqa hududlarda 214 ta).

3.2.2.1-chizma

2019-2024-yillarda valyuta ayirboshlash shoxobchalari sonining o'zgarish dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Markaziy bank tomonidan bank kassa va shoxobchalarida naqd chet el valyutasining haqiqiyligini tekshiruvchi yangi zamonaviy uskunalar bilan jihozlanishiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada muntazam ravishda tegishli ishlar olib borilmoqda.

2024-yilda banklar tomonidan valyuta ayirboshlash infratuzilmalari orqali jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalar aylanmasi (*chet el valyutasi xaridi va sotuvi*) hajmi 2023-yilga nisbatan **19** foizga oshib, **25,5** mlrd dollarga yetdi.

3.2.2.2-chizma

2023-2024-yillarda jismoniy shaxslarning valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida banklar jismoniy shaxslardan jami **16,1** mlrd dollar ekvivalentida (2023-yilga nisbatan +31%) xorijiy valyuta sotib olgan bo'lsa, jismoniy shaxslarga **9,4** mlrd dollar (+3%) sotilgan va valyuta ayirboshlash operatsiyalarining ijobiy saldosi **6,7** mlrd dollarni (+2,1 barobar) tashkil etdi.

Jismoniy shaxslardan **xarid** qilingan chet el valyutasining **51** foizi (8,2 mlrd dollar) 1 000 dollargacha bo'lgan tranzaksiyalarga to'g'ri kelgan (2023-yilda 50 foiz yoki 6,1 mlrd dollar) bo'lsa, jismoniy shaxslarga **sotilgan** valyutaning **73** foizi (6,9 mlrd dollar) 1 000 dollardan yuqori bo'lgan tranzaksiyalar hissasiga to'g'ri kelgan (o'tgan yil darajasida saqlanib qolgan).

Hisobot yilida banklarning masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalangan holda chet el valyutasini sotish va sotib olish amaliyotlarining ko'lami yanada kengaydi. Jumladan, jismoniy shaxslarga mobil ilovalari orqali onlayn tarzda **sotilgan** chet el valyutasi (2,4 mlrd dollar) hajmi o'tgan yilga nisbatan **20** foizga oshgan bo'lsa, onlayn **xarid** qilingan valyuta (1,2 mlrd dollar) hajmi **37** foizga o'sdi.

3.2.2.3-chizma

2024-yilda valyuta ayirboshlash operatsiyalarning miqdoriy tarkibi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ushbu holat zamonaviy axborot texnologiyalarining bank tizimiga faol kirib kelishi natijasida aholining banklarga bo'lgan ishonchi va masofaviy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

2024-yilda O'zbekistonga **kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari** hajmi 2023-yilga nisbatan 30 foiz oshib, **14,8** mlrd dollarni tashkil etdi.

3.2.2.4-chizma

2023-2024-yillarda transchegaraviy pul o'tkazmalar orqali kelib tushgan va xorijga yuborilgan mablag'lar dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mablag'larning 77 foizi Rossiyadan (11,5 mlrd dollar) kelib tushgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 29 foizga oshgan. Mazkur transfertlarning qolgan qismi Qozog'iston (795 mln dollar), AQSh (577 mln dollar), Janubiy Koreya (534 mln dollar), Turkiya (405 mln dollar), Buyuk Britaniya (135 mln dollar) va boshqa mamlakatlardan kelib tushgan.

2024-yilda O'zbekistonga kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmida 2023-yilga nisbatan Buyuk Britaniyadan 83 foizga, Janubiy Koreyadan 56 foizga, AQShdan 35 foizga hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan 32 foizga (xususan, Polshadan 87 foizga, Germaniyadan 43 foizga, Litvadan 2,3 barobarga ko'payga) o'sish kuzatildi.

3.2.2.5-chizma

2023-2024-yillarda rivojlangan mamlakatlar kesimida kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalar



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida jismoniy shaxslarga kelib tushgan mablag'larning **8,2** mlrd dollari an'anaviy xalqaro pul o'tkazma tizimlari orqali (*2023-yilga nisbatan +14%*), **5,9** mlrd dollari xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to'g'ridan-to'g'ri (*P2P*) o'tkazmalari orqali (*+51%*) hamda **774** mln dollari bank o'tkazmasi (*SWIFT*) orqali (*+2,1 barobar*) amalga oshirilgan.

Xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to'g'ridan-to'g'ri (*P2P*) o'tkazmalar tezkorligi, qulayligi va nisbatan arzonligi hisobiga ommalashib bormoqda. 2024-yilda P2P (onlayn) tranzaksiyalar soni qariyb 71 mln.tani tashkil etib (*2023-yilga nisbatan o'sish 47 foiz*), o'tkazmalar hajmining jami kelib tushgan mablag'lar hajmidagi ulushi 40 foizgacha yetdi (*2023-yilda 34%*).

Jismoniy shaxslar tomonidan 2024-yil davomida xorijiy davlatlarga **yuborilgan pul o'tkazmalari** hajmi 2023-yilga nisbatan 19 foizga o'sib, **2,8** mlrd dollarni tashkil etdi. O'tkazmalarning **72** foizi **5 ta** mamlakat, xususan Birlashgan Arab Amirliklari (*590 mln doll*), Xitoy (*564 mln doll*), Rossiya (*361 mln doll*), Turkiya (*336 mln doll*) va AQSh (*179 mln doll*) hissasiga to'g'ri keldi.

Bunda, jo'natilgan jami o'tkazmalarning 58 foizi (*1,6 mlrd doll*) bank o'tkazmalari (*SWIFT*) va 16 foizi (*441 mln doll*) P2P (onlayn) tranzaksiyalar orqali amalga oshirilgan.

3.3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini boshqarish borasidagi faoliyat

2024-yilda Markaziy bank tomonidan xalqaro zaxiralarni boshqarish, bir tomondan, jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi noaniqliklar, yetakchi markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosatlarining yumshatish fazasining boshlanishi hamda xalqaro savdo shartlaridagi o'zgarishlar fonida, ikkinchi tomondan, global bozorlarda oltin narxining yil davomidagi o'suvchi dinamikasi sharoitida xavfsizlik, likvidlilik va daromadlilik tamoyillari asosida amalga oshirildi.

"Xalqaro zaxiralar bo'yicha maslahat va boshqarish dasturi" doirasida xalqaro zaxiralar tarkibidagi aktivlarni diversifikatsiya qilish maqsadida 2024-yilda zaxiralarning bir qismi (*100 mln dollar*) AQSh davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilindi.

AQSh davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari kredit xataridan to'liq xoli, yuqori likvidlili va istalgan vaqtda xalqaro bozorda sotish mumkinligi bilan muddatli depozitlardan farqlanadi. Ushbu qimmatli qog'ozlarning daromadlili xalqaro pul bozorida muddatli depozitlar uchun taklif qilinadigan foizli daromad darajasida shakllandi.

O'z navbatida, qimmatli qog'ozlar portfeli bo'yicha aktivlarni strategik taqsimlash, AQSh dollarida likvidlikni boshqarish, kastodian xizmatlari va o'zaro hisob-kitoblar, qimmatli qog'ozlar portfeli samaradorligini o'lchash, baholash va hisobot berish kabi maxsus xalqaro seminarlarda xodimlar malakasi oshirib borilmoqda.

3.3.1. O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari dinamikasi va tarkibining tahlili


2024-yil yakuni bo'yicha yalpi xalqaro zaxiralar hajmi 41,2 mlrd dollarni, bunda oltin 32,1 mlrd dollarni, chet el valyutasidagi aktivlar 9,0 mlrd dollarni hamda qimmatli qog'ozlar 101,7 mln dollarni tashkil qildi.

Yetakchi markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosatlarining yumshatilishi (*xususan, AQSh FZT foiz stavkasi 2024-yilda 100 bazis punktga tushirildi*) hamda jahon iqtisodiyoti rivojlanishi istiqbollari bo'yicha noaniqliklar sharoitida xalqaro bozorda oltin narxi yuqori darajalarda saqlanib qolmoqda.

2024-yil davomida oltin narxi 1 troy unsiyasi uchun 27 foizga oshib, yil yakuniga kelib 2 610,9 dollarni tashkil qildi.

3.3.1.1-chizma

2024-yildagi oltin narxi dinamikasiga ta'sir qilgan omillar




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Dunyo xomashyo bozorida oltin narxining tarixiy maksimumlarda shakllanib borayotganligi ta'sirida zaxiralar tarkibidagi oltinning fizik hajmi deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsada, oltin zaxiralari qiymati 6,7 mlrd dollarga o'sib, zaxiralar tarkibidagi ulushi 2023-yildagi 71 foizdan 78 foizgacha oshdi.

Chet el valyutasidagi aktivlarning zaxiralar tarkibidagi ulushining 29 foizdan 21 foizgacha qisqarishiga asosan tashqi qarzga xizmat ko'rsatish to'lovlarining oshganligi hamda suveren yevroobligatsiyalar bir qismining so'ndirilishi ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari dinamikasi o'zgarishi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalardan 110 tonna monetar oltin sotib olindi va 100 tonna oltin eksporti amalga oshirilib, ushbu eksportdan kelgan valyuta tushumi ichki valyuta bozoriga yo'naltirildi.

Shuningdek, hisobot yili yakunida chet el valyutasidagi aktivlarning 85 foizi AQSh dollarida va 15 foizi Xitoy yuanida shakllangan.


Valyuta aktivlari tarkibida Xitoy yuani ulushining yuqoriligi uning xalqaro zaxira valyutasi maqomi hamda tashqi savdo munosabatlarida yetakchi hamkor-mamlakat ekanligi bilan izohlanadi (2024-yilda Xitoy bilan tashqi savdo hajmi umumiy eksport-import operatsiyalarining qariyb 20 foizini tashkil etdi).

Xalqaro zaxiralarni boshqarishda hamkor-banklarning xalqaro maqomi va moliyaviy holati muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda 2024-yilda valyuta aktivlari yuqori suveren kredit reytingiga ega mamlakatlarda faoliyat yuritadigan va xalqaro miqyosda investitsion reytingga ega 22 ta banklarga muddatli depozitlarga joylashtirildi. Shuningdek, AQSh davlat qimmatli kog'ozlari bilan amaliyotlarni amalga oshirishda yetakchi xorijiy banklar bilan kelishuvlar imzolandi.


Xalqaro moliya bozori holatidan kelib chiqib, valyuta aktivlarining bir hamkor-bank yoki bir mamlakat hissasiga to'g'ri keladigan **konsentratsiya riski darajasini pasaytirish** maqsadida aktivlarni mamlakatlar va banklar kesimida diversifikatsiya qilish ishlari davom ettirildi.

3.3.1.3-chizma

**Chet el valyutasidagi aktivlarning
mamlakatlar suveren kredit reytingi
bo'yicha ulushi**



**Chet el valyutasidagi aktivlarning
hamkor-banklar kredit reytingi
bo'yicha ulushi**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jumladan, bugungi kunda Markaziy bank hamkor banklari Osiyo-tinch okeani (38%), Yevropa (46%) va Shimoliy Amerika mintaqasi (16%) davlatlari bo'ylab taqsimlangan.

2024-yilda Markaziy bankning jami amaldagi hamkor banklari soni 44 tani tashkil etib, ularning 32 tasi birinchi darajali kapital hajmi bo'yicha dunyoning 100 ta eng katta banklari reytingida qayd etilgan, qolgan qismi esa dunyoning 200 ta eng yirik banklari ro'yxatiga kiritilgan.

Bundan tashqari, valyuta aktivlari bo'yicha risklarni oldini olish hamda tezkor choralar ko'rish maqsadida hamkor-banklarning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin xatarlar muntazam ravishda Markaziy bank tomonidan monitoring qilib boriladi.

2024-yilda xalqaro pul bozorida foiz stavkalarining pasayib borishi sababli valyuta aktivlarini xorijiy hamkor-banklarga muddatli depozitlarga joylashtirishdan olingan foizli daromadlar hajmi kamayishi va daromadlilik o'tgan yilga nisbatan pastroq darajalarda shakllanishi kuzatildi.

Xususan, depozitga joylashtirilgan valyuta aktivlaridan olingan daromad 2023-yilga nisbatan 9 foizga kamayib, 2024-yilda 395 mln dollarni tashkil etdi. Joylashtirilgan mablag'larning o'rtacha daromadlilik darajasi 2024-yilda AQSh dollari bo'yicha 5,4 foizdan 5,2 foizgacha kamaygan bo'lsa, Xitoy yuanida 2,7 foiz darajasida o'zgarishsiz qoldi.


Xalqaro zaxiralar tarkibidagi qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish.

Markaziy bank tomonidan xalqaro zaxiralarni diversifikatsiya qilish hamda aktivlarning ko'lamini oshirish maqsadida 2024-yilda xorijiy davlat qimmatli qog'ozlariga 100 mln dollar ekvivalentida investitsiya kiritildi va tegishli portfel shakllantirildi.


Diversifikatsiyalash investitsion xatarlarni samarali boshqarishning muhim vositasi hisoblanib, uzoq muddatli investitsion maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, aktivlar diversifikatsiyasi xalqaro zaxiralarning barqarorligini oshirish, potensial risklarni kamaytirish hamda risk-daromadlilik profilini yanada optimallashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar portfeli passiv strategiyalar asosida boshqariladi. Bunda, qimmatli qog'ozlarni so'ndirish muddatiga qadar saqlab turish hamda tegishli benchmark¹⁵ risk ko'rsatkichlariga mos qimmatli qog'ozlar tanlab olish (*replikatsiya qilish*) usullari qo'llaniladi.

3.3.1.4-chizma

Valyuta aktivlari bo'yicha foizli daromad va o'rtacha foiz stavkalari dinamikasi

3.3.1.5-chizma

Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar portfeli va benchmark daromadlilik

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar portfeli daromadlilik yillik hisobda 5,3 foizni tashkil qilib, portfel qiymati 101,7 mln dollardan iborat. Shuningdek, 2024-yil davomida qimmatli qog'ozlar portfeli daromadi va benchmark daromadi o'rtasida sezilarli tafovut kuzatilmadi, tafovutning standart chetlashishi (*Tracking Error*) nol foizni tashkil qildi.

¹⁵ **Benchmark** – investitsiya qimmatli qog'ozlaridan tashkil topgan hamda maqbul risk ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan etalon portfel.


3.3.2. Xalqaro zaxiralarning yetarlilik ko'rsatkichlari va ularning tahlili

Xalqaro valyuta zaxiralarning me'yoriy talablar doirasida bo'lishi markaziy banklar tomonidan global inqiroz davrida milliy valyuta almashuv kursining barqarorligini ta'minlash hamda cheklangan iqtisodiy sharoitlarda kapital oqimlarini boshqarish uchun muhim bo'lib, tashqi qarz oluvchi mamlakatlarning ishonchliligini oshirish va yuzaga keladigan shoklarni yumshatishda hukumatga kontrtsiklik fiskal siyosat yuritish uchun sharoit yaratadi.

Mamlakatimizda xalqaro zaxiralarni muvozanatli boshqarish siyosati **zaxiralarning qisqa muddatli qarzlarni qoplash darajasi** (*minimal talab 100%*), **importni qoplash darajasi** (*kamida uch oylik importni qoplash*), **keng ma'nodagi pul massasiga nisbati** (*20%*), hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun **ARA EM zaxiralar yetarliligi** (*100-150%*) ko'rsatkichlarining xalqaro amaliyotda belgilangan minimal talablardan yuqori shakllanishida namoyon bo'lmoqda¹⁶.

3.3.2.1-chizma

Xalqaro zaxiralarning pul massasiga nisbati




Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

Xususan, xalqaro zaxiralarning keng ma'nodagi pul massasiga nisbati 2025-yil 1-yanvar holatiga 192 foizni tashkil qilib, 20 foizlik minimal talabdan 10 barobar ko'p shakllandi.

Shuningdek, xalqaro zaxiralarning importni qoplash ko'rsatkichi hisobot yilida 2023-yildagi 11 oydan **13** oygacha oshib, bunga zaxiralar miqdorining o'sishi asosiy sabab bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich minimal tavsiya etiladigan me'yorlardan **4 barobardan** yuqori bo'ldi.

¹⁶Assessing Reserves Adequacy for Emerging Markets (ARA EM) – bu ko'rsatkich XVJning metodologiyasi asosida mamlakatning valyuta siyosati, eksport-import hajmi, pul massasi, tashqi qarzlari kabi ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi.


3.3.2.2-chizma

Xalqaro zaxiralarning importni qoplash darajasi

Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

Xalqaro zaxiralarning O'zbekistonning qisqa muddatli tashqi qarzlarini qoplash darajasi minimal talabdan **3,3 barobar** yuqori darajada shakllanib, **328** foizni tashkil etdi.

3.3.2.3-chizma


Xalqaro zaxiralarning qisqa muddatli tashqi qarzni qoplashi

Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

XVJning ARA EM zaxiralar yetarliligi ko'rsatkichi belgilangan minimal talabdan **3 barobarga** yuqoriroq bo'ldi.

3.3.2.4-chizma

Xalqaro zaxiralarning ARA EM ko'rsatkichi




Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

Tashqi savdo bo'yicha asosiy hamkor mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan solishtirganda O'zbekiston xalqaro zaxiralarning YaIMga nisbati **36** foizni tashkil etib, yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

3.3.2.5-chizma

Xalqaro zaxiralarning YaIMga nisbatan o'zgarishi



Manba: XVJ va Markaziy bank ma'lumotlari

Mazkur ko'rsatkichlar boshqa muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatorida nafaqat mamlakatning ichki va tashqi shoklar ta'sirida inqiroz ehtimolini kamaytirishga, balki investorlar uchun investitsion qarorlarni qabul qilishda ijobiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

3.4. Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati

3.4.1. Pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishda Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati

2024-yilda Markaziy bankning kommunikatsiya siyosatida asosiy e'tibor pul-kredit siyosati mohiyati va mazmunini keng jamoatchilikka sodda va tushunarli tilda targ'ib qilish va o'rta muddatli inflyatsion targetga bosqichma-bosqich erishishda kommunikatsiya instrumentlarining sifatini yaxshilashga qaratildi.

Asosiy stavkani qayta ko'rib chiqish yuzasidan tayyorlangan press-relizlarda makroiqtisodiy tahlil kuchaytirildi, uning istiqboldagi trayektoriyasiga oid prognozlar berib borildi. Bunda, asosiy stavka ko'rib chiqilgan boshqaruv yig'ilishlaridan so'ng matbuot anjumanlari o'tkazish an'anasi davom ettirilib, ular bo'yicha qarorlar yuzasidan 8 ta press-reliz rasmiy veb-saytda joylashtirib borildi.

Hisobot yilida inflyatsiyani pasaytirishga va uning prognoz ko'rsatkichlari doirasida jilovlashga qaratilgan kommunikatsion siyosat doirasida pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari, pul-kredit siyosati sharhi va shu kabi boshqa jami 24 ta oylik va choraklik sharhlar e'lon qilindi.

Shu bilan birga, Markaziy bank asosiy stavkasi bo'yicha 4 ta, pul-kredit siyosati asosiy yo'nalishlari va boshqa mavzular doirasida OAV vakillari ishtirokida bir qancha press-brifinglar, iqtisodiyot va bank-moliya sohasi bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalari va xorijiy oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari hamda talabalari o'rtasida pul-kredit siyosati transmission mexanizmi, pul-kredit siyosati asosiy yo'nalishlari to'g'risida seminar-treninglar tashkil qilindi.

Jumladan, Markaziy bankda inflyatsiya va inflyatsion kutilmalarni o'rganish, inflyatsiya omillarini tahlil qilish sifatini oshirish, ularning ahamiyati va pul-kredit siyosati asoslari mavzularida hududiy bo'linmalar xodimlari uchun o'quv seminarlari tashkillashtirildi.

Markaziy bankning rahbar va mas'ul xodimlari 30 ga yaqin ko'rsatuv, seminar, konferensiya va davra suhbatlarida ishtirok etib, ular tomonidan pul-kredit va valyuta sohasi hamda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohot va transformatsiyaviy jarayonlar haqida jamoatchilikka dolzarb ma'lumotlar taqdim qilib borildi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining texnik ko'mak missiyalaridagi tavsiyalardan kelib chiqib, Markaziy bank rasmiy veb-sahifasining pul-kredit siyosati qismi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, pul-kredit siyosati kommunikatsiyasining maqsadli auditoriyalari uchun har kunlik pul bozorida shakllanadigan indekslar, har haftada daromadlilik egri chizig'i, har oyda inflyatsion kutilmalar va sezilgan inflyatsiya bo'yicha infografikalar rasmiy kommunikatsiya kanallarida muntazam joylashtirib kelinmoqda.

3.4.2. Jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda kommunikatsiya instrumentlaridan samarali foydalanish

Markaziy bankning jamoatchilik ishonchini mustahkamlash borasidagi kommunikatsiya siyosati orqali strategik maqsadlar doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida axborotlar va kuzatilayotgan o'zgarishlar hamda kutilmalar bo'yicha keng va batafsil ma'lumotlar yetkazib berilmoqda.

Joriy kommunikatsiya tadbirlari va ko'lamli Markaziy bankning pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik va prudensial nazoratga oid sharhlarni kuzatib boruvchilar sonining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborotlarning retseptiantlar tomonidan oson va tez qabul qilinishini ta'minlashda jamoatchilik o'rtasida Markaziy bank faoliyatidan xabardorlik darajasi, kuzatuvchilarning faoliyat turi bo'yicha tarkibi, ular tomonidan ko'proq ko'riladigan/o'qiladigan matnlar, e'lon qilinayotgan sharhlar, ma'lumotlarning tushunarliklik darajasini bilish maqsadida davriy so'rovnoma o'tkazib borilmoqda.

Bunda, Markaziy bank axborotlarini kuzatib boruvchilarning deyarli 70 foizini bank va tadbirkorlik subyektlari, ta'lim, davlat boshqaruvi organlari vakillari tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, so'rovnoma natijalariga ko'ra, 45 foiz respondentlar matnlarning tushunarliklik darajasi oson, lekin bazaviy bilim talab etishini bildirgan bo'lsa, respondentlarning qariyb 60 foizi axborotlarni matn shaklida olishini bildirgan.

Hisobot yilidagi kommunikatsiya tadbirlari mazkur so'rovnoma natijalari asosida tashkil etilib, xususan, matnlarni qisqa va tushunarli tilda tayyorlashga alohida e'tibor berildi, ayrim statistik ma'lumotlar matbuot anjumanlari va intervyular orqali og'zaki yoki taqdimotlar tarzida yetkazildi.







Kuzatuvlarga ko'ra, pul-kredit siyosatini olib borishda muhim sanaladigan inflyatsion kutilmalar va sezilgan inflyatsiyaga oid sharhlar bilan tanishib boruvchilar sonida ijobiy o'zgarishlar saqlanib qolib, ommaviy axborot vositalari ham asosiy stavkaga oid press-revizlar va boshqa sharhlarni to'lig'icha yoritib boshladi.

Hisobot yilida ham jamoatchilik bilan rasmiy munosabatlar – o'zaro suhbat va media-muloqotlar o'tkazib borish ishlari takomillashtirib borilmoqda. Markaziy bank auditoriya segmentlari (*investorlar, ekspert-tadqiqotchilar, talabalar, aholi*) bilan ishlashning an'anaviy usullari bilan bir qatorda yangi formatlarini ham amaliyotga tatbiq etmoqda.

Markaziy bank ma'lumotlariga havola qiluvchi, foydalanuvchi ommaviy axborot vositalari sonida sezilarli o'zgarishlar yuz berib, "uz" domenidan tashqari hududlarda ham nashr etilayotgan materiallar soni ortib bormoqda.

3.4.2-chizma

Soʻrovnoma natijalari

Markaziy bank faoliyatidan
xabardorlik darajasiKuzatuvchilar faoliyat turi
bo'yicha tarkibiKuzatuvchilar tomonidan kuzatib
boriladigan asosiy ma'lumotlarAxborotning shakli bo'yicha
o'quvchilarga qulayligiMarkaziy bankning sharhlari va
ma'lumotlari tushunarligi darajasiObunachilar tomonidan Markaziy bank
faoliyati kuzatib boriladigan asosiy
platformalar

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Ma'lumotlardan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish va auditoriyani kengaytirish maqsadida pul-kredit siyosatiga doir e'lon qilinayotgan ma'lumotlar nafaqat moliya bozori ishtirokchilari va pul-kredit siyosati mutaxassislari, balki aholining turli qatlami uchun ham tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratilib, sodda va tushunarli tilda yetkazilishiga harakat qilinmoqda.

Ushbu ma'lumotlar, o'z navbatida, jamoatchilikning axborotlarni asl manbadan olishlari uchun ommaviy rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, videoxostinglar, bosma nashrlarda joylashtirib borilmoqda.

Hisobot yilida jamoatchilikning Markaziy bank faoliyatidan xabardorlik darajasi 75 foizni tashkil etdi. Rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi o'quvchilar soni yil davomida 20 foizga o'sib, 2,3 mln dan oshdi.

Auditoriyaga makroiqtisodiy vaziyat, to'lov balansi, oltin-valyuta zaxiralari va boshqa mavzularda taqdim etib borilayotgan tahliliy materiallar moliya bozori ishtirokchilari faoliyatida aks etib, biznes tuzilmalarning kelgusi rejalarini aniqlashtirish, bozordan zarur signallarni olish va xatti-harakatlariga zarur o'zgartirishlar kiritishda yordam bermoqda.

Bu, o'z navbatida, keng jamoatchilik tomonidan iqtisodiyotning boshqa yo'nalishlarida ham Markaziy bankning tahliliy materiallari va sharhlari doirasini kengaytirishga turtki bo'lmoqda.

IV. MILLIY TO'LOV TIZIMINING RIVOJLANISHI, BANK TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI, AXBOROT MUHOFAZASI VA KIBERXAVFSIZLIK


4.1. Markaziy bankning to'lov tizimlari faoliyati

2024-yilda ham Markaziy bankka yuklatilgan vakolatlar doirasida va hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda to'lov tizimlari ishlashining uzluksizligi va infratuzilmasini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlar, bir tomondan, naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'lamini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ushbu tizimlar faoliyatiga xavf solayotgan kibertahdidlar va firibgarliklarni oldini olishga yo'naltirildi.

Hisobot yilida Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan **1,3 barobarga** oshib, 7 279 trln so'mni tashkil etdi. Tizim orqali bir kunlik o'rtacha tranzaksiyalar hajmi 2023-yildagi **22,1** trln so'mdan **29,2** trln so'mgacha ko'paydi.

4.1.1-chizma

Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmining o'sishi iqtisodiyotdagi jarayonlar ko'lamini, iqtisodiy faollikni hamda Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida pul bozoridagi operatsiyalar hajmining ortib borishi bilan izohlanadi.

2024-yilda “Yevroosiyo Banki” AJ, “Milliy kliring markazi” AJ va “Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi” AJning Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimiga ulanishi hisobiga ushbu to'lov tizimining ishtirokchilari soni **39** taga yetdi.

Shuningdek, to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish borasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirib borildi. Xususan:

- to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi hamda ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilandi;

- to'lov xizmatlarini ko'rsatish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldini olish va boshqarishni tashkil etish maqsadida litsenziya da'vogari tomonidan antifrod tizimi tavsifi taqdim etilishi qayd etildi.

Muhim to'lov tizimi operatorlariga to'lov tizimining ishlashini xalqaro standartlarga, xususan Xalqaro hisob-kitoblar banki (*BIS*) va Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya xalqaro tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan Moliyaviy bozor infratuzilmalari uchun tamoyillarga (*“Principles for financial market infrastructures” – PFMI*) muvofiqligi bo'yicha o'zini o'zi baholashdan o'tkazish va baholash natijalarini o'z rasmiy veb-saytida e'lon qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, hisobot yilida bank tizimida to'lovlar uzluksizligi va tijorat banklarining likvidligini ta'minlash maqsadida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish vaqtiga o'zgartirish kiritildi.


Xususan, har qanday elektron to'lov hujjatlarni soat 8-00 dan 17-00 gacha, tijorat banklari o'rtasidagi pul bozori operatsiyalariga oid elektron to'lov hujjatlarni 17-00 dan 17-30 gacha, Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasidagi pul-kredit operatsiyalariga oid elektron to'lov hujjatlarini esa 17-00 dan 18-00 gacha uzatish belgilandi.

Bu o'z navbatida, banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari o'rtasida hisob-kitoblar amalga oshirilganidan so'ng, vakillik hisobvarag'ida mablag' yetarliligiga oid makroprudensial talab bajarilmay qolishi bilan bog'liq risklarni banklararo pul bozori operatsiyalari va Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlari orqali hal etishga sharoit yaratadi.

Tijorat banklari bo'linmalarini optimallashtirish va ixcham bank xizmatlari markazlarini tashkil etish, mijozlarga istalgan bank bo'linmalari orqali sifatli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi yagona bank kodi (*MFO*) texnologiyasi asosida faoliyat yurituvchi banklar 2 taga ko'payib, **11 taga yetdi**.

Jismoniy va yuridik shaxslarning chakana to'lovlarini real vaqt rejimida o'tkazishga ixtisoslashgan **Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimining** dasturiy ta'minoti takomillashtirilib, uning faoliyati barqarorligi ta'minlandi.

Hisob-kitob kliring tizimi ko'rsatkichlari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi **100,3** trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **29 foizga**, tranzaksiyalar soni esa **123** mln dan ortib, **1,2 barobarga** ko'paydi.

Shu bilan birga, mazkur tizim orqali tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qiluvchi tashkilotlar ro'yxatini kengaytirish, mijozlar uchun qulay va sodda to'lov xizmatlarini joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali to'lovlarni qabul qiluvchi tashkilotlar (*xizmatlar taqdim etuvchilar*) soni hisobot yilida 3 taga ko'payib, **51** taga yetdi.

Aholiga to'lov xizmati ko'rsatilganligi uchun to'lanadigan vositachilik haqini aholidan emas, mablag' oluvchilar hisobidan (*benefitsiarlardan*) undirish bo'yicha yaratilgan tizim imkoniyatidan foydalanish ko'lami yanada kengayib bormoqda.

Xususan, 2024-yil davomida jami **91,4** mln dan ortiq to'lovlar bo'yicha qariyb **183,2** mlrd so'm mablag'lar to'lov xizmati uchun vositachilik haqi (*komissiya*) tarzida mablag' qabul qiluvchilardan banklar va boshqa to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarga to'lab berildi.


Hisobot yilida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'lov operatsiyalarini tunu-kun "24/7" rejimida onlayn amalga oshirish imkonini beruvchi Markaziy bank **Tezkor to'lovlar tizimining** barqaror ishlashi ta'minlandi.

2024-yilda mazkur tizim orqali amalga oshirilgan **tranzaksiyalar** soni 2023-yilga nisbatan **1,5 barobarga** oshib **47,5** mln tani, **to'lovlar hajmi** ham **1,5 barobarga** oshib **917,9** trln so'mni tashkil etdi.

Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar ko'lamining ortib borishi natijasida, hisobot yili yakuniga kelib xo'jalik yurituvchi subyektlar jami to'lov hujjatlarining **95** foizi bankka tashrif buyurmagan holda masofadan amalga oshirilgan.

Hisobot yilida ushbu tizimdan amalga oshirilgan jami tranzaksiyalar sonida **kechki/tungi vaqtda** amalga oshirilgan amaliyotlar ulushi 2023-yilga nisbatan 10 foiz bandga ko'payib, 38 foizni tashkil etgan.

4.1.3-chizma

Tezkor to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

G'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarga ham xarajatlarini (*ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bank ish kuniga bog'liq bo'lmagan holda*) 24/7 rejimida onlayn tartibda Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirish imkoniyati yaratilishi natijasida tizim orqali o'tkazilayotgan amaliyotlar ko'lami oshib bormoqda.

Xususan, 2024-yilda 11,9 mln dan ortiq (*2023-yilga nisbatan 3,7 barobar ko'p*) yoki 115 trln so'mlik to'lovlar (*2023-yilga nisbatan 4,8 barobar ko'p*) G'aznachilik tizimidagi budjet tashkilotlari va Markaziy bank tizimidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan.

4.2. Bank kartalariga asoslangan chakana to'lov tizimlarining rivojlanishi

2024-yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish borasida bank kartalariga asoslangan chakana to'lov tizimlari infratuzilmasini va mavjud infratuzilmadan foydalanish imkoniyatini kengaytirish ishlariga ham alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-267-son qaroriga muvofiq "Ijtimoiy karta" tizimini joriy etish doirasida bank tizimiga yuklatilgan vazifalarni ijro etish borasida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari va to'lov tizimi operatorlari bilan birgalikda muayyan ishlar amalga oshirildi.

Xususan, aholining ijtimoiy muhtoj toifasiga kiruvchi qatlami uchun ijtimoiy kartalarni emissiya qilish hamda unga xizmat ko'rsatish bo'yicha moliyaviy agent funksiyasi AT "Aloqabank" va AT "Xalq banki" zimmasiga yuklatilib, alohida BIN raqamli ijtimoiy kartalarni emissiya qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, ijtimoiy kartalarga to'lov infratuzilmalarida, xususan bankomatlar tarmog'i va bank kassalaridagi terminallarda xizmat ko'rsatish bo'yicha tijorat banklari tomonidan maqbul tariflar o'rnatildi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga berilgan barcha to'lov terminallarning MCC-kodlari (*mijoz toifasi kodi*) to'liq xatlovdan o'tkazilib, mijozlarning faoliyat turiga muvofiqlashtirilishi ta'minlandi. Qaror ijrosi doirasida "Uzcard" to'lov tizimidagi 254,2 mingdan ortiq va "HUMO" to'lov tizimidagi qariyb 232,2 ming dona terminallar xatlovdan o'tkazilib, MCC-kodlari biriktirildi.

Bunda, to'lov terminallariga tegishli MCC-kodlar xalqaro to'lov tizimlarining (*VISA, Mastercard*) standartlari asosida belgilandi.

Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan mijozlarga ajratilayotgan to'lov terminallariga ularning faoliyat turidan kelib chiqib, MCC-kodni to'g'ri biriktirilishi majburiy bo'lgan qoida belgilandi.

Bugungi kunda chakana savdo nuqtalarida qo'llanilayotgan mavjud nazorat-kassa mashinalari yordamida ijtimoiy karta orqali to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini yaratish yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hisobot yil yakuniga kelib respublika bo'yicha jami 69,2 ming dona nazorat-kassa mashinalaridan 40,5 ming donasi yoki 60 foizida ijtimoiy karta orqali to'lovlarni qabul qilish imkoniyati yaratildi.


Qayd etish joizki, "Ijtimoiy karta" axborot tizimi orqali ijtimoiy nafaqalarni to'lash 2024-yil 1-dekabrda Toshkent shahri va Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida tajriba-sinov tariqasida joriy etilgan.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining oshib borayotganligi, o'z navbatida, bank kartalariga bo'lgan talabning ortib borishiga xizmat qilmoqda. Xususan, 2024-yilda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni **34** foizga o'sib, **62,0** mln donaga yetdi.

Aholiga respublika va xorijiy to'lov tizimlari infratuzilmasida bir karta orqali hisob-kitoblarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi **kobeydjing** bank kartalari soni 2023-yilga nisbatan qariyb **1,5 barobarga** oshib, 4,5 mln donaga yetdi.

4.2.1-chizma

Bank kartalari soni




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2024-yilda 426 mingta to'lov terminallari orqali qabul qilingan to'lovlar hajmi 2023-yilga nisbatan **1,2 barobarga** oshib, **326,7 trln so'mni** tashkil etdi.

Chakana to'lovlar tizimlarining funksionali va infratuzilmasini kengayib borayotganligi hamda ushbu bozorda raqobat muhitining shakllanayotganligi milliy to'lov tizimlari ishtirokchilari tomonidan terminallar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida ham tarkibiy o'zgarishlarga olib keldi.


Xususan, 2024-yilda jami terminallar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida Humo terminallari ulushi **40,5 foizni** va Uzcard terminallari ulushi **59,5 foizni** tashkil etgan.

4.2.2-chizma

Banklar tomonidan o'rnatilgan
terminallar soni

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

4.2.3-chizma


To'lov terminallari orqali amalga
oshirilgan tranzaksiyalar

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchilariga qulaylik yaratish maqsadida bank infratuzilmalari hamda turizm obyektlariga o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni hisobot yilida **12 foizga** oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga **29,9** mingdan ortiqni tashkil etdi.

Bunda, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalarini (*bankomat, infokiosk va avtomatlashtirilgan depozit mashinalarini*), birinchi navbatda, turistik massivlar, yirik infratuzilma markazlari va boshqa muhim ijtimoiy infratuzilma obyektlarida o'rnatilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

4.2.4-chizma

Bankomat va infokiosklar soni



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


2024-yilda milliy to'lov tizimlari hisoblangan "Humo" va "Uzcard" o'rtasida bankomatlar tarmog'ini o'zaro integratsiya qilish ishlari to'liq tugatildi va bank kartalari foydalanuvchilari uchun ikkala to'lov tizimi infratuzilmasidagi bankomatlardan muqobil foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Hisobot yilida jami bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi 191,7 trln so'mni va tranzaksiyalar soni esa 301,3 mln tani tashkil etadi.

Hisobot yilida masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi bank mijozlari soni qariyb **1,2 barobarga** oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 52,9 mlnga yetdi. Bunda, ushbu foydalanuvchilarning 1,5 mln tasi **tadbirkorlik subyektlari**, 51,4 mln tasi **jismoniy shaxslar** bank kartalari hissasiga to'g'ri keladi.

Banklarning mobil ilova dasturlari orqali jismoniy shaxslarning masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirgan operatsiyalari hajmi hisobot yilida **1,6 barobarga** oshib **396,7** trln so'mni tashkil etdi.

4.2.5-chizma

Bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shu jumladan, mobil ilova dasturlari orqali amalga oshirilgan **onlayn depozit operatsiyalari hajmi** – 77,8 trln so'm, **onlayn konversiya amaliyotlari** – 36,3 trln so'm, **onlayn mikroqarzlari** – 24,4 trln so'm va **kreditlarni so'ndirish hajmi** – 29,7 trln so'mni tashkil etdi.

Aholi uchun bazaviy bank xizmatlarini (*omonat va konversiya amaliyotlari, mikroqarz olish, bank kartasiga buyurtma berish, identifikatsiyadan o'tish*) onlayn rejimda bajarish imkoniyati, **tadbirkorlik subyektlari** uchun esa to'lovlarni hisob-kitob terminallaridan tashqari QR-kod, NFC va boshqa kontaktsiz to'lov texnologiyalarini qo'llagan holda qabul qilish xizmatlari ko'lami kengaytirib borildi.

4.2.6-chizma

QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Xususan, 2024-yilda “QR-online” axborot tizimi tomonidan tadbirkorlik subektlariga taqdim qilingan QR-kodlar soni qariyb **108** ming donaga yetkazilib, unda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan qariyb **1,3 barobarga** ortib **441,8** mlrd so‘mga yetdi.

Shu bilan birga, kontaktsiz to‘lov texnologiyasini kengaytirish doirasida “HUMO PAY” dasturi orqali bank kartasidan bevosita foydalanmasdan savdo hamda pullik xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish xizmati **20** ta tijorat bankining mobil ilovalari orqali ko‘rsatib kelinmoqda.

Kontaktsiz to‘lov xizmatlarini rivojlantirish doirasida joriy etilgan **Tap-to-phone** tizimi (*to‘lov terminali kabi to‘lov qabul qilish imkonini beradi*) xizmatlaridan foydalanuvchi subyektlar soni 2025-yilning 1-yanvar holatiga **qariyb 3,2 ming** taga yetdi.

2024-yilda NFC texnologiyasi asosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan **1,1 barobarga** oshgan holda **41,4** trln so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2025-yil 1-yanvar holatiga **Face ID** texnologiyasidan foydalanadigan tijorat banklari soni **28** taga, to‘lov tashkilotlari soni esa **15** taga yetib, banklar va to‘lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali raqamli identifikatsiyadan o‘tgan mijozlar soni 2024-yil 1-yanvarga nisbatan **5,4** mln taga ortgan holda, hisobot yili yakuniga kelib **12,2** mln taga yetdi.

Mazkur o‘suvcu tendensiya mijozlarga, nafaqat to‘lovlarni onlayn rejimida bankka bormasdan turib amalga oshirish, balki bank hisobvaraqlarini ham masofadan identifikatsiya qilish tizimi (*Face ID*) orqali ochish imkoniyatlarini yaratilganligi bilan izohlanadi.

4.3. To‘lov xizmatlari bozorida to‘lov tashkilotlari faoliyati


Hisobot yilida to‘lov xizmatlari bozorida raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida Markaziy bank tomonidan to‘lov tashkilotlariga litsenziyalarning berilishi davom ettirildi va to‘lov tashkilotlari soni **44** taga yetdi.

Bu esa, aholiga to‘lov xizmatlari ko‘rsatishda nafaqat tijorat banklari, balki to‘lov tashkilotlarining xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

2024-yilda to‘lov tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2023-yilga nisbatan **1,8 barobarga** ko‘payib, 333 trln so‘mni tashkil qildi.

Hisobot yilida jismoniy shaxslar tomonidan to‘lov tashkilotlarining xizmatlaridan foydalangan holda kommunal xizmatlar uchun – 26,2 trln so‘m, mobil operatorlar xizmatlari uchun – 14,8 trln so‘m, davlat xizmatlari uchun – 14,3 trln so‘m, kredit to‘lovlari uchun – 5,7 trln so‘m, budget va soliq to‘lovlari uchun – 5,3 trln so‘m mablag‘ o‘tkazilgan.


4.3.1-chizma

**To'lov tashkilotlari tomonidan 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan
tranzaksiyalar hajmi**

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

To'lov xizmatlari bozorida elektron pullar tizimlarining joriy etilishi naqd pulsiz hisob-kitoblarning yanada rivojlanishi va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qilmoqda.

4.3.2-chizma

**2024-yilda to'lov tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan
to'lovlarning maqsadlari bo'yicha tarkibi**

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2025-yilning 1-yanvar holatiga Markaziy bankning elektron pullar tizimlari reyestriga 12 ta elektron pullar tizimlari kiritilgan bo'lib (ro'yxati rasmiy veb-saytda mavjud), mazkur tizimlarda ochilgan elektron hamyonlar soni hisobot yilida 15,6 mln tadan 20,6 mln tagacha oshdi.

Shuningdek, hisobot yilida elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2023-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib 21,8 mln tani, tranzaksiyalar hajmi esa 775 mlrd so'mni tashkil etdi.


Elektron hamyon egalari tomonidan o'tkazilgan tranzaksiyalarning 92 foizi tadbirkorlik subyektlariga tovarga (*xizmat, ishlar*) to'lovni amalga oshirish uchun hamda 8 foizi jismoniy shaxslarga mablag' o'tkazishga yo'naltirilgan.

Elektron pullar vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning 25 foizi mobil operator xizmatlari, 23 foizi kommunal xizmatlar, 13 foizi davlat xizmatlari uchun to'lovlar, 8 foizi joyida xaridlar uchun to'lovlar va boshqa xizmatlar uchun o'tkazilgan to'lovlarni tashkil etadi.

Aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida xaridlar bilan bir vaqtda bank kartalari egalariqa naqd pul berish xizmati virtual kassa tarmog'i bilan ta'minlangan "Paynet" AJning respublika bo'ylab barcha hududlardagi to'lov agentlari tomonidan "tartibga solish qumdoni" doirasida ko'rsatilishiga ruxsat berilib, 2024-yilda "Paynet" AJ to'lov tashkilotining 23 267 ta to'lov agentlari orqali 870,5 mlrd so'mlik (*1 406 230 ta tranzaksiya*) naqd pul mablag'larini berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatildi.

4.3.3-chizma

2024-yilda elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan to'lovlar maqsadlari bo'yicha tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mazkur to'lov tashkiloti tomonidan ko'rsatiladigan bank kartalari saqllovchilariga naqd pul yechib berish xizmati aholimizning naqd pulga bo'lgan talabini nafaqat bank kassalari va bankomatlar tarmog'i orqali, balki "Paynet" AJning to'lov agentlik tarmog'i orqali ham to'lov agentlarining kunlik naqd pul tushumlari doirasida qondirish imkonini beradi.

4.4. To'lov tizimlari va tijorat banklari axborot tizimlarida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash

Hisobot yilida kredit va to'lov tashkilotlari, to'lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolarining axborot tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish borasida zarur choralar ko'rib borildi.

Xususan, "To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish choralari ko'rish to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilib, amaliyotga kiritildi.

Shuningdek, onlayn kredit (*mikroqarz*) rasmiylashtirish bilan bog'liq firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida, vaqtinchalik tartib ishlab chiqildi va unda kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan onlayn kredit (*mikroqarz*)lar firibgarlar qo'liga tushib qolishini oldini olish maqsadida **48 soatgacha bo'lgan cheklovlar** joriy qilindi.

Vaqtinchalik tartibda belgilangan cheklovlar noyabr oyidan boshlab kuchga kirdi va yil yakuniga qadar **28 138** ta holatda ajratilgan **304,1** mlrd so'm miqdordagi pul mablag'lari mijoz o'z shaxsini tasdiqlash uchun qo'shimcha identifikatsiyadan o'tmaganligi sababli kredit tashkilotining hisobiga qaytarildi.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik holatlari to'g'risida fuqarolardan Markaziy bankka kelib tushgan murojaatlar bo'yicha olib borilgan tezkor chora-tadbirlar natijasida 2024-yil davomida **9,5** mlrd so'm miqdoridagi pul mablag'lari bloklanishiga erishildi.

2024-yilda Markaziy bankka huquqni muhofaza qiluvchi organlardan bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik holatlarida qatnashgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni qonunchilikka muvofiq sanksiya asosida olish bo'yicha **2 502** ta murojaat kelib tushdi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari, shuningdek ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda firibgarlik holatlarida ishtirok etgan bank kartalarini bloklash hamda mazkur bank kartalaridagi pul mablag'larini mobil ilovalar orqali xorijiy hisobraqamlarga o'tkazishni oldini olish bo'yicha ham tegishli choralar ko'rib borilmoqda.

Bank kartalari bilan bog'liq shubhali (*frod*) operatsiyalarning oldini olish, firibgarlik sxemalarida jismoniy shahslarga tegishli hisobvaraqlar va bank kartalari ishtirokini kamaytirish maqsadida banklar tomonidan bitta jismoniy shaxsga bitta bankda 5 tagacha, barcha banklarda 20 tagacha belgilash bo'yicha vaqtinchalik tartib joriy etildi.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarliklar to'g'risida 24 ta teleko'rsatuv, 6 ta radioeshittirish hamda onlayn kredit ajratish jarayonida firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida tasdiqlangan vaqtinchalik tartib haqida 2 ta teleko'rsatuv va 1 ta podkast loyihalarida Markaziy bank xodimlari ishtirok etishdi.

Kibertahdidlarni aniqlash, oldini olish va yangi turlariga qarshi choralar ko'rish maqsadida Soteryan LLC xalqaro tashkiloti bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, Markaziy bank kiberxavfsizlik sohasidagi yangi yechimlar ustida hamkorlikda ishlashni qo'llab-quvvatlash va kiberhujumlar yuz berganda a'zo tashkilotlarga yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan OIC-CERT hamda fishingga qarshi kurashish bo'yicha APWG xalqaro tashkilotlar a'zoliciga qabul qilindi.

Raqamli mahsulotlar (*xizmatlar*) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari doirasida:

- bank kartalari bilan bog'liq shubhali frod operatsiyalarni aniqlash va oldini olish maqsadida, Markaziy bankda **markazlashgan antifrod tizimi** test-sinov tariqasida joriy etildi va ushbu axborot tizimiga **34 ta bank va 9 ta to'lov tashkiloti** integratsiya qilindi;

- internet tarmog'idagi axborot resurslarida bank karta ma'lumotlari tarqalishi bo'yicha xabardor bo'lish hamda ularni monitoring qilish maqsadida **monitoring axborot tizimi** test-sinov tariqasida joriy qilindi;

- banklar, xalqaro va mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlikda tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda bank kartalari bilan ishlash yo'nalishida ishlovchi 350 dan ziyod xodimlarga o'quv-seminarlar tashkil etildi.

Fuqarolarning kiberjinoyatlar qurboniga aylanishini oldini olish hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda fuqarolarda "**kibergigiyena**"ni shakllantirish maqsadida "**Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi**" targ'ibot tadbirlarida hamda ushbu tadbirlar doirasida tashkil etilgan **36 ta teleko'rsatuvda** Markaziy bank xodimlari ishtiroki ta'minlandi

4.5. Markaziy bank tizimida raqamli texnologiyalarini joriy etish va faoliyatni raqamlashtirish

2024-yilda Markaziy bankning raqamli texnologiyalari infratuzilmalarini rivojlantirish va faoliyatni raqamlashtirishda asosiy e'tibor ma'lumotlar almashinishida integratsiyalashuvni jadallashtirish, ma'lumotlarni saqlovchi server va aloqa uskunalari, zamonaviy biznes-tahliliy vositalari va boshqa dasturiy ta'minotlarni xarid qilish va amaliyotga joriy etish, zamonaviy va yuqori texnologik yechimlarni tatbiq etish bo'yicha loyiha va tashabbuslarni amalga oshirishga qaratildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida:

– tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar uchun amalga oshirilgan valyuta oldi-sotdi operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobini yuritishga mo'ljallangan "Valyuta operatsiyalari hisobini yuritish axborot tizimi" (*FERUZ*) axborot tizimi;

– tijorat banklari bo'linmalari o'rtasida naqd pullar va vakillik hisobvarag'i hisobini yuritishda qulayliklar yaratish, naqd pullar va vakillik hisobvarag'ining almashinuvini tezlashtirish va shaffof elektron bozori tizimini yaratish, barcha tijorat banklari bo'linmalariga teng huquqlar va shartlar asosida ishtirokini ta'minlash imkoniyatini beruvchi "**Naqd pullarning elektron maydoni**" axborot tizimi;

– Markaziy bankning Bank depozitorlari milliy axborot bazasi (*BDMAB*) tizimlari funksionali takomillashtirib borildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-iyuldagi PF-100-sonli farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi va Markaziy bank axborot tizimlari o'rtasida **axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi**.

Markaziy bankning "Kredit axborotining davlat reyestri" bazasi ma'lumotlaridan foydalanish va uni tahlil qilish imkonini beradigan biznes tahliliy tizimi va Soliq qo'mitasining axborot tizimi o'rtasida integratsiyasi natijasida ma'lumotlarni saqlash uchun "TaxData" dasturiy majmuasi ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-apreldagi "Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha aktivlar repatratsiyasi va soliq majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 251-sonli qaroriga asosan qo'mitaning "**E-Kontrakt**" axborot tizimi bilan tijorat banklari axborot tizimlari intgeratsiya qilindi.

Bundan tashqari, Soliq va Bojxona qo'mitalari, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari penciya jamg'armasi bilan elektron to'lov hujjatlari bo'yicha tijorat banklari bilan axborot almashinuvi ishlari takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining axborot tizimlari va "Raqamli hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi (IIP) o'rtasida o'zaro elektron hamkorlik qilish bo'yicha yangi texnologik yo'riqnoma ishlab chiqildi.

Moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi va Markaziy bank o'rtasida valyuta hisobraqamlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yildi.

Markaziy bank mutaxassislari uchun "Kredit axborotining davlat reyestri" ma'lumotlari bazasidan foydalanish va tahlil qilish imkonini beruvchi "**Matrix BI**" tizimi xarid qilindi, hisobotlar va tahliliy ma'lumotlarni avtomatik ravishda shakllantirishni ta'minlovchi qo'shimcha dasturiy modullar ishlab chiqilib, "Matrix BI" dasturiga integratsiya qilindi va to'liq ishga tushirildi.

Hisobot yilida Markaziy bankning barcha axborot tizimi va ma'lumotlar bazalari ma'lumotlarini tahlil qilish, hisobotlarni shakllantirish va dashbordlar yaratishga mo'ljallangan **Qlik Sense** biznes-tahliliy vositasi xarid qilindi va amaliyotga joriy etilib, mazkur vosita orqali foydalanuvchi tahlilchilar o'qitildi va bugungi kunda ularning Markaziy bankda raqamlashtirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi ta'minlandi.

Markaziy bank tomonidan **2 ta** yangi elektron ma'lumotnomalar ishlab chiqilib bank tizimiga joriy etildi va natijada, Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan elektron ma'lumotnomalar soni 124 taga yetdi.

Mazkur ma'lumotnomalar doimiy ravishda ehtiyojlardan kelib chiqib (*talablar asosda*) yangilanib, Respublika to'lov tizimlarida foydalanish uchun vazirlik, idoralar, tijorat banklari, nobank kredit tashkilotlari axborot tizimlarida foydalanish uchun yetkazib borilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti (www.cbu.uz)ning uzluksiz ishlashini ta'minlash, sayt dizayni va tuzilmasini takomillashtirish hamda ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida bir yoki bir nechtasini (*yoki hammasini*) vizual (*grafiklar*) ko'rinishda olish imkoniyatlari kengaytirish ishlari davom ettirildi.

Aholi va tadbirkorlik subyektlariga hamda xorijiy investorlarga Markaziy bank tizimiga oid bo'lgan ochiq ma'lumotlarni ochiqlik va shaffoflikka amal qilgan holda ochiq ma'lumotlar 1 taga ortdi va 61 taga yetib, O'zbekiston Respublikasining "**Ochiq ma'lumotlar portali**"ga o'z muddatida va to'liq hajmda joylashtirib borilmoqda.

Markaziy bankning barqaror va samarali ishlashini ta'minlash, mavjud axborot texnologiyalari infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimidagi mavjud kompyuter parkini yangilash hamda ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash qurilmalarini xarid qilish to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki infratuzilmasini kompleksli IT-modernizatsiya qilish to'g'risida"gi qarorlari tasdiqlanib, ushbu qarorlar ijrosi bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

4.6. Markaziy bankda samarali va yuqori texnologik nazorat tizimini joriy etish va takomillashtirish

Hisobot yilida Markaziy bankda ma'lumotlarni boshqarishning yuqori texnologik tizimini yaratishda asosiy e'tibor nazorat hisobotlarining sifatini va mavjud tahliliy salohiyatni oshirishga qaratildi.

Bu borada Nazorat hisobotlarini avtomatlashtirish (*ADR*) loyihasini amalga oshirish ishlari boshlanib, mazkur loyihaning murakkabligi va unikalligidan kelib chiqib, ikki bosqichda – “Konsalting xizmatlarini jalb qilish” va “Ma'lumotlarni boshqarish tizimini joriy etish va ma'lumotlar omborxonasini yaratish” loyihalarini amalga oshirish belgilab olindi.

Nazorat hisobotlarini avtomatlashtirish (*ADR*) loyihasining birinchi bosqichini amalga oshirish maqsadida konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi “KPMG Audit” MChJ va hamkor sifatida “Business Reporting – Advisory Group” kompaniyalari jalb qilindi.

Bunda, KPMG bilan birgalikda Markaziy bankning ma'lumotlar bilan ishlashning joriy holatini o'rganish va tahlil natijasida ma'lumotlarni boshqarishning maqsadli tizimi uchun lozim barcha hujjatlar loyihalari, jumladan **ma'lumotlarni boshqarish** bo'yicha xalqaro standartlar va amaliyotlarga mos ravishda ma'lumotlar boshqaruvi jarayonlari loyihalari ishlab chiqildi.

Markaziy bankning tarkibiy bo'linmalari tomonidan nazorat osti tashkilotlardan olinadigan barcha **ma'lumotlar reyestri shakllantirildi** va ular asosida **integratsiyalashgan ma'lumotlar** (*Markaziy bankning ma'lumotlarga bo'lgan barcha ehtiyojlarini qamrab oluvchi yagona ma'lumotlar lug'atidan foydalanadigan integratsiyalashgan ma'lumotlar*) modeli ishlab chiqildi.

Shuningdek, Markaziy bankning nazorat osti tashkilotlari uchun tartibga soluvchi va statistik ma'lumotlarni to'plashning yangi markazlashgan va standartlashtirilgan tizimiga o'tish uchun tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan “Nazorat hisobotlarini shakllantirishning yangi tartibiga o'tishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Tavsiyalar” (*RegTech*) loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan keng qamrovli ishlar KPMG bilan birgalikda tayyorlangan **“Ma'lumotlarni boshqarish tizimini transformatsiya qilish yo'l xaritasi”** loyihasida ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, maqsadli dasturiy yechimning asosiy biznes talablari va axborot texnologiyalari arxitekturasini belgilab beradigan Markaziy bankning tahliliy axborot tizimini joriy qilish uchun Texnik topshiriq ishlab chiqildi.

Ushbu texnik topshiriq:

– Markaziy bank va nazorat osti tashkilotlar o'rtasida API (*Application Programming Interface*) orqali **ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda almashish** hamda **elektron imzolardan** foydalangan holda Markaziy bank tomonidan berilgan topshiriqlarni olish va ularga javob berish imkonini beruvchi yagona vosita – **“shaxsiy kabinet”**ni (*portalni*) ishlab chiqish;

– ma'lumotlarni boshqarish tizimini (*ma'lumotlar lug'ati, ma'lumotnoma va ma'lumotlar sifati*) samarali boshqarish uchun dasturiy ta'minotlarni joriy qilish;

– barcha zarur komponentlarni o'z ichiga olgan **zamonaviy ma'lumotlar omborxonasini** ishlab chiqish;

– shuningdek, yuqoridagi komponentlarning barqaror ishlashini ta'minlovchi umumiy tizimni ishlab chiqish kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

Konsalting xizmatlarini jalb qilish loyihasi doirasida BR-AG kompaniyasi tomonidan Markaziy bankning tegishli mutaxassislari uchun **ma'lumotlarni modellashtirish**, jumladan DPM (*Data Point Modeling*) metodologiyasi to'g'risida hamda ma'lumotlar lug'atini yurituvchi **“Atome matter”** axborot tizimidan foydalanish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazildi.

Shuningdek, Chexiyaning “KPMG Global kompetentlik markazi” tomonidan Markaziy bankning ma'lumotlar bilan ishlaydigan xodimlariga seminarlar o'tkazilib, tinglovchilar xalqaro DAMA metodologiyasi bo'yicha ma'lumotlarni boshqarish tamoyillari, asosiy funksiyalari, ma'lumotlar hamda texnologiyalar arxitekturasini va boshqa tushunchalar bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishdi.

V. PUL MUOMALASINI TASHKIL ETISH

2024-yilda pul muomalasi aholi daromadlarining, jumladan, ish haqi, pensiya va boshqa ijtimoiy to'lovlarning barqaror o'sib borayotgan sharoitlarda hamda naqd-pulsiz hisob-kitoblarning takomillashtirish hamda naqd pullardan foydalanish samaradorligini oshirish zaruratlaridan kelib chiqqan holda shakllantirildi.

Bunda, asosiy e'tibor, iqtisodiyotda naqd pulga bo'lgan talabni uzluksiz ta'minlashga, pul belgilarining nominal qatorini optimallashtirishga hamda sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali aholining naqdsiz hisob-kitoblar qilish imkoniyatlari va ko'lamini kengaytirish hamda naqd pullarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishga qaratildi.

5.1. Naqd pul aylanmasi dinamikasi va undagi tarkibiy o'zgarishlar


2024-yilda naqd pullar tushumi va chiqimi dinamikasi o'zining doimiy trendi doirasida shakllanib, naqd pullarning banklar orqali aylanmasi 1 010 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshdi.

Bunda, bank kassalariga kelib tushgan naqd pullar hajmi o'tgan yilga nisbatan 21 foizga o'sdi. 501 trln so'm bank kassalariga naqd pul tushumlari hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hisobot yilida **34,4** foizni tashkil etib, 2023-yil darajasida saqlanib qoldi.

Bank kassalariga naqd puldagi jami tushumlar tovarlar sotishdan tushgan naqd pullar hajmining 13,9 foizga, pullik xizmatlar sohasidan tushumlarning – 38,5 foizga, bank xizmatlari (*aholi tomonidan bank omonatlariga qo'yilmalar, kredit to'lovi, naqd valyuta sotib olish va konversiya operatsiyalari*) bo'yicha tushumlarning – 24,0 foizga, soliqlar va boshqa manbalardan tushumlarning 20,5 foizga o'sishi hisobiga ko'paydi.

5.1.1-chizma

Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jami naqd pul tushumlarida tovarlar sotishdan tushumlar ulushi 35,7 foizni, bank xizmatlari bo'yicha tushumlar – 34,3 foizni, pullik xizmatlar sohasidan tushumlar – 11,7 foizni, soliqlar va boshqa sohalardan tushumlar – 18,3 foizni tashkil etdi.

Banklar kassalariga naqd pul tushumlarining ko'payishi, o'z navbatida, iqtisodiyotda tovar va pullik xizmat ko'rsatish aylanmalarining oshib borishi hamda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank kassalariga naqd pul tushumini topshirish mexanizmini takomillashtirib borilayotganligi bilan izohlanadi.


2024-yilda aholi va xo'jalik subyektlari tomonidan banklardan olingan naqd pullar hajmi 2023-yilga nisbatan 22,1 foizga yoki 92,2 trln so'mga oshib, **509,6 trln so'mni** tashkil etdi.

Naqd pulga bo'lgan talabning oshishi asosan:

- bank kartalariga kirim qilingan va kartalardagi mablag'larni naqdlashtirish hajmining 36,7 trln so'mga;
- xalqaro pul o'tkazmalarining 30 foizga ko'payishi natijasida banklar tomonidan aholidan naqd chet el valyutasini sotib olish hajmining 27,0 trln so'mga;
- omonat hisobvaraqlaridan yechib olingan (*jumladan, yangi omonatga joylashtirish maqsadida*) naqd pullar hajmining 11,8 trln so'mga;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan boshqa maqsadlar uchun olingan naqd pullarning 17,2 trln so'mga oshganligi bilan izohlanadi.

5.1.2-chizma

Naqd pullarning berilishi bo'yicha yo'nalishlari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Hisobot yilida tijorat banklari tomonidan naqd pullarni mustaqil boshqarishga mo'ljallangan **“Naqd pullarning elektron maydoni”** platformasi to'liq ishga tushirilib, Markaziy bankning naqd pullarni banklar o'rtasida qayta taqsimlashdagi ishtiroki kamaytirildi.

2024-yilda mazkur platformadan foydalanuvchilar soni 922 tani tashkil etib, shundan 20 tasini – Markaziy bank tizimidagi, 16 tasi – inkassatsiya xizmatidagi muassasalari va 886 tasi –tijorat banklari filiallari tashkil qiladi.

2024-yilda ushbu platforma orqali jami 148 trln so'mlik naqd pul bo'yicha kelishuvlarning 37,5 trln so'mi tijorat banklari o'rtasida amalga oshirilgan bo'lsa, 54,9 trln so'mi Markaziy bankdan tijorat banklariga va 55,6 trln so'mi tijorat banklaridan Markaziy bankka yetkazib berildi.

5.1.3 -chizma

**“Naqd pullarning elektron maydoni” axborot tizimi orqali
2024-yilda amalga oshirilgan naqd pul aylanmalari**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bundan tashqari, tijorat banklarining naqd pul operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlarini (*kassa, tashish, saqlash*) optimallashtirish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini ixchamlashtirish maqsadida ularning ayrim kassa operatsiyalarini sinov tariqasida “Respublika inkassatsiya xizmati”ga outsorsingga berish amaliyoti boshlandi.

Autsorsing asosida:

– banklar mijozlarining naqd pul tushumlarini qabul qilish va ularning hisobvaraqlariga o'tkazib berish;

– qabul qilingan naqd pullarni qayta sanash, saralash, o'rab-bog'lash va banklar buyurtmasiga asosan ularni naqd pul bilan ta'minlash;

– pul omborxonalariga ega bo'lmagan bank muassasalari (*BXM, BXOlar*)ning naqd pul va boshqa qimmatliklarini saqlab berish xizmatlarini ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

2024-yilda 7 ta “Inkassatsiya markaz”lari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlaridan qabul qilingan jami 350 mlrd so‘m naqd pul mablag‘lari autsorsing asosida banklarga yetkazib berildi.

Shuningdek, 451 ta bank bo‘linmalariga kun oxiridagi qimmatliklarini saqlab berish xizmatlari ko‘rsatilmoqda.

5.2. Muomaladagi naqd pullar va ularning tarkibiy o‘zgarishi

2024-yilda muomaladagi naqd pullar tarkibi eski namunadagi banknotlarni yangi namunadagi banknotlar bilan almashtirish hamda naqd puldagi hisob-kitoblarni qulaylashtirish choralaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borildi.

2024-yil yakuni bo‘yicha muomaladagi naqd pullarning (*M0*) YaIMga nisbati 2023-yildagi darajada saqlanib, **3,7** foizni tashkil etgan bo‘lsa, jami pul massasidagi ulushi esa 21,5 foizdan **19,2** foizga qisqardi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga muomaladagi naqd pullar hajmi (*tijorat banklari kassalaridagi naqd pullar qoldig‘i hisobga olingan holda*) 2023-yilning mos davriga nisbatan 10,3 trln so‘mga yoki 18,5 foizga ko‘paydi.

Hisobot yilida muomaladagi naqd pullar tarkibida 1 000 so‘m, 5 000 so‘m hamda 50 000 so‘m nominalidagi banknotlarning jami 743 mlrd so‘mga kamayishi hamda 2 000 so‘mlik, 10 000 so‘mlik, 20 000 so‘mlik, 100 000 so‘mlik va 200 000 so‘mlik banknotlarning jami 10,9 trln so‘mga ko‘payishi kuzatildi.

Muomaladagi tangalar hajmi esa 1,3 barobarga oshib, jami muomaladagi pul belgilari tarkibidagi ulushi o‘zgarishsiz 0,3 foiz doirasida qoldi.


Hisobot yilida 2021-yilgacha muomalaga chiqarilgan va banklar kassalariga qabul qilingan 5 000, 10 000, 50 000 va 100 000 so‘mlik banknotlar yangi namunadagi banknotlar bilan almashtirish jarayonlari davom ettirildi.

2024-yilda 5 000 so‘mlik banknotlar tarkibida yangi namunadagi banknotlar ulushi 33 foizdan **75** foizga, 10 000 so‘mlik banknotlar – 36 foizdan **76** foizga, 50 000 so‘mlik banknotlar – 39 foizdan **75** foizga va 100 000 so‘mlik banknotlar – 61 foizdan **82** foizga ko‘paydi.

Natijada, 2025-yil 1-yanvar holatiga yangi namunadagi (*2021-2022-yillar namunasi*) banknotlar sonining (2 000, 20 000, 200 000 so‘mlik banknotlar bilan birga) muomaladagi jami banknotlar sonidagi ulushi 2023-yildagi 45,6 foizdan **76,3** foizga (*miqdor bo‘yicha ulushi esa 62,3 foizdan 85,5 foizga*) ko‘paydi.

5.2.1-chizma

Muomalaga chiqarilgan pul belgilari (banknotlar va tangalar)ning nominal qiymatlari bo'yicha ulushi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Muomaladagi naqd pullar tarkibida asosan yangi namunadagi va yangi nominaldagi yirik banknotlar ulushining oshishi hisobiga muomaladagi banknotlar soni 2024-yil boshiga nisbatan 152,1 mln donaga yoki 7,5 foizga ko'payib, bir kishiga to'g'ri keladigan banknotlar soni o'rtacha 57 tani tashkil qildi.

5.2.2-chizma

Yangi namunadagi 5 000, 10 000, 50 000 va 100 000 so'm nominaldagi banknotlarning ulushi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


5.3. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar

Iqtisodiyotda hisob-kitob infratuzilmalarining raqamlashtirilishi hamda aholi orasida naqdsiz to'lovlarning ommalashib borishi, bir tomondan, bank kartalariga kelib tushayotgan mablag'lar hajmining oshib borish, boshqa tomondan, ushbu mablag'larni naqdlashtirish operatsiyalarining qisqarish tendensiyalarini kuchaytirmoqda.

Xususan, 2024-yilda bank kartalariga tushgan mablag'lar 2023-yilga nisbatan 244,7 trln so'mga yoki **31** foizga ko'paygan. Bank kartalaridagi mablag'larni naqdlashtirish hajmi 19,4 foizga oshib, 225,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, bank kartalariga kelib tushgan mablag'larni naqdlashtirish darajasi esa o'tgan yildagi 24,0 foizdan **21,8** foizgacha qisqardi.

5.3.1-chizma

Bank kartalaridan naqdlashtirish hajmlari dinamikasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Pul muomalasidagi tarkibiy o'zgarishlarga aholining naqdsiz to'lov shakllarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan choralar, ayniqsa mobil ilovalar orqali hisob-kitoblar ko'lamining kengayib borayotganligi ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Jumladan, bank kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar (*chiqimlar*) 1 030 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan **78,1** foizi naqdsiz shakldagi operatsiyalarga to'g'ri keladi (2022-yilda – 72,8%, 2023-yilda – 75,9% tashkil qilgan).


5.3.2-chizma

Bank kartalaridan chiqim qilingan mablagʻlarning manbalari boʻyicha ulushi

Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Hisobot yilida bank kartalariga kelib tushgan mablagʻlar tarkibida pensiya, nafaqa, stipendiya va ish haqi toʻlovlari uchun oʻtkazilgan mablagʻlar ulushi **26,7** foizni, naqd pul hisobiga bank kartasiga kirim qilingan va omonat hisobvaraqlaridan kelib tushgan mablagʻlar – 18,4 foizni, aholining boshqa daromadlari – 16,0 foizni tashkil etdi.

5.3.3-chizma

Bank kartalariga kelib tushgan mablagʻlarning manbalari boʻyicha ulushi

Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

VI. MOLİYAVIY XIZMATLAR OMMABOPLIGINI OSHIRISH VA BANK XIZMATLARI ISTE'MOLCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BORASIDAGI FAOLIYAT

6.1. Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish

Hisobot yilida moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish borasidagi faoliyatda asosiy e'tibor xalqaro hamkorlik dasturlari asosida aholining bank xizmatlari bilan qamrab olinganligini baholash va kelgusi yillar uchun milliy strategiya ishlab chiqishga qaratildi.

Xususan, Osiyo Taraqqiyot bankining **“O‘zbekistonda inklyuziv moliya”** missiyasi va texnik ko‘magi doirasida:

– “2021-2023-yillarga mo‘ljallangan Moliyaviy ommaboplikni oshirish milliy strategiyasi” yakunlarini baholash;

– mamlakatda moliyaviy ommaboplik darajasini baholash, moliyaviy savodxonlik va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini aniqlash bo‘yicha **so‘rovnomalar o‘tkazish**;

– 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan **moliyaviy ommaboplikni oshirish milliy strategiyasini ishlab chiqish** bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Shuningdek, respublikaning 5 ta hududida (*Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Andijon viloyatlari va Toshkent shahri*) **fokus guruhlar** – yoshlar, ayollar va tadbirkorlarning kredit tashkilotlari va ularning mahsulot va xizmatlariga nisbatan munosabatini aniqlashga qaratilgan sifat tadqiqoti o‘tkazildi.

2024-yilda mamlakatda moliyaviy ommaboplik darajasini oshirish maqsadida **Moliyaviy ommaboplik alyansining** Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo uchun siyosiy tashabbusi doirasida turli innovatsion yechimlar, regulyator qumdon va boshqa sohalar bo‘yicha a‘zo davlatlar regulyatorlari bilan tajriba almashildi.

Hisobot yilida O‘zbekiston **Ayollar tadbirkorligi – moliyaviy tashabbusiga (We-Fi code)** qo‘shilib, Markaziy bank koordinator sifatida belgilandi.

Tashabbusning asosiy maqsadi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va gender statistikasini yaratishga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, ushbu tashabbusga hozirda Biznesni rivojlantirish banki hamda Xalq banki qo‘shildi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishlarda hamkorlik davom ettirilib, ayollar tadbirkorligi bo‘yicha gender statistikasini aks ettiradigan platformani ishga tushirish borasida ishlar olib borilib, ishtirokchi banklar sonini ko‘paytirish belgilab olingan.

6.2. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish

Hisobot yilida aholining moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida “aholini” biznesga jalb qilish, kibermadaniyatni shakllantirish, hukumat topshiriqlari doirasida mikromoliya xizmatlarini ommalashtirish hamda moliyaviy xulq-atvorni o'zgartirish bo'yicha yangi loyihalar yo'lga qo'yildi.

Yil davomida 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ylab jami **16 ta**, jumladan **5 ta** yangi va **11 ta** doimiy loyihalar doirasida **352 ta** ta'lim tadbirlari o'tkazildi.

Loyihalarni amalga oshirishda **7 ta** vazirlik va idoralar, Markaziy bankning **14 ta** hududiy bosh boshqarmalari, **21 ta** banklar, valyuta birjasi va kredit byurolari bilan tizimli ishlar amalga oshirildi.

Shundan, trening, mahorat darslari, ochiq darslar, sayyor uchrashuv va muloqot shaklida o'tkazilgan tadbirlarning **82 tasi** Markaziy bank apparati, **136 tasi** Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari, **3 tasi** xalqaro tashkilot, **131 tasi** tijorat banklari va boshqa idoralar bilan tashkil etilib, tadbirlarda **255 609 nafar** aholi qatnashdi.

Xotin-qizlar, yoshlar, mahalla faollari va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida respublikamizning **157 ta** tumanida **182 ta** seminar-treninglar o'tkazilib, ularda jami **16 918 nafar** aholi ishtirok etdi (*tadbir ishtirokchilarining 38 foizi xotin-qizlar, 46 foizi yoshlar, 16 foizi mahalla faollari va tadbirkorlar tashkil etdi*).

Banklar bilan birgalikda “Butunjahon pul haftaligi” va “Butunjahon jamg'arish kuni” doirasida shaxsiy moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga bag'ishlangan ommaviy tadbirlarning umumiy qamrovi **174 877 nafar** aholini, shundan **26 722 nafari** yoki **15 foizi** maktab o'quvchilarni tashkil etdi.

Banklar va Istiqbolli loyihalar agentligi ekspertlari bilan birgalikda tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish, pullarni xavfsiz ko'paytirish vositalarini o'rgatish, moliyaviy firibgarlik va piramidalarga aldanib qolmaslikka qaratilgan mahorat darslarida **2 135 nafar** yoshlar qamrab olindi;

Respublika bo'yicha har yilgi volontyorlar harakati doirasida iqtisodiy yo'nalishda tahsil oladigan **200 nafar** bitiruvchi volontyor talabalarga maxsus treninglarni o'tish orqali noiqtisodiy yo'nalishda o'qiydigan **8 804 nafar** talabalarga kiber tahdidlarga qarshi immunitet shakllantirish bo'yicha tegishli amaliy tavsiyalar berildi.

Tijorat banklari bilan ishchi guruhlar tashkil etilib Toshkent shahridagi Respublika bolalar kutubxonasida “Moliyaviy savodxonlik klubi” va A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxonada Anorbank bilan tijoriy hamkorlikdagi “Moliyaviy bilimlar markazi” loyihalari ishga tushirilib, **300** dan ortiq bolalar va yoshlar qamrab olindi.

“O‘zbekiston 24” telekanalida **20 ta** teledasturdan iborat **“Moliyaviy madaniyat”** loyihasi doirasida bank ekspertlari tomonidan nazariy tushunchalar, bank tizimidagi yangiliklar amaliy keyslar bilan yoritib borildi.

Bankning xizmatlaridan masofaviy foydalanishning oson, qulay va xavfsizligini namoyish etish orqali aholida moliyaviy munosabatni o‘zgartirishga qaratilgan **15 ta** videoroliklar ishlab chiqildi. Mazkur videoroliklar jamlanmasi moliyaviy savodxonlik yo‘nalishida eshitishda nuqsoni mavjud aholini ham qamrab olishga qaratilgan ilk o‘ziga xos loyiha bo‘ldi.

Bundan tashqari, 5-11-sinf o‘quvchilariga muo‘ljallangan **“Moliyaviy savodxonlik to‘garagi”** loyihasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Ta‘lim sifatini rivojlantirish markazining ekspertlari va **16 ta** tijorat banklarining moliyaviy ko‘magi jalb qilinib, respublika bo‘ylab **100 ta** maktabning **160 nafar** o‘qituvchilari bilan birgalikda sinf guruhlari (*5-7-sinf, 8-9-sinf, 10-11-sinf*) kesimida o‘quv qo‘llanma, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma va o‘quvchilar uchun mashq daftarini qamrab olgan **kompleks o‘quv metodik materiallari** ishlab chiqildi.

O‘quv materiallari omonat va kredit foizlarini hisoblash, shaxsiy sezilgan inflyatsiyani aniqlash, bank kartalaridan xavfsiz foydalanish, bank xizmatlarini tanlash va shartnomaning muhim shartlari, ijtimoiy muhandislikning xususiyatlari, moliyaviy firibgarlikdan himoyalalanish usullari kabi amaliy bilimlarni o‘z ichiga olgan real keyslar bilan boyitilgan.

Hisobot yilida aholining moliyaviy savodxonligini oshirib borishga muo‘ljallangan hamda xalqaro va mahalliy hamkorlik asosida ishlab chiqilgan yangi loyihalar ham amaliyotga joriy etildi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan hisobot yilida “Markaziy Osiyo mehnat migratsiyasi” va “Mavsumiy ishchilarning Markaziy Osiyodan Buyuk Britaniyaga xavfsiz migratsiyasi” loyihalari doirasida ketish oldi mehnat migrantlarini shaxsiy moliyani boshqarish, moliyaviy bilimlarini oshirish va qaytgan migrantlarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha **2 ta** dastur va **3 ta** maxsus ixtisoslashtirilgan o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqildi va o‘qitish tashkil etildi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligining **“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari** rahbar xodimlari uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, kambag‘al oilalarning daromad topishiga ko‘maklashuvchi raqamli platformalarni targ‘ib qilish bo‘yicha yangi dastur ishlab chiqildi va treninglar o‘tkazildi.

Ijtimoiy media (*Finlit.uz veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar sahifalari*)da aholida to‘g‘ri moliyaviy xulq-atvorni shakllantirish bo‘yicha kreativ shakldagi keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari orqali aholi qamrovi qariyb 5,2 mlnga, ommaviy axborot vositalari, xususan Darakchi gazetasida maqolalar, Oriat dono radio kanalida ta‘lim loyihalari doirasida moliyaviy savodxonlik rukni orqali aholi qamrovi deyarli 2,8 mlnga yetkazildi.

6.3. Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish

2024-yilda Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati (*keyingi o'rinlarda – Xizmat*) tomonidan moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda Xizmat faoliyatini takomillashtirish hamda banklarning murojaatlar bilan ishlash bo'yicha faoliyatini tartibga solish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, tijorat banklarida mijozlarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ular bilan ishlash tartibini takomillashtirish va banklarning bu sohada mas'uliyatini oshirish maqsadida bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan **minimal talablar takomillashtirildi**.

Xususan:

- banklar murojaatlar bilan ishlashda **o'z ichki tartibiga ega bo'lishi** va uni bankning veb-saytida joylashtirishi;

- murojaatlarni ko'rib chiqish uchun alohida **maxsus tuzilmaviy bo'linma tashkil etilishi** va bunda ushbu tarkibiy bo'linma xodimlari shikoyatlarni batafsil o'rganib chiqish hamda iste'molchilar bilan **nizolarni hal qilishda qator vakolatlarga ega bo'lishi**;

- murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha **ichki nazorat tizimini joriy qilish** hamda ichki nazoratni amalga oshirish doirasida bankning ichki audit xizmatiga vazifalar belgilanishi;

- murojaatlarni elektron axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ro'yxatga olish, qabul qilish, to'plash, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, murojaatlarda ko'tarilayotgan masalalardan kelib chiqqan holda tizimli kamchiliklarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi **elektron axborot tizimini joriy etish** kabi talab va qoidalar o'rnatildi.

Mazkur yangi qoida va talablarning amaliyotga joriy etilishi iste'molchilarning murojaatlari sifatli va samarali ko'rib chiqilishiga hamda murojaatlarni umumlashtirgan holda tahlil qilinishi natijasida bankda iste'molchilarning e'tirozini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ayrim sabablarga (*pandemiya oqibatida, vaqtincha ishini yo'qotganda, kasal bo'lganida va h.k.*) ko'ra kredit to'lovlarini kechiktirgan holda yoki qisman to'lash holatlarida kredit tashkilotlari qarzdorlar tomonidan amalga oshirilgan to'lovlarini, birinchi navbatda, jarimalar, penyalar va kredit foizlarini so'ndirishga yo'naltirishi hamda kreditlar bo'yicha qarzdorlikni undirish (*shu jumladan kreditni muddatidan oldin to'liq qaytarish*) haqida sudning hal qiluv qarori chiqarilgandan keyin ham ayrim kredit tashkilotlari tomonidan foizlar va neustoyka hisoblanishining davom ettirish kabi amaliyotlarni cheklash maqsadida:

kredit bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlarni birinchi navbatda kechiktirilgan asosiy qarzni qoplashga yo'naltirishni hamda sud qarori qabul qilingan kreditlar bo'yicha foizlar va neustoyka hisoblanishi to'xtatilishini nazarda tutuvchi **O'zbekiston Respublikasining O'RQ-914-sonli Qonuni qabul qilindi.**

Ushbu o'zgartirishlar iste'molchilarning kreditlarni qaytarish qobiliyatini yaxshilanishiga hamda aholi va tadbirkorlik subyektlaridan kredit to'lovlari bilan bog'liq huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, fuqarolarning nomiga firibgarlik yo'li bilan ularning xabarisiz kreditlar rasmiylashtirilishi holatlarining o'sib borayotgani bu boradagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda tegishli davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonunga **jismoniy shaxslarga o'zlarining nomiga kredit olishni taqiqlash imkoniyati berilishini** nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish yuzasidan Qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur Qonun fuqarolar nomiga ularning xabarisiz kredit ajratilishi hollarining oldi olinishini, shuningdek kredit byurolari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirilishini ta'minlaydi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni va ulardan foydalanayotgan iste'molchilar sonini yuqori sur'atlarda kengayib va o'sib borayotganligi ushbu yo'nalishda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilinishi bilan bog'liq masalalarni dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Bu borada, bir qancha xorijiy mamlakatlar, jumladan, Portugaliya, Irlandiya, Filippin, Rossiya va Malayziya kabi davlatlarning ushbu yunalishdagi ilg'or tajribalari o'rganildi va raqamli moliyaviy xizmatlar iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishga doir talablar to'g'risidagi nizom ishlab chiqildi.

Mazkur nizom bilan iste'molchilarga oshkor qilinadigan minimal axborotlarning hajmi hamda ushbu axborotlarni oshkor qilinishi, raqamli xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan platformalarga qo'yiladigan talablar hamda raqamli xizmatlarni taqdim etishda iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish va ularning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibiga doir qoidalar belgilab qo'yilmoqda.

Bank xizmatlari sifatini va ommabopligini oshirish maqsadida **Shveysariyaning "Business&Finance Consulting" kompaniyasi bilan birgalikda** O'zbekistonda banklarning xizmat ko'rsatish sifatini baholash yuzasidan "sirli mijoz" tartibidagi o'rganish amaliyotga joriy etildi.

2024-yilning 24-iyun–5-iyul kunlari o'tkazilgan o'rganishlarda tadbirkorlarga hamda jismoniy shaxslarga kredit xizmatlarini taqdim etish xizmatlari sifatini baholash borasidagi **15 ta** bankning **5 ta** hududdagi **73 ta** bank muassasasi qamrab olindi.

O'rganish natijalari ayrim banklarda mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish tizimi hanuzgacha to'liq yo'lga qo'yilmaganligi, bank xodimlari mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlariga amal qilmasligi, banklar o'rtasida mijozlar uchun raqobat yaxshi rivojlanmaganligi hamda bank muassasalarida mijozni o'rganish va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish hissi shakllanmaganligini ko'rsatdi.

Mazkur aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni ko'rish yuzasidan Markaziy bank tomonidan tijorat banklari boshqaruvlariga bir qator ko'rsatmalar berildi.

Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish yo'nalishini rivojlantirish bo'yicha **Jahon banki texnik ko'mak missiyalari doirasida** xorijiy konsultantlar tomonidan moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish tizimi holati baholashdan o'tkazildi va uning natijalariga asosan mazkur sohaga doir nazoratni amalga oshirish, samarali tashkiliy tuzilma faoliyatini shakllantirish va qonunchilikni takomillashtirish yo'nalishlari yuzasidan **2025 – 2027-yillarga mo'ljallangan “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi.**

FinCoNet tashkilotiga a'zolik doirasida 9 ta davlatning (*Ispaniya, Italiya, Avstraliya, Irlandiya, Portugaliya, Braziliya, Rossiya, Armaniston, Qozog'iston*) moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish yo'nalishi bo'yicha regulyatorlari bilan o'zaro tajriba almashish, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlar to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lish hamda kelgusida hamkorlik qilinishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni belgilab olindi.

Shuningdek, Moliyaviy ommaboplik alyansi (*AFI*) tomonidan San Salvador va Armanistonda tashkil etilgan tadbirlarda moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish sohasi bo'yicha a'zo davlatlar regulyatorlari bilan birgalikda bugungi kunda dolzarb bo'lgan masalalar yuzasidan hamkorlikda o'rganishlar olib borish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha birgalikda yechim ishlab chiqish bo'yicha o'zaro kelishuvga erishildi.

Tijorat banklarining jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan moliyaviy xizmatlari haqidagi axborot portalini (*“bankxizmatlari.uz”*) aholiga keng targ'ib qilish va portaldagi ma'lumotlarning aktualligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida har oylik saytdan foydalanuvchilar soni 2024-yil oxiriga kelib 16 mingtani (*ishga tushirilgan oyga nisbatan +12 barobar*), sayt sahifalariga har oylik tashriflar soni esa 21 mingtani (*yil boshidan beri +10 barobar*) tashkil etadi.

Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari nazorat qilish doirasida hisobot yilida Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari bilan birgalikdatijorat banklarining joylardagi mussasalarida bazaviy xizmatlar ko'rsatilishining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinishi holatlari yuzasidan banklarning **881 ta** muassasacida **1 008 ta** nazorat tadbirlari amalga oshirildi.

O'tkazilgan nazorat tadbirlarida kredit va omonat shartlari to'g'risida to'liq ma'lumot bermaganligi, ushbu xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha shartnoma namunalari taqdim etilmaganligi hamda bank kartasi orqali lozim darajada to'lovlar qabul qilinmaganligi kabi aniqlangan qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan **xodimlarga** nisbatan **319 ta** holatda xayfsan, **249 ta** holatda moliyaviy jarima, **75 ta** holatda ogohlantirish hamda **4 ta** holatda mehnat shartnomasini bekor qilish kabi **intizomiy jazo choralari qo'llanildi**.

Shuningdek, 2024-yilda tegishli mutasaddi davlat tashkilotlari bilan birgalikda fuqarolar murojaatlari soni yuqori bo'lgan 4 ta yirik bankda iste'molchilarning murojaatlari bilan ishlash ahvoli o'rganildi.

Mazkur o'rganish yakunlariga ko'ra bank boshqaruvlari zimmasiga murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bankning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini bank boshqaruvi yig'ilishida tanqidiy ko'rib chiqish, murojaatlarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan tizimli muammolarni bartaraf qilish hamda kelgusida bunday kamchilik va xatolarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan tegishli tadbirlarni belgilab olish yuzasidan vazifalar yuklatildi.

Shu bilan birga, KATM kredit byurosida ham bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish yo'nalishi bo'yicha tematik o'rganish o'tkazilib, kredit byurolari faoliyatining shaffofligini ta'minlash maksadida:

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ichki tartib ishlab chiqish va uni veb-saytiga joylashtirish;

– kredit axborotidan foydalanuvchilar tomonidan kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma tuzish uchun kredit byurosiga taqdim etiladigan hujjatlar va ma'lumotlar tarkibini belgilash;

– kredit axboroti subyekting reyting bahosini hisoblash uslublari va unga ta'sir etuvchi omillarni kredit axboroti subyekti yoki kredit axboroti foydalanuvchilariga ularning talabiga asosan tushuntirib berish;

– kredit axboroti subyektiga taqdim etiladigan kredit hisobotida qayd etilgan ma'lumotlarni iste'molchilarga tushunarli tarzda aks ettirish amaliyotlari joriy etildi.

Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlari buzilishi yo'nalishiga doir **1 580 ta** murojaat ko'rib chiqildi. Murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni o'rganish jarayonida huquqlari va qonuniy manfaatlari tiklanishiga ko'maklashilgan **116 nafar** iste'molchilarga omonat pullari va hisobvarag'iga tushishi lozim bo'lgan mablag'lar qaytarilishi, noto'g'ri hisoblangan kredit qarzдорliklar bo'yicha majburiyatlar bekor qilinishi, kredit qarzдорlishi uchun bank kartalaridan asossiz undirilgan mablag'lar qaytarilishi hamda noqonuniy undirilgan bank xizmat haqi mablag'lari qayta hisob kitob qilinishi natijasida ularga jami **2,5 mlrd so'm** miqdordagi moliyaviy yo'qotishlari oldi olindi.


6.4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash

2024-yilda Markaziy bank tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

2024-yilda Markaziy bank apparatiga jami **5 031 ta** murojaat kelib tushgan bo'lib, uning 20,4 foizi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 4,6 foizi Markaziy bank elektron pochta, 47,2 foizi Markaziy bankka to'g'ridan-to'g'ri va boshqa vazirlik, idoralar orqali kelib tushgan yozma murojaatlar, 6,9 foizi "ishonch telefoni" orqali hamda 20,9 foizi qabullar davomida kelib tushgan.

6.4.1-chizma

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlar taqsimlanishi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Markaziy bankka kelib tushgan 5 031 murojaatdan **4 764 tasi** yoki 94,7 foizi bevosita tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan murojaatlar hisoblanadi. Mazkur murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun tegishlilik bo'yicha tijorat banklarining bosh ofisiga yuborilib, natijalari to'g'risida murojaatchilarga o'z vaqtida ma'lum qilinishi ustidan monitoring o'rnatildi.

Hisobot yilida jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlarning 4 790 tasiga (95,2%) belgilangan tartibda tegishli tushuntirishlar berildi va ijobiy hal qilindi, 95 ta (1,9%) murojaat tegishliligi bo'yicha ko'rib chiqish uchun boshqa vazirlik va idoralarga yuborildi, 140 tasi (2,8%) ijro jarayonida va 6 tasi (0,1%) anonim murojaat bo'lganligi sababli ko'rib chiqilmadi.

Markaziy bankka kelgan murojaatlarning qariyb 84,2 foizi kredit, to'lov tizimi va naqd pulsiz hisob-kitoblar hamda bank xodimlarining xatti-harakatlari masalasidagi murojaatlar hissasiga to'g'ri keladi.

6.4.1-jadval

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tarkibi

№	Murojaat masalasi	Soni	foizda
1.	Bank kreditlari va kredit operatsiyalari masalasida	2 991	59,5
2.	To'lov tizimi va naqd pulsiz hisob-kitoblar masalasida	922	18,3
3.	Bank xodimlarining xatti-harakatlari masalasida	322	6,4
4.	Bank faoliyati bo'yicha ma'lumotlar olish va takliflar masalasida	184	3,7
5.	Bank kartalari, terminallar va bankomatlar masalasida	132	2,6
6.	Valyutani tartibga solish va valyuta nazorati masalasida	115	2,3
7.	Bank omonati va boshqa depozit operatsiyalari masalasida	98	1,9
8.	Ishga joylashish masalasida	79	1,6
9.	Nafaqa pullarini olish masalasida	39	0,8
10.	Banklar va kredit tashkilotlarni tashkil etish va tugatish masalasida	26	0,5
11.	Boshqa masalalar	123	2,4
	Jami	5 031	100

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, hisobot yilida aholini qiynayotgan masalalarni joyida o'rganib hal qilish maqsadida olis va chekka hamda aholi zich yashaydigan hududlarda Markaziy bank rahbariyati tomonidan 56 bor sayyor qabullar tashkil etildi. Bunda, murojaatchilar tomonidan ko'tarilgan masalalarni joyida, xolis va tezkor hal etish hamda qabullarning natijadorligi va aholining roziligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, tashkil etilgan 56 ta sayyor qabullarda jami 1 000 dan ortiq tadbirkorlar, omonatchilar va fuqarolar bilan uchrashilib, **961** ta imtiyozli kredit va bankka oid boshqa masalalarda murojaatlarning **733** tasi ijobiy hal qilindi (*178,9 mlrd so'm miqdorida kreditlar ajratildi*), **219** tasiga tegishli tushintirishlar berildi, **1** tasi tegishli idoralarga yuborildi hamda **8** tasi yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berilib ijrosi nazoratga olindi.

Mazkur masala har chorakda Markaziy bank boshqaruvi majlislarida va har haftada Markaziy bank raisi huzurida tanqidiy muhokama qilinib, murojaatchilar tomonidan ko'tarilgan masalalarni amaldagi qonunchilikka muvofiq joyida hal qilish hamda xodimlarning kasbiy malakalari va shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berib borildi.

Tijorat banklari boshqaruvi tomonidan 2024-yil mobaynida murojaatlarni qonuniy hal qilmagan, belgilangan muddatlarda ko'rib chiqmagan, murojaatlar bilan ishlashda xato va kamchiliklarga tizimli ravishda yo'l qo'ygan 475 ta rahbar va mas'ul xodimlarga nisbatan mehnat kodeksi va ichki mehnat tartibi qoidalariga asosan (172 ta "hayfsan", 289 ta jarima, 14 ta lavozimidan ozod etish) choralar ko'rildi.

Markaziy bank tomonidan murojaatlarning o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishi bilan bir qatorda, tizimli muammo va kamchiliklar aniqlanib, bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda kredit tashkilotlarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar takomillashtirib borildi.

Jismoniy va yuridik shaxslardan murojaatlarning Markaziy bankning rasmiy veb-sayti va mobil ilova dasturi orqali elektron shaklda hamda "Ishonch telefoni" orqali to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinayotganligi murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim o'rin tutmoqda.

Bank tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi raqamli xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish orqali aholiga yanada qulay va sifatli bank xizmatlarini taklif etishdan iborat bo'lib, kreditlashda bozor mexanizmlariga to'liq o'tilishi, mazkur yo'nalishdagi murojaatlar sonining kamayishiga va kreditlar samaradorligining yanada oshishiga xizmat qiladi.


VII. XALQARO MUNOSABATLAR VA HAMKORLIK

2024-yilda xorijiy hamkorlar bilan pul-kredit siyosati, to'lov tizimlari, xalqaro zaxiralarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy savodxonlik va ommaboplikni oshirish, inson resurslarini boshqarish, islom moliyasi uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratish kabi Markaziy bankning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan xalqaro aloqalar va hamkorlikni yanada kengaytirish choralari ko'rib borildi.

Hisobot yili davomida xalqaro moliya institutlari, xorijiy markaziy banklar va boshqa xorijiy tashkilotlar bilan ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan qariyb 370 ta (*o'tgan yilga nisbatan +18%*) turli darajadagi uchrashuvlar o'tkazildi.

7.1-chizma

2024-yilda o'tkazilgan uchrashuvlar



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


7.1. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy Markaziy banklar bilan hamkorlik

2024-yil davomida Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirish, yuklatilgan vazifalarni samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlaridan jami 16 ta texnik ko'mak missiyalari tashkil qilindi va 6 ta konsultativ tashriflar amalga oshirildi.

Ushbu texnik ko'mak dasturlari Markaziy bankning pul-kredit siyosati, ichki audit, bank xizmatlari iste'molchilari huquqlarini himoya qilish, to'lov tizimlari, xalqaro zaxiralarni boshqarish, islom moliyasi, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy savodxonlik va ommaboplikni oshirish, monetar operatsiyalar va garov reyestri faoliyatini takomillashtirishga qaratildi.

7.1.1-chizma

2024-yilda Markaziy bankka xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan texnik ko‘mak missiyalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida, XVJ va Jahon bankining qo'shma Moliya sektorni baholash dasturining (FSAP) dastlabki missiyasi qabul qilindi. Unda mamlakat iqtisodiyotidagi davlatning o'rni, bank nazoratining Bazel tamoyillariga muvofiqligi, muammoli kreditlar, banklar barqarorligi bo'yicha stress-testlash yo'nalishlarida baholashning dastlabki xulosalari olindi.

XVJning O'zbekiston bo'yicha missiyasining mamlakatga **XVJning IV moddasi** bo'yicha **maslahatlashuv** va **oraliq missiyalari** yuzasidan tashrifi muvofiqlashtirilib, qator davlat idoralari va yuqori turuvchi organ vakillari bilan joriy makroiqtisodiy holat, fiskal siyosat, moliyaviy sektor barqarorligi, tarkibiy islohotlar va tashqi sektor statistikasi masalalari yuzasidan o'zaro maslahatlashuvlar o'tkazildi va XVJning tegishli hisobotlari e'lon qilindi.

Vashington shahrida o'tkazilgan **XVJ va Jahon bankining bahorgi va yillik anjumanlari** doirasida xorijiy hamkorlar bilan ikki va ko'ptomonlama uchrashuvlar bo'yicha erishilgan kelishuvlar ijrosi ta'minlab kelindi.

XVJ va Jahon banki "**Shveysariya guruhi**"ning **Tojikistonda** o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishida guruhga a'zo davlatlarda makroiqtisodiy holat va rivojlanish istiqbollari yuzasidan rahbarlar o'rtasida o'zaro fikr almashildi. Shu bilan birga, Guruhning navbatdagi **2026-yilgi yig'ilishini O'zbekistonning Samarqand shahrida o'tkazish** yuzasidan dastlabki kelishuvlarga erishildi.

“**Shveysariya guruhi**” markaziy banklari rahbar xodimlari uchun **Avstriya** va **Qozog‘istonda** o‘tkazilgan **mintaqaviy konferensiyalarida** hozirgi davrdagi pul-kredit siyosatidagi qarorlar, inflyatsiya jarayonlari bilan bog‘liq ma‘lumotlar hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga doir masalalar muhokama etildi va bir qator kelishuvlarga erishildi.

Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) “Inklyuziv moliya sektorini rivojlantirish dasturi”da ko‘zda tutilgan islohotlar matritsasining 1-bosqichi doirasida Markaziy bankka tegishli **9 ta** band vazifalari ijrosi ta‘minlandi. Shu bilan birga, islohotlar matritsasining 2-bosqichida Markaziy bankka tegishli **11 ta** vazifalar (*asosan moliyaviy ommaboplik va mikromoliya xizmatlarini rivojlantirish*) belgilanib, 2025-yilning iyul oyiga qadar ijrosini yakunlashga kelishib olindi.

Shu bilan birga **OTB** ko‘magida **mikromoliya tashkilotlar** faoliyatini xalqaro tamoyillarga muvofiq isloh qilish maqsadida Markaziy bankka **doimiy xalqaro ekspertni** jalb qilish yuzasidan dastlabki chora-tadbirlar belgilab olindi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari bilan **ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, risklarni boshqarish, ta‘minot zanjiri va savdoni moliyalashtirish** masalalari yuzasidan hamkorlikni rivojlantirish borasida uchrashuvlar tashkil qilinib, Markaziy bankda bank-moliya sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat va xususiy korxonalar mutaxassislari uchun **xalqaro konferensiya** va **seminar-treninglar** tashkil etildi.

Hisobot yilida tarkibiy bo‘linmalarning talablaridan kelib chiqqan holda xorijiy markaziy banklar bilan hamkorlik kengaytirilib, hodimlarni amaliy ko‘nikmalarini tajriba almashish orqali yanada takomillashtirish borasida qator ishlar bajarildi.

Yil davomida **20** dan ortiq xorijiy markaziy banklar bilan yozma murojaatlar, onlayn uchrashuvlar, shuningdek rahbariyat va ekspertlar darajasida o‘zaro tashriflar orqali tajriba almashish bilan bog‘liq tadbirlar o‘tkazildi.

Mintaqadagi markaziy banklar bilan rahbariyat darajasida jami **17 ta** mamlakatga **23 ta tashriflar** amalga oshirilib, pul-kredit siyosati, bank va to‘lov tashkilotlari nazorati hamda kiberxavfsizlik sohalarida dolzarb masalalar muhokama etildi va tashriflar yakunlari bo‘yicha **31 ta** kelishuvlarga erishildi.

Natijada Markaziy bank mutaxassislari turli tajriba almashish va o‘z ko‘nikmalarini oshirish imkoniga ega bo‘ldilar. Jumladan, yil davomida xorijiy markaziy banklar tajribalarini o‘rganish maqsadida jami **9 ta**, jumladan:

– raqamli valyuta, inson resurslarini boshqarish, to‘lov balansini tuzish va prognozlash yo‘nalishlarida Qozog‘iston Milliy bankiga;

– pul-kredit siyosati va to‘lov balansini statistikasi yo‘nalishlarida Shveysariya Milliy bankiga;

– yuridik sohani takomillashtirish, to‘lov tizimlari, kiberxavfsizlik va ichki audit yo‘nalishlarida Rossiya Bankiga;

– mikromoliya, to‘lov tizimlari va fintex yo‘nalishlarida Ozarbayjon Markaziy bankiga tashriflar uyushtirildi.

Shu bilan birga, xorijiy markaziy banklar vakillari ishtirokida Markaziy bankda 10 ta **tajriba almashinuv tadbirlari**:

– **Koreya Markaziy banki** bilan har yillik Bilimlar almashinuvi dasturi doirasida to‘lov tizimlari hamda xalqaro zaxiralarni boshqarish sohalarida qo‘shma tadqiqot seminarlari;

– **Tojikiston Milliy banki** mutaxassirlari uchun moliyaviy ommaboplik, gender tengligi, to‘lov tizimlari, bank xizmatlari iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish yo‘nalishlarida tajriba almashish yuzasidan o‘quv seminari;

– **Shveysariya Milliy banki** texnik ko‘magida tashkil etilgan “Markaziy bank uchun Dinamik stoxastik umumiy muvozanat (*DSGE*) modelini ishlab chiqish” mavzusida Chexiyaning OGREsearch xalqaro konsalting kompaniyasining navbatdagi missiyasi tashrifi;

– **Gruziya Milliy banki, Rossiya Banki va Qozog‘iston Milliy banki** vakillari bilan xodimlarni shaxsiy baholash va KPI tizimini joriy etish yuzasidan;

– Rossiya Banki vakillari bilan bank nazorati, loyiha va jarayonlarni boshqarish sohalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha;

– Qozog‘iston Milliy banki mutaxassislari bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari yuzasidan;

– Qozog‘iston va Qirg‘iziston Milliy banklari vakillari ishtirokida Samarqand shahrida **Markaziy Osiyo mikromoliya sammiti** tadbirlari o‘tkazildi.

2024-yil davomida xorijiy markaziy banklar bilan bank sohasiga doir vazifalarni samarali bajarilishi hamda o‘zaro axborot almashinuvi uchun huquqiy asos yaratish maqsadida bir qator **xalqaro hujjatlar imzolandi**.

Xususan, bank nazorati hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohalarida jami **5 ta** xalqaro hujjatlar, jumladan:

– Tojikiston Respublikasi Milliy banki bilan kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha, Qirg‘iziston Milliy banki bilan bank nazorati hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida bitimlar;

– Ozarbayjon Markaziy banki bilan hamkorlik to‘g‘risida Anglashuv memorandum;

– Qirg‘izistonda Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlarning Markaziy (Milliy) banklar kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi memorandum imzolandi.

7.2. Xalqaro reyting kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik

2024-yilda xalqaro reyting agentliklari bilan amaliy muloqotlarda asosiy e'tibor mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi, umumiy makroiqtisodiy holati, tashqi sektor statistikasi, pul-kredit siyosatining yo'nalishlari kabi ko'plab sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar muhokamasiga qaratildi.

Yil davomida xalqaro integratsion tashkilotlar, xususan **Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)**, **Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)**, **Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)** bilan ko'ptomonlama aloqalar, hamda **Jahon savdo tashkiloti (JST)**ga a'zo bo'lish jarayonlari doirasida Markaziy bankka tegishli masalalar ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

Jumladan, ushbu tashkilotlar bilan o'tkazilgan jami **16 ta** uchrashuv va yig'ilishlarda Markaziy bank vakillari ishtirok etdilar hamda kelib tushgan jami **9 ta** xalqaro hujjat loyihalari yuzasidan Markaziy bank xulosalari taqdim etildi.

Shu bilan birga, 2024-yil davomida xorijiy davlatlarga amalga oshirilgan **oliy darajadagi va rasmiy tashriflar** yakunlari bo'yicha kelib tushgan jami **38 ta** hukumat topshiriqlaridagi yo'l xaritalarning Markaziy bankka tegishli **61 ta** bandlari ijrosi ta'minlandi.

2024-yil davomida **Jahon savdo tashkiloti (JST)**ga a'zo bo'lish bo'yicha Markaziy bank tomonidan:

– ikki tomonlama muzokaralar doirasida **AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Filippin, Indoneziya** va **Rossiya** tomonidan jami **16 ta** savol kelib tushib, amaldagi bank qonunchiligiga muvofiq batafsil tushuntirishlar va yozma javoblar taqdim etildi;

– **Jeneva shahrida** mamlakatning JSTga a'zo bo'lish masalasini ko'rib chiqish yuzasidan Ishchi guruhning 8-yig'ilishida Markaziy bank vakillari hukumat delegatsiyasi tarkibida ishtirok etib, JSTga a'zo davlatlar tomonidan kelib tushgan tegishli **14 ta** savollar yuzasidan tegishli hulosalar berilishi ta'minlandi;

– JSTga a'zo bo'lish yuzasidan Vashington shahrida **AQShning Savdo vazirligi** vakillari bilan o'tkazilgan muzokaralarda Markaziy bankka tegishli masalalar, jumladan mamlakatda xorijiy banklar filiallari faoliyatiga ruxsat berish yuzasidan yakuniy pozitsiya ifoda etildi;

– mamlakatning JSTga a'zo bo'lish masalasini ko'rib chiqish yuzasidan Ishchi guruhning 9-yig'ilishida Markaziy bank vakillari onlayn ravishda ishtirok etib, muzokaralar davomida **AQSh va Yevropa Ittifoqi** vakillaridan kelib tushgan **2 ta** savollar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi;

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ga a'zolik doirasida yil davomida jami **8 ta** ekspert darajasidagi muhokamalar o'tkazildi va **3 ta** hujjatlar yuzasidan tegishliligi bo'yicha Markaziy bank xulosalari taqdim etildi.

Xususan:

– a'zo davlatlarning **o'zaro hisob-kitoblarda milliy valyutalar** ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish masalasi yuzasidan Yo'l xaritasining tegishli bndlari ijrosi yuzasidan;

– ShHTga a'zo davlatlar **Investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi Bitim va Konsepsiya** loyihasi, ShHTning navbatdagi sammiti yakunlari bo'yicha **Ostona deklaratsiyasi** loyihasi bo'yicha Markaziy bank xulosalari taqdim etildi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) a'zolik doirasida yil davomida jami **3 ta** ekspert darajasidagi muhokamalar o'tkazildi va jami **4 ta** hujjatlar yuzasidan tegishliligi bo'yicha Markaziy bankning xulosalari taqdim etildi.

Xususan, MDH Ijroiya qo'mitasining 2030-yilga qadar Hamdo'stlik iqtisodiy taraqqiyot **Strategiyasining birinchi va ikkinchi bosqichlarini (2026-2030-yillar) amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi**, 2023-yil yakunlariga ko'ra, tayyorlanishi ko'zda tutilgan **MDH ishtirokchi davlatlarida bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sohasidagi tartibga soluvchi rejim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi bank tizimiga oid ma'lumotlar Ijroiya qo'mitaning yillik hisobotiga kiritish bo'yicha xulosalar** berildi.

Turkiy davlatlar tashkilotiga (TDT) a'zolik doirasida yil davomida jami **3 ta** ekspert darajasidagi muhokamalar o'tkazildi va **2 ta** hujjatlar yuzasidan tegishliligi bo'yicha:

– TDT a'zo davlatlar hukumatlar o'rtasida **raqamli iqtisodiyot** sohasida hamkorlik to'g'risida **Bitim** loyihasi;

– TDT a'zo davlatlarning Markaziy (*Milliy*) banklar kengashini tashkil etish to'g'risidagi **Memorandum loyihasi** yuzasidan Markaziy bank xulosalari taqdim etildi.

Shu bilan birga, 2024-yilda Pokiston, Malayziya va Rossiya bilan **Hukumatlararo qo'shma komissiyalarining** navbatdagi yig'ilishlarida tegishliligi bo'yicha Markaziy bank vakillarining ishtiroki ta'minlandi.

Jumladan, **Rossiya tomoni** bilan yil davomida jami **8 ta hujjatlar** yuzasidan tegishliligi bo'yicha Markaziy bankning xulosalari berildi hamda jami **10 dan** ortiq uchrashuvlar o'tkazildi.

Jumladan:

– Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida moliya va bank sohasidagi hamkorlik bo'yicha **Quy i komissiya** hamda iqtisodiy hamkorlik bo'yicha **Hukumatlararo komissiyaning** Moskva shahrida o'tkazilgan yig'ilishlari doirasida rahbariyat va ekspertlar darajasida Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida moliya va bank sohasidagi hamkorlik bo'yicha muhokamalar bo'lib o'tdi.

Shu bilan bir qatorda, Markaziy bank rahbariyati **Markaziy banklar va nazorat organlari moliyaviy tizimining ekologik tozaligini oshirish hamjamiyatining (NGFS) Yalpi majlisida** onlayn ravishda ishtiroki ta'minlandi.

Markaziy bankda "Tadbirkor ayollar uchun moliyaviy kodeksi" (*WE-Finance Code*) joriy etildi hamda xalqaro tashkilotlar (*YeTTB, OTB, WE-Finance Code kotibiyati*) vakillari ishtirokida ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan va ushbu tashabbuslarni muhokamasiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Markaziy bank Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (*BCBS*) tarkibida tashkil etilgan **Bazel maslahatlashuv guruhi (BCG)**ga a'zo bo'ldi.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan **Xitoy Eksport-import bankining vakolatxonasi** akkreditatsiya qilindi hamda **Koreya Eksport-import banki vakolatxonasining** akkreditatsiya sertifikatini muddati uzaytirildi.

VIII. XODIMLAR BILAN ISHLASH VA MALAKASINI OSHIRISH, ICHKI NAZORAT HAMDA TADQIQOTLAR BORASIDAGI FAOLIYAT

8.1. Tashkiliy tuzilma

Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasi markaziy apparat – **29 ta** departament, **4 ta** xizmat, **1 ta** markaz va **2 ta** bo‘lim, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida 14 ta hududiy bosh boshqarma hamda tasarrufdagi **5 ta** korxonalardan tashkil topgan.

2025-yil 1-yanvar holatiga Markaziy bankning markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha bosh boshqarmalarida jami 2 183 nafar, shuningdek, tasarrufidagi korxonalarda – 2 264 nafar hodim va mutaxassis faoliyat yuritmoqda.

8.2. Xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish

2024-yilda xodimlar bilan ishlash tizimida asosiy e‘tibor ish joyida qulay muhitni yaratishga, zamonaviy va yangicha qarashlarga ega yosh xodimlarni ishga qabul qilishga hamda xodimlar bilim va malakasini xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan turli seminar-treninglar orqali doimiy oshirib borishga qaratildi.

Xususan, Markaziy bank markaziy apparati va uning hududiy bosh boshqarmalarida mavjud bo‘lgan vakant lavozimlarga ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov asosida tashkil etilib, suhbat jarayoni Youtube platformasida Markaziy bankning tajribali mutaxassislaridan iborat bo‘lgan ekspert guruhi tomonidan o‘tkazilishi orqali xolislik, shaffoflik hamda barcha nomzodlarga teng imkoniyatlarni yaratib berish tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

Markaziy bankda mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini butlash maqsadida yetakchi oliy o‘quv yurtlari bilan muntazam hamkorlik munosabatlari o‘rnatilgan. Bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Markaziy bankning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida yoritib boriladi. Mazkur tajriba Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarda ham yo‘lga qo‘yilgan.

2024-yilda Markaziy bank va uning hududiy bosh boshqarmalariga ishga kirish uchun telegram-bot orqali 13 mingga yaqin murojaat kelib tushgan bo‘lib, shundan 4 217 nafar nomzod test sinovi bosqichiga tavsiya etildi hamda ulardan tegishli bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tgan 323 nafari bilan suhbat o‘kazilib, jami 92 nafar xodim ishga qabul qilindi.

Markaziy bank faoliyatida a‘nanaga aylanib borayotgan **“maxsus stipendiya” dasturi bo‘yicha** 2024-yilda respublikaning nufuzli oliy ta’lim dargohlaridagi bank ishi, iqtisodiyot, banklarda buxgalteriya hisobi, makroiqtisodiyot, statistika va axborot texnologiyalari yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olayotgan 405 nafar iqtidorli talabalar orasida tanlov o‘tkazilib, jami **29 nafar eng iqtidorli talabalar** Markaziy bank stipendiyasi bilan taqdirlandi.

Markaziy bankda stipendiatlar uchun har kunlik amaliy malaka o'tashlari tashkil etilgan, ularning ish joylariga ko'nikishlariga sharoitlar yaratilib, har bir stipendiatga malakali murabbiy biriktirilgan.

2023-2024-o'quv yilda Markaziy bankning maxsus stipendiyasining 19 nafar g'oliblari orasidan amaliyot yakunlari bo'yicha 8 nafari tegishli tarkibiy bo'linmalar tavsiyasi asosida ishga qabul qilindi.

8.3. Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlar

Markaziy bankning strategik vazifalarni amalga oshirishda yuqori salohiyatli hamda malakali xodimlarning roli muhimligidan kelib chiqib, 2024-yil davomida xodimlarning kasbiy bilimlarini oshirish va amaliy ko'nikmalarini kuchaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Markaziy bank markaziy apparatining 201 nafar (*o'tgan yilga nisbatan +8%*) rahbar va xodimlari hamda hududiy bosh boshqarmalarining 7 nafar xodimi xalqaro moliya institutlarida tashkil etilgan malaka oshirish o'quv tadbirlarida amaliy va nazariy bilimlarini oshirish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Hisobot davrida Markaziy bank xodimlari uchun chet el hamkorlari tomonidan xorijiy davlatlarda 129 ta o'quv tadbiri, jumladan, 88 ta o'quv kursi, 23 ta o'quv seminari, 17 ta tajriba o'rganish dasturi va 1 ta uzoq muddatli o'quv dasturlari tashkil etildi.

Xorijiy markaziy banklar, xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan jami 129 ta tadbirlarning 30 tasi pul-kredit siyosati va makroiqtisodiy siyosat, 18 tasi kredit tashkilotlarini tartibga solish va nazorat qilish, 10 tasi xalqaro zaxiralarni boshqarish, 10 tasi moliyaviy texnologiyalar, 9 tasi axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni boshqarish, 9 tasi makroprudensial siyosat, 8 tasi yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish hamda 35 tasi boshqa yo'nalishlarda o'tkazilgan.

Ta'kidlash joizki, 2024-yilda xodimlar ishtirok etgan 129 ta xorijiy o'quv tadbirlarining 72 foizi to'liq hamkor tashkilot hisobidan, 20 foizi qisman va 8 foizi to'liq Markaziy bank hisobidan moliyalashtirilgan.

Hisobot davrida Markaziy bankning **187** nafar xodimi Jahon banki, Rossiya, Turkiya va Qozog'iston davlatlarining markaziy banklari hamda xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan kredit tashkilotlarini tartibga solish va nazorat qilish, axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni boshqarish, pul-kredit va makroiqtisodiy siyosat hamda rahbar xodimlarning boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda tashkil etilgan **40** ta onlayn o'quv tadbirlarida ishtirok etishdi.

Shu bilan birga, davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida Markaziy bank Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosh boshqarmasining 15 nafar xodimi “O‘zbek hamda qoraqalpoq adabiy tili me‘yorlari va davlat tilida ish yuritish” kurslarida bilim darajalarini oshirishdi.

2024-yil davomida Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli kurslarda markaziy apparat va hududiy bosh boshqarmalarning 40 nafar xodimi ishtirok etdi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga Markaziy bankda **86 nafar** (*50 ta rahbar va 36 ta mutaxassis*) xorijiy magistrlik darajasini olgan, **26 nafar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasini tamomlagan va **160 nafar** Bank-moliya akademiyasini tamomlagan xodim mehnat faoliyatini yuritmoqda.

Xorijiy magistrlik darajasini olgan **86 nafar** xodimlarning **40** nafari Yaponiya, **20** nafari Buyuk Britaniya, **8** nafari Koreya va **18** nafari boshqa xorijiy mamlakatlarda davlat siyosati, iqtisodiyot, moliya va bank ishi, MBA va xalqaro menejment kabi yo‘nalishlarda ta‘lim olishgan.

Hozirgi kunda Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Ispaniya davlatlari oliygohlarining magistratura dasturida **17** nafar, doktorantura (PhD) dasturlarida **2** nafar, Bank-moliya akademiyasi **38** nafar, Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabida **5** nafar Markaziy bank xodimi tahsil olib olmoqda.

Ta‘kidlash joizki, xorijiy va Markaziy bankda o‘tkaziladigan o‘quv tadbirlari bo‘yicha barcha o‘quv materiallari Markaziy bank axborot portalining bilimlar bazasiga joylashtirilib kelinmoqda.

8.4. Pul-kredit va moliyaviy statistikani takomillashtirish

2024-yilda moliya tizimi statistikasini shakllantirish va xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish hamda e‘lon qilinadigan statistik ma‘lumotlar ko‘lamini kengaytirish borasidagi ishlar davom ettirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha **“Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi”** va **“Moliyaviy tashkilotlar (*moliya tizimi*) sharhi”**lari Markaziy bankning rasmiy veb-saytida, O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma‘lumotlar portalida, shuningdek, XVJning “kengaytirilgan Ma‘lumotlarni Tarqatishning Umumiy Tizimi” hamda “Xalqaro Moliyaviy Statistika” platformalarida davriy ravishda e‘lon qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur yangi sharhlarni davriy ravishda shakllantirish va e‘lon qilib borilishi O‘zbekiston moliya tizimi faoliyatining rivojlanish holati bo‘yicha keng qamrovli statistik ma‘lumotlar xalqaro moliya tashkilotlar, xorijiy investorlar va biznes subyektlarining uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, mamlakatlar moliya tizimi qamrovi va ommabopligini aks ettiruvchi XVJning “Moliyaviy ommaboplik sharhi (*Financial Access Survey*)” statistik platformasida e’lon qilinadigan statistik ma’lumotlar yanada kengaytirilib, tarixiy davr ma’lumotlari bilan to’liq qayta shakllantirildi hamda ushbu platformaga joylashtirildi.

2024-yilda XVJ kelishuvlarining IV moddasi bo’yicha hisobotida “Kuzatuvlar uchun ma’lumotlar monadligini baholash” doirasida pul-kredit va moliyaviy statistika yo’nalishidagi ma’lumotlar sifati bo’yicha umumiy “B” yoki XVJ ga taqdim etilgan ma’lumotlar **“kuzatuvlar o’tkazish uchun yetarli”** reyting ko’rsatkichi bilan baholandi.

Ushbu reyting ko’rsatkichi tarkibidagi **ma’lumotlar qamrovi bo’yicha – “B”, ma’lumotlar kengligi bo’yicha – “A/B” va davriylik va muddatlar bo’yicha – “A”** reyting ko’rsatkichi berilgan.

Mazkur umumiy “B” reyting ko’rsatkichini “A” reyting ko’rsatkichiga olib chiqish bo’yicha XVJ ekspertlari bilan hamkorlik yo’lga qo’yilib, tegishli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi, Yevropa Statistika Tashkiloti hamda Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasining ekspertlari tomonidan pul-kredit va tashqi sektor statistikasini shakllantirish, yuritish va e’lon qilish jarayoni, xususan, me’yoriy-xuquqiy asoslar, ma’lumotlar manbalari, metodologiyalarning xalqaro standartlar va me’yorlarga muvofiqligi bo’yicha baholashdan o’tkazildi hamda ijobiy hulosa olindi.

8.5. Markaziy bank faoliyatidagi tahlil va tadqiqotlar

Hisobot yilida olib borilgan tadqiqot ishlarida asosiy e’tibor global iqtisodiyotda vujudga kelayotgan yangi fenomenlar ta’sirida kuchayib borayotgan noaniqliklarni, inflyatsiyaga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilib borish, mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, shuningdek, ichki va tashqi iqtisodiy jarayonlarga oid turli makroiqtisodiy masalalarga qaratildi.

Xususan, 2024-yilda Markaziy bank faoliyatiga oid 15 tadan ortiq inflyatsiya va narxlar, moliya bozori, tashqi iqtisodiy faoliyat va global iqtisodiyot, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari hamda norasmiy iqtisodiyot kabi sohalarga oid fundamental tadqiqotlar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotlar xulosalari pul-kredit, valyuta, bank nazorati siyosatlari bo’yicha qarorlar qabul qilishda foydalanilmoqda.

Xususan, inflyatsiya omillarini har tomonlama chuqur tahlil qilish va inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan samarali pul-kredit siyosatini ishlab chiqish zaruriyatidan kelib chiqib, **O’zbekistonda iste’mol narxlari o’zgarishining talab va taklif omillari tomondan tahlil** qilish amaliyoti amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, hozirgi paytda **umumiy inflyatsiyada:**

talab omillari – **49,3** foiz, taklif omillari – **50,7** foiz,

oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasida talab omillari – **49,7** foiz, taklif omillari – **50,3** foiz,

nooziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasida talab omillari – **51,5** foiz, taklif omillari – **48,5** foiz,

xizmatlar inflyatsiyasida talab omillari – **44,7** foiz, taklif omillari – **55,3** foizni tashkil etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari, o'z navbatida, amalga oshirilgan iqtisodiy tadbirlarni samaradorligini baholash, inflyatsiya kutilmalarini boshqarish va iste'mol narxlari ortishi bilan bog'liq xatarlarni yumshatish imkonini beradi.

Bundan tashqari, makroiqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi hamda ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi **inflyatsiyaning tezlashishiga olib kelmaydigan ishsizlik darajasi (NAIRU)** baholandi.

NAIRU darajasini baholash, o'z navbatida, mehnat bozoridagi tebranishlar tufayli yuzaga keladigan inflyatsion bosimlarni yumshatishga qaratilgan choralarni o'z vaqtida ko'rish imkonini beradi.

Bundan tashqari, **tovar va xizmatlar importi va eksportiga bo'lgan talab bo'yicha elastiklik** tahlili o'tkazilib, unda barcha tovar va xizmatlar elastik va noelastik guruhlariga ajratilgan holda tahlil qilindi hamda mazkur sharoitlarda so'm almashuv kursining tebranishi eksport va import hajmiga ta'sir ko'rsatish darajasi o'rganildi.

Narx o'zgarishiga nisbatan import tovarlariga bo'lgan talab elastikligining o'zgarishi tahlil qilinganda, 2023-yilda elastik bo'lgan tovarlar ulushi 2022-yilga nisbatan 3,7 foiz bandga kamayib, 40,7 foizni tashkil etganligi, noelastik va doimiy xarakterga ega bo'lmagan tovarlar ulushi mos ravishda 2,3 va 6,0 foizga ortganligi aniqlandi.

Shuningdek, 2023-yil ma'lumotlari bazasida valyuta almashuv kursining (*AQSh dollariga nisbatan*) qo'shimcha 10 foizga devalvatsiyaga uchrashi mazkur davrda tovarlar importi hajmini 1,3 foiz bandga kamaytirishi va oltinsiz eksport hajmini 2,1 foiz bandga ko'paytirishi mumkinligi to'g'risidagi hulosalar qilindi.

Tadqiqotlar jarayonlarida mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish maqsadida asosiy xomashyo mahsulotlariga qaramlik darajasini baholash va eksport tovarlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilishga ham alog'ida e'tibor qaratildi.

2024-yilda **xomashyo eksportiga qaramlik hamda eksport tovarlari diversifikatsiyasi tahlili** o'tkazilib, ma'lum bir turdagi eksport mahsulotlariga qaramlik mamlakat iqtisodiyotiga qay tarzda ta'sir etishi o'rganildi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlaridagi o'zgarishlar mahsulot yetishtiruvchi uy-xo'jaliklari foydasining o'zgarishiga ta'siri **qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi pasayishining** fermerlar hamda aholining mazkur sektorda ish bilan band bo'lgan qismining **aholi daromadlariga ta'siri** mavzusida tadqiqotlar amalga oshirildi.

Hisobot yilida yuqorida ko'rsatilgan tadqiqotlar bilan bir qatorda, ichki va tashqi makroiqtisodiy holatlarga oid, jumladan:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy siyosatlarining samaradorligi baholab borish;

- global iqtisodiyot yuz berayotgan yangi tendensiyalar, jumladan, demografik o'zgarishlar, geosiyosiy holat va fragmentatsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini baholash;

- bank va to'lov tizimlari bozorida yangi innovatsion xizmat turlarining kengayib borayotgan sharoitda tizimlarning barqaror ishlashini ta'minlashga oid boshqa ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilib, ularning natijalari iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol qo'llanildi.

Bundan tashqari, rasmiy statistik ma'lumotlarga muqobil iqtisodiy faollik bo'yicha tezkor ma'lumotlarni olish maqsadida real sektor korxonalari o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali "Iqtisodiy faollik indeksi" va "Iqtisodiy kutilmalar indeksi" ko'rsatkichlari shakllantirib borilmoqda.


8.6. Ichki audit va komplayens-nazorat xizmati faoliyati

2024-yilda Markaziy bankning ichki nazorat tizimini ilg'or xalqaro amaliyot va standartlarga asosan takomillashtirish bo'yicha ishlar davom ettirilib, bu borada asosiy e'tibor Markaziy bank faoliyatiga doir xatarlarni boshqarish tizimi va xatarga asoslangan ichki auditni joriy qilishga qaratildi.

Xususan, hisobot yilida "Markaziy bankda 2024-2026-yillarda xatarlarni boshqarish tizimini joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"ga muvofiq Markaziy bank faoliyatiga doir ish jarayonlarini tahlil qilish asosida operatsion, reputatsion va moliyaviy xatarlar baholandi hamda Markaziy bankning Xatarlar reyestri shakllantirildi.

Markaziy bank boshqaruvining tegishli qarori bilan mazkur xatarlarning Markaziy bank faoliyatiga ta'sirini va ularning yuzaga kelish ehtimolini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi hamda bugungi kunda uning ijrosini ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

8.6.1-chizma

**Markaziy bank faoliyatiga doir xatarlarning
turlari bo'yicha dekompozitsiyasi**

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, hisobot yilida Markaziy bankda xatarlarni boshqarish borasidagi maqsad va vazifalarni, xatarlarni boshqarish tamoyillarini, xatarlarning Markaziy bank uchun maqbul darajalarini, xatarlarni boshqarishning asosiy jarayonlari va tashkiliy tuzilishini belgilaydigan **“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xatarlarni boshqarish Siyosati”**ning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

Xatarlarni boshqarish ishlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etish maqsadida hisobot yilida Markaziy bank **Xatarlarni boshqarish bo‘yicha xalqaro ishchi guruhi (IORWG)**ga a‘zo bo‘ldi. Mazkur xalqaro ishchi guruhga a‘zolik doirasida ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish asosida kelgusida Markaziy bankning Xatarlar reyestri va xatarlarni boshqarish mexanizmlari takomillashtirib boriladi.

O‘z navbatida, Markaziy bankda **xatarga asoslangan ichki auditni joriy qilish** borasida Xalqaro valyuta jamg‘armasi tavsiyalari asosida Markaziy bank ichki audit xizmati vazifa va funksiyalari **Ichki auditning Xalqaro standartlari (GIAS)** talablariga muvofiqlashtirildi.

Bunda, ichki audit xizmati faoliyatining asosiy maqsadi sifatida Markaziy bank boshqaruvi va rahbariyatini tarkibiy bo‘linmalarga yuklatilgan vazifa va funksiyalar bajarilishi, xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimlari samaradorligi hamda aktivlar butligi bo‘yicha xatarlar tahliliga asoslangan va xolis axborotlar bilan ta‘minlash belgilandi.

Xatarga asoslangan ichki audit an‘anaviy ichki auditdan farqli ravishda, tashkilot vazifa va funksiyalari ijrosi bilan bog‘liq ish jarayonlarining bajarilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va xato-kamchiliklarni oldini olish hamda kamchilik va zaifliklarni bartaraf etish orqali tashkilot faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Hisobot yilida Ichki auditning xalqaro standartlari (*GIAS*) talablariga asosan 3 yillik ichki audit sikli doirasida Markaziy bank faoliyatiga doir xatarlarni boshqarish bo'yicha ishlar samaradorligini to'liq auditdan o'tkazishni nazarda tutuvchi **2025-2027-yillarga mo'ljallangan ichki auditni tashkil etish rejasi** tasdiqlandi.

Mazkur audit rejasi Markaziy bank faoliyatidagi xatarlarni baholash mezonlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, undagi auditdan o'tkaziladigan tarkibiy bo'linmalar (*audit obyektlari*) ro'yxati va auditdan o'tkazish muddatlari ularning faoliyatidagi xatarlarning dolzarbligi darajasidan kelib chiqib shakllantirilgan.

Ushbu audit rejasiga muvofiq, 2025-yildan boshlab audit tadbirlarini o'tkazish orqali Markaziy bank faoliyatiga doir xatarlarning ta'sirini kamaytirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar samaradorligi, ularning yetarliligi hamda ijrosi holati baholab boriladi, zarur holatlarda xatarlar qayta baholanadi hamda ularni boshqarishni yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berib boriladi.

Shuningdek, Markaziy bank ichki audit xizmati faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiqligini baholab borishga qaratilgan **“Markaziy bankda ichki audit sifatini ta'minlash va takomillashtirish Dasturi”** qabul qilindi.

Ushbu Dasturga muvofiq, 2025-yildan boshlab Markaziy bankda o'tkaziladigan ichki audit tadbirlarining uslubiy yondashuvlarini, auditni amalga oshirish, natijalarini hujjatlashtirish va audit tavsiyalari monitoringi jarayonlarini har yili ichki baholashdan hamda har 5 yilda tashqi baholashdan o'tkazish amaliyoti joriy qilinadi.

Hisobot davrida Xalqaro valyuta jamg'armasining navbatdagi texnik ko'magi jalb qilinib, Markaziy bank ichki audit xizmati va boshqa tarkibiy bo'linmalar xodimlarining xatarlarni boshqarish hamda xatarga asoslangan ichki audit bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalari kengaytirib borilmoqda.

Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari faoliyatini masofaviy ichki auditdan o'tkazish amaliyoti ko'lami yanada oshirildi. Xususan, 2023-yilda auditdan o'tkazilgan hududiy bosh boshqarmalarning 30 foizida audit tadbirlari masofaviy shaklda amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 70 foizni tashkil qildi.

Masofaviy audit usuli auditni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish bilan bir qatorda audit obyekti faoliyatiga doir hujjatlarni yanada kengroq o'rganish hamda audit jarayonini yanada samarali nazorat qilish orqali ichki audit tadbirlari sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Hisobot yili davomida Markaziy bank tizimida **korruptsiyaning oldini olish** yo'nalishidagi ishlar samaradorligini oshirish borasida ham qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Markaziy bank markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalar xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi yillik deklaratsiyalari tahlil qilinib, Markaziy bank tizimi bo‘yicha **“Manfaatlar to‘qnashuvi reyestri”** shakllantirildi hamda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelishini oldini olish chora-tadbirlari amalga oshirib borildi.

Markaziy bank tomonidan 2024-yilda jami **180 ta** tender va tanlov asosida hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xo‘jalik shartnomalari tuzilgan bo‘lib, mazkur shartnomalar bo‘yicha xaridlarni amalga oshirishda ishtirokchilarda **affillanganlik, manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarini oldini olishga** qaratilgan o‘rganishlar o‘tkazildi.

Shuningdek, hisobot davrida Markaziy bankka ishga qabul qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar oldini olish yuzasidan **105 nafar** nomzodlarning ma’lumotlari o‘rganildi. Xususan, mazkur o‘rganishda nomzodlarning manfaatlar to‘qnashuvi holatlari, avvalgi ish joyidagi xulq-atvori, mehnat faoliyatida yuklatilgan vazifalarni halol va xolis amalga oshirganligi hamda korrupsiyaviy hatti-harakatlarni sodir etganligi bilan bog‘liq ma’lumotlarga e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining **“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”**gi Qonunida davlat organlari xodimlariga belgilangan taqiqlar va cheklovlar yuzasidan Markaziy bank tizimi xodimlari hamda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarning **tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish** hamda Markaziy bank nazorati ostidagi **tashkilotlar aksiyalariga egalik qilinishi** holatlarini ochiq ma’lumotlar bazalari orqali o‘rganib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda “Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish” mavzusida Markaziy bankning **1 992 nafar** boshqaruv xodimlari maxsus elektron platforma orqali masofaviy **o‘quv kursida o‘qitildi**.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda Markaziy bank xodimlari uchun **manfaatlar to‘qnashuviga doir qonunchilik talablari** borasidagi tarqatma materiallar (*teybl-tent, bukletlar, kalendar*) ishlab chiqildi hamda xodimlarga yetkazildi.

Shuningdek, Markaziy bankka qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan vazifalar va faoliyatni amalga oshirishga doir qo‘shimcha **funksiyalarga doir korrupsiyaviy xavf-xatarlar E-anticor.uz** platformasi orqali baholashdan o‘tkazildi.


Markaziy bank tizimida korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularni sodir etishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy bilimni oshirish yuzasidan **78 marta** (*Markaziy apparatda – 6 ta, hududiy bosh boshqarmalarda – 50 ta, tasarrufdagi korxonalarda – 22 ta*) davra suhbatlari va o‘quv-seminarlar tashkil etildi.

Shu bilan birga, hisobot yilida Markaziy bankning barcha hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan o'rganishlar o'tkazildi.

O'rganishlar davomida xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hamda Markaziy bankning ichki normativ-huquqiy hujjatlari mazmun-mohiyati va talablari yuzasidan o'quv-seminarlar tashkil etilib, xodimlar bilan profilaktik suhbatlar, test sinovlari hamda anonim so'rovlar o'tkazildi.

8.6.2-chizma

2023-2024-yillarda Markaziy bank tizimida o'tkazilgan korrupsiyaga qarshi o'quv va targ'ibot tadbirlari soni



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bunda, tarkibiy tuzilmalar xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganligi yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik holatlari aniqlanmadi.

Shuningdek, Markaziy bankda sohaga oid normativ-huquqiy bazani Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi xalqaro standarti ISO 37001 talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan "Markaziy bank tizimida xodimlar tomonidan mehnat faoliyati bilan bog'liq sovg'a va mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish, sovg'a qiymati va uni tasarruf etish tartibi" amaliyotga tadbqiq etildi.

Mazkur hujjatda Markaziy bank tizimi xodimlariga Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadigan tashkilotlar va xo'jalik shartnomalari bo'yicha kontragentlardan har qanday shaklda sovg'a yoki mehmondo'stlik belgisini qabul qilish qat'iyon taqiqlab qo'yildi.

Hisobot yili yakuni bo'yicha Markaziy bank tizimida joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini reyting baholash tizimi doirasida yuqori bahoga muvofiq deb topildi.

IX. ILOVALAR

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari*
(joriy narxlarda)

Ko‘rsatkichlar	2024-yil	
	hajmi, mlrd so‘mda	real o‘sishi
Yalpi ichki mahsulot	1 454 573,9	6,5%
Sanoat mahsuloti hajmi	885 818,9	6,8%
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	467 041,5	3,1%
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	493 652,0	27,6%
Qurilish ishlari hajmi	233 832,9	8,8%
Chakana savdo aylanmasi	403 431,8	9,9%
Xizmatlar, jami	818 428,3	12,9%
Tashqi savdo aylanmasi, mln dollarda	65 934,0	3,8%
Eksport, mln dollarda	26 948,2	8,4%
Import, mln dollarda	38 985,8	0,8%
Tashqi savdo aylanmasi saldos, mln dollarda	-12 037,6	x

*Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlari

2-jadval

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasining asosiy savdo hamkorlari bilan amalga oshirgan eksport-import operatsiyalari*

Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi		Eksport		Import	
	mln dollar	ulushi	mln dollar	ulushi	mln dollar	ulushi
Jami	65 934,0	100,0%	26 948,2	100,0%	38 985,8	100,0%
<i>shu jumladan:</i>						
Xitoy	12 486,7	18,9%	2 054,9	7,6%	10 431,8	26,8%
Rossiya	11 630,3	17,6%	3 682,9	13,7%	7 947,3	20,4%
Qozog‘iston	4 277,8	6,5%	1 452,3	5,4%	2 825,5	7,2%
Turkiya	2 937,3	4,5%	1 169,3	4,3%	1 768,0	4,5%
Koreya	2 000,6	3,0%	39,9	0,1%	1 960,8	5,0%
Germaniya	1 213,9	1,8%	97,5	0,4%	1 116,5	2,9%
Turkmaniston	1 148,2	1,7%	128,2	0,5%	1 020,0	2,6%
Afg‘oniston	1 134,3	1,7%	1 089,3	4,0%	44,9	0,1%
Fransiya	1 131,3	1,7%	795,1	3,0%	336,2	0,9%
Hindiston	980,4	1,5%	126,8	0,5%	853,6	2,2%
AQSh	881,7	1,3%	317,4	1,2%	564,3	1,4%
Qirg‘iziston	846,4	1,3%	513,3	1,9%	333,1	0,9%
Tojikiston	702,7	1,1%	552,2	2,0%	150,5	0,4%
BAA	649,7	1,0%	249,6	0,9%	400,1	1,0%
Braziliya	589,4	0,9%	163,3	0,6%	426,2	1,1%

*Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlari

**O‘zbekiston Respublikasi kredit tashkilotlari
tarkibiy bo‘linmalari soni**

	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.
1. Kredit tashkilotlari, jami*	204	229
<i>shu jumladan:</i>		
Tijorat banklari, shundan:	35	36
Davlat ulushi mavjud banklar	10	9
Boshqa banklar	25	27
Nobank kredit tashkilotlari, shundan:	169	193
Mikromoliya tashkilotlari	84	100
Lombardlar	84	92
Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	1	1
2. Tijorat banklari filiallari, jami	696	288
3. Bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar)	1 816	1 720
4. 24/7 shoxobchalari	3 723	4 447

*Tijorat banklari hamda nobank kredit tashkilotlarining xorijiy davlatlarda filiallari mavjud emas

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari
(2025-yil 1-yanvar holatiga)

mlrd so‘mda

Banklar	Aktiv		Kredit qo‘yilmalari qoldig‘i		Kapital		Depozitlar qoldig‘i	
	summasi	ulushi	summasi	ulushi	summasi	ulushi	summasi	ulushi
Jami	769 330	100,0%	533 121	100,0%	114 792	100,0%	308 692	100,0%
Davlat ulushi mavjud banklar	503 187	65,4%	366 731	68,8%	70 175	61,1%	154 511	50,1%
Davlat ulushi bo‘lmagan banklar	266 143	34,6%	166 391	31,2%	44 617	38,9%	154 181	49,9%

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining
asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishi

mlrd so‘mda

Ko‘rsatkichlar	01.01.2024-y.			01.01.2025-y.			Nominal o‘sishi	O‘sishi (almashuv kursi ta’siri chiqarib tashlanganda)
	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi		
Aktivlar	652 157	291 791	44,7%	769 330	316 440	41,1%	18,0%	15,8%
Kredit qo‘yilmalari qoldig‘i	471 406	212 036	45,0%	533 121	228 718	42,9%	13,1%	10,9%
Depozitlar qoldig‘i	241 687	72 171	29,9%	308 692	77 458	25,1%	27,7%	26,3%
Kapital	97 079	395	0,4%	114 792	413	0,4%	18,2%	18,2%

6-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari

mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	01.01.2024-y.			01.01.2025-y.		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar
Aktivlarning majburiyatlarga nisbati, foizda	117,5%	116,7%	119,3%	117,5%	116,2%	120,1%
Aktivlar	652 157	441 562	210 595	769 330	503 187	266 143
Majburiyatlar	555 078	378 483	176 595	654 538	433 012	221 526
Kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati, foizda	195,0%	268,1%	117,7%	172,7%	237,3%	107,9%
Kreditlar	471 406	333 219	138 186	533 121	366 731	166 391
Depozitlar	241 687	124 305	117 381	308 692	154 511	154 181

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kapital miqdori bo‘yicha guruhlanishi

Ko‘rsatkichlar	Jami		shulardan:												
			100 mlrd so‘mgacha		100 mlrd so‘mdan 200 mlrd so‘mgacha		200 mlrd so‘mdan 350 mlrd so‘mgacha		350 mlrd so‘mdan 500 mlrd so‘mgacha		500 mlrd so‘mdan 1 trln so‘mgacha		1 trln so‘mdan 2 trln so‘mgacha		2 trln so‘m va undan yuqori
	banklar soni	miqdori, mlrd so‘m	banklar soni	ulushi	banklar soni	ulushi	banklar soni	ulushi	banklar soni	ulushi	banklar soni	ulushi	banklar soni	ulushi	banklar soni

01.01.2024-yil holatiga

Jami kapital	35	97 079	0	0,0%	4	0,7%	5	1,3%	4	1,9%	2	1,5%	6	8,1%	14	86,5%
shundan, ustav kapitali	35	68 643	0	0,0%	1	0,1%	10	3,4%	6	3,4%	4	3,3%	7	13,8%	7	75,9%

01.01.2025-yil holatiga

Jami kapital	36	114 792	0	0,0%	3	0,4%	0	0,0%	2	0,8%	9	4,6%	7	8,8%	15	85,4%
shundan, ustav kapitali	36	83 666	0	0,0%	1	0,1%	2	0,5%	1	0,5%	18	12,2%	4	6,1%	10	80,6%

8-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlar miqdori bo'yicha guruhlanishi
(2025-yil 1-yanvar holatiga)

mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	Jami		Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlanishgan tijorat banklari taqsimoti							
			3 trln so'mgacha		3 dan 10 trln so'mgacha		10 dan 30 trln so'mgacha		30 trln so'mdan yuqori	
	banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa
Aktivlar										
Aktivlar	36	769 330,4	11	9 054,0	7	45 746,4	10	176 288,0	8	538 242,1
Kreditlar	36	533 121,2	11	3 419,8	7	26 462,6	10	112 748,5	8	390 490,2
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	36	177 532,1	11	673,4	7	14 740,0	10	40 959,2	8	121 159,6
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	36	355 589,1	11	2 746,5	7	11 722,7	10	71 789,3	8	269 330,6
Qisqa muddatli kreditlar	36	76 032,7	11	494,0	7	4 523,5	10	13 521,5	8	57 493,7
Uzoq muddatli kreditlar	36	457 088,5	11	2 925,8	7	21 939,1	10	99 227,1	8	332 996,5
Milliy valyutadagi kreditlar	36	304 403,2	11	3 100,2	7	19 626,3	10	72 390,5	8	209 286,1
Chet el valyutasidagi kreditlar	36	228 718,0	11	319,6	7	6 836,3	10	40 358,0	8	181 204,1
Kapital va moliyaviy natijalar										
Kapital	36	114 792,4	11	4 637,6	7	8 400,9	10	27 568,0	8	74 185,8
Kapital yetarliligi ko'rsatkichi, foizda	36	0,2	11	0,5	7	0,2	10	0,2	8	0,2
Sof foyda	36	6 965,7	11	-191,2	7	1 554,0	10	3 513,8	8	2 089,1
Aktivlar daromadliligi, foizda	36	0,0	11	0,0	7	0,0	10	0,0	8	0,0
Kapital daromadliligi, foizda	36	0,1	11	-0,1	7	0,2	10	0,1	8	0,0
Majburiyatlar										
Aholi omonatlari	36	122 420,6	11	1 069,3	7	11 991,6	10	37 879,2	8	71 480,5
Yuridik shaxslar depozitlari	36	186 271,7	11	1 994,8	7	11 850,2	10	54 172,8	8	118 253,9

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari

mlrd so'mda

Asosiy ko'rsatkichlar	2023-yil dekabr	2024-yil dekabr
Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati	17,5%	17,4%
Jami regulyativ kapital	105 914,5	124 793,2
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	603 944,6	718 557,1
I-darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati	14,1%	14,3%
I-darajali kapital	84 910,8	102 617,7
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	603 944,6	718 557,1
Zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlar va mikroqarzlarining regulyativ kapitalga nisbati	10,8%	10,1%
Zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlar va mikroqarzlar	10 515,5	11 556,7
Jami regulyativ kapital	97 079,2	114 792,4
Muammoli kreditlar va mikroqarzlarining jami kreditlar va mikroqarzlarga nisbati	3,5%	4,0%
Muammoli kreditlar va mikroqarzlar	16 621,4	21 185,1
Jami kreditlar va mikroqarzlar	471 405,5	533 121,2
Aktivlar rentabelligi	2,6%	1,4%
Soliq to'langunga qadar sof foyda	15 155,2	9 654,5
Aktivlarning umumiy summasi (davr uchun o'rtacha)	593 184,7	703 257,9
Kapital rentabelligi	14,2%	6,6%
Sof foyda	12 380,0	6 965,7
Jami kapital (davr uchun o'rtacha)	86 923,4	105 182,5
Foizli marjaning yalpi daromadga nisbati	40,8%	38,3%
Foizli marja	28 995,8	34 191,8
Yalpi daromad	71 049,6	89 311,8
Foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati	46,2%	51,9%
Foizsiz xarajatlarni	32 836,1	46 334,7
Yalpi daromad	71 049,6	89 311,8
Likvid aktivlarning jami aktivlarga nisbati	16,2%	18,7%
Likvid aktivlar	105 421,1	143 550,1
Aktivlarning umumiy summasi	652 157,1	769 330,4
Likvid aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati	37,1%	42,6%
Likvid aktivlar	105 421,1	143 550,1
Qisqa muddatli majburiyatlar	283 846,0	336 726,3
Jami I-darajali kapitalning aktivlarning umumiy summasiga nisbati	14,9%	14,9%
I-darajali kapital	97 079,2	114 792,4
Aktivlarning umumiy summasi	652 157,1	769 330,4

10-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining muammoli kreditlari

mlrd so'mda

shundan:									
Sana	Kreditlar			Muammoli kreditlar			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi		
	Jami	davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi boʻlmagan banklar	Jami	davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi boʻlmagan banklar	Jami	davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi boʻlmagan banklar
01.01.2024-y.	471 406	333 298	138 107	16 621	13 267	3 354	3,5%	4,0%	2,4%
01.01.2025-y.	533 121	366 731	166 391	21 185	14 344	6 841	4,0%	3,9%	4,1%

11-jadval

**O'zbekiston Respublikasi bank tizimining
daromadlilik ko'rsatkichlari**

mlrd so'mda

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.
Foizli daromadlar	86 679,1	111 866,4
Foizli xarajatlar	57 683,3	77 674,6
Foizli marja	28 995,8	34 191,8
Foizsiz daromadlar	42 053,7	55 120,0
Foizsiz xarajatlar	13 272,8	22 619,3
Operatsion xarajatlar	19 563,3	23 715,4
Foizsiz daromad (zarar)	9 217,6	8 785,3
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	18 413,1	25 939,3
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	4 645,1	7 383,2
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	15 155,2	9 654,5
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	2 775,2	2 690,2
Foyda bo'yicha tuzatishlar	0,0	1,4
Sof foyda (zarar)	12 380,0	6 965,7

Bank tizimi daromadlik ko'rsatkichlari	2023-yil	2024-yil
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,6%	1,4%
Sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	14,2%	6,6%
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	4,4%	4,4%
Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati	6,2%	6,4%
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	5,2%	5,2%
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,9%	4,9%

12-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining kapital yetarililigi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	01.01.2024-yil.		01.01.2025-yil.	
	mlrd so'mda	ulushi	mlrd so'mda	ulushi
I-darajali kapital	84 910,8	80,2%	102 617,7	82,2%
Asosiy kapital	84 865,9	80,1%	102 396,3	82,1%
Qo'shimcha kapital	44,9	0,0%	221,5	0,2%
II-darajali kapital	21 003,7	19,8%	22 175,4	17,8%
Jami regulyativ kapital	105 914,5	100,0%	124 793,2	100,0%
<i>Kapital monandlik darajasi, foizda</i>	17,5%		17,4%	
<i>I-darajali kapital monandlilik darajasi, foizda</i>	14,1%		14,3%	

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining likvidlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati	14,9%	17,3%
<i>milliy valyutada</i>	12,9%	16,4%
<i>xorijiy valyutada</i>	17,3%	18,7%
Likvidlikni qoplash me‘yori koeffitsiyenti <i>(minimal talab - 100 foiz)</i>	164,8%	193,8%
<i>milliy valyutada</i>	157,0%	178,4%
<i>xorijiy valyutada</i>	167,9%	200,8%
Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori <i>(minimal talab - 100 foiz)</i>	111,8%	115,3%
<i>milliy valyutada</i>	111,8%	115,4%
<i>xorijiy valyutada</i>	111,9%	115,5%
Lahzali likvidlik koeffitsiyenti <i>(minimal talab - 25 foiz)</i>	87,4%	112,3%

14-jadval
O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha tasnifi

Ko‘rsatkichlar	01.01.2024-y.		01.01.2025-y.		O‘tgan yilga nisbatan
	mlrd so‘mda	ulushi	mlrd so‘mda	ulushi	
Jami kreditlar	471 406	100,0%	533 121	100,0%	13,1%
Sanoat	140 152	29,7%	153 389	28,8%	9,4%
Qishloq xo‘jaligi	47 255	10,0%	50 303	9,4%	6,5%
Qurilish sohasi	12 275	2,6%	12 960	2,4%	5,6%
Savdo va umumiy xizmat	32 516	6,9%	38 130	7,2%	17,3%
Transport va kommunikatsiya	34 342	7,3%	32 808	6,2%	-4,5%
Moddiy va texnik ta’minotni rivojlantirish	4 067	0,9%	4 213	0,8%	3,6%
Uy-joy kommunal xizmati	2 345	0,5%	2 324	0,4%	-0,9%
Jismoniy shaxslar	148 621	31,5%	177 532	33,3%	19,5%
Boshqa sohalar	49 833	10,6%	61 463	11,5%	23,3%

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari va depozit sertifikatlari tasnifi

mlrd so‘mda

Sana	Jami	muddat bo‘yicha:				1 yildan yuqori
		Talab qilib olinguncha	1 kundan 30 kungacha	31 kundan 180 kungacha	181 kundan 365 kungacha	
01.01.2024-y.	241 686,6	85 197,6	6 300,7	30 028,0	34 951,7	85 208,6
<i>ulushi</i>	100,0%	35,3%	2,6%	12,4%	14,5%	35,3%
01.01.2025-y.	308 692,3	99 094,0	11 667,6	32 312,1	46 259,8	119 358,9
<i>ulushi</i>	100,0%	32,1%	3,8%	10,5%	15,0%	38,7%

16-jadval

Pul massasi va uning tarkibi

Koʻrsatkichlar	01.01.2024-yil		01.01.2025-yil		Oʻtgan yilga nisbatan
	mlrd soʻmda	ulushi	mlrd soʻmda	ulushi	
Pul massasi (M2), jami	212 086,1	100,0%	277 064,6	100,0%	130,6%
shu jumladan:					
muomaladagi naqd pullar (M0)	45 607,7	21,5%	53 328,5	19,2%	116,9%
naqd pulsiz mablagʻlar	166 478,4	78,5%	223 736,1	80,8%	134,4%
shundan:					
milliy valyutada	164 428,4	77,5%	220 115,7	79,4%	133,9%
chet el valyutasida	47 657,7	22,5%	56 948,9	20,6%	119,5%

Rezerv pullar va uning tarkibi

Ko'rsatkichlar	01.01.2024-yil		01.01.2025-yil		O'tgan yilga nisbatan
	mlrd so'mda	ulushi	mlrd so'mda	ulushi	
Rezerv pullar, jami	82 875,5	100,0%	90 739,6	100,0%	109,5%
<i>shu jumladan:</i>					
Markaziy bankdan tashqaridagi naqd pullar	54 628,3	65,9%	64 915,0	71,5%	118,8%
banklarning vakillik hisobvarag'idagi mablag'lari	25 054,5	30,2%	22 734,2	25,1%	90,7%
banklarning majburiy zaxiralardagi mablag'lari	2 843,5	3,4%	0,0	0,0%	-100,0%
Markaziy bank mijozlarining depozitlari	349,2	0,4%	3 090,4	3,4%	885,0%

18-jadval

**Tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan
bank plastik kartalari soni**

Hududlar	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.	O'tgan yilga nisbatan
Jami	46 205 950	61 996 419	134,2%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	522 652	2 405 396	460,2%
Andijon viloyati	3 279 025	3 834 804	116,9%
Buxoro viloyati	696 152	2 427 159	348,7%
Jizzax viloyati	408 518	1 607 896	393,6%
Qashqadaryo viloyati	909 870	3 391 066	372,7%
Navoiy viloyati	457 377	1 510 160	330,2%
Namangan viloyati	824 920	2 884 431	349,7%
Samarqand viloyati	1 535 589	3 637 466	236,9%
Surxondaryo viloyati	538 980	2 440 806	452,9%
Sirdaryo viloyati	302 747	1 074 576	354,9%
Toshkent viloyati	1 171 737	3 171 100	270,6%
Farg'ona viloyati	1 412 217	4 012 900	284,2%
Xorazm viloyati	551 101	2 177 565	395,1%
Toshkent shahri	33 595 065	27 421 094	81,6%

19-jadval

**Savdo va xizmat ko'rsatish subyektlariga
o'rnatilgan to'lov terminallari soni**

Hududlar	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.	O'tgan yilga nisbatan
Jami	429 334	426 225	99,3%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 760	21 488	317,9%
Andijon viloyati	41 301	24 766	60,0%
Buxoro viloyati	9 925	31 727	319,7%
Jizzax viloyati	5 095	13 176	258,6%
Qashqadaryo viloyati	12 208	26 671	218,5%
Navoiy viloyati	7 720	18 152	235,1%
Namangan viloyati	9 954	21 230	213,3%
Samarqand viloyati	15 315	34 132	222,9%
Surxondaryo viloyati	5 397	18 938	350,9%
Sirdaryo viloyati	3 997	11 710	293,0%
Toshkent viloyati	15 269	34 492	225,9%
Farg'ona viloyati	20 173	37 155	184,2%
Xorazm viloyati	7 976	20 716	259,7%
Toshkent shahri	268 244	111 872	41,7%

20-jadval

**Respublika hududlarida o‘rnatilgan bankomat
va infokiosklar soni**

Hududlar	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.	O‘tgan yilga nisbatan
Jami	26 655	29 909	112,2%
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	566	1 570	277,4%
Andijon viloyati	1 629	1 418	87,0%
Buxoro viloyati	733	1 790	244,2%
Jizzax viloyati	411	961	233,8%
Qashqadaryo viloyati	1 092	1 292	118,3%
Navoiy viloyati	318	825	259,4%
Namangan viloyati	1 076	1 538	142,9%
Samarqand viloyati	978	1 875	191,7%
Surxondaryo viloyati	744	1 310	176,1%
Sirdaryo viloyati	226	663	293,4%
Toshkent viloyati	1 737	2 780	160,0%
Farg‘ona viloyati	1 436	2 332	162,4%
Xorazm viloyati	724	1 526	210,8%
Toshkent shahri	14 985	10 029	66,9%

21-jadval

**To'lov terminallari orqali
amalga oshirilgan to'lovlar summasi**

mlrd so'mda

Hududlar	2023-yil davomida	2024-yil davomida	O'tgan yilga nisbatan
Jami	254 719,1	326 735,2	128,3%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 297,8	2 501,3	75,8%
Andijon viloyati	14 085,1	15 320,6	108,8%
Buxoro viloyati	3 603,4	3 552,8	98,6%
Jizzax viloyati	1 680,3	1 641,1	97,7%
Qashqadaryo viloyati	5 429,0	4 366,8	80,4%
Navoiy viloyati	3 112,4	3 218,2	103,4%
Namangan viloyati	3 049,2	2 213,9	72,6%
Samarqand viloyati	6 868,8	5 433,6	79,1%
Surxondaryo viloyati	2 770,2	2 124,6	76,7%
Sirdaryo viloyati	1 013,9	1 036,0	102,2%
Toshkent viloyati	4 975,7	5 577,3	112,1%
Farg'ona viloyati	6 866,6	7 550,4	110,0%
Xorazm viloyati	3 261,5	3 324,4	101,9%
Toshkent shahri	194 705,4	268 874,2	138,1%